5. Садовская, Е. А. Закономерности для прочности фибробетона при испытании на сжатие кубов и цилиндров / Е. А. Садовская, С. Н. Леонович, Н. А. Бударевич // Вестник Инженерной школы Дальневосточного федерального университета. – 2021. – № 2(47). – С. 100-106. – DOI 10.24866/2227-6858/2021-2-11.
6. Критический коэффициент интенсивности напряжений при поперечном сдвиге для нанофибробетона / Е. А. Садовская, Е. Н. Полонина, С. Н. Леонович [и др.] // Строительные материалы. – 2021. – № 9. – С. 41-47. – DOI 10.31659/0585-430X-2021-795-9-41-46.
7. Коледа, Е. А. Характеристики трещиностойкости фибробетона как определяющий фактор качества / Е. А. Коледа, С. Н. Леонович // Технология строительства и реконструкции TCR-2015: Сборник докладов Международной научно-технической конференции, Минск, 24–27



ноября 2015 года. – Минск: Белорусский национальный технический университет, 2017. – С. 282-287.

8. Вязкость разрушения нанофибробетона при нормальном отрыве и поперечном сдвиге / Е. А. Садовская, Е. Н. Полонина, С. Н. Леонович [и др.] // Инженерно-физический журнал. – 2022. – Т. 95, № 4. – С. 961-968.

9. Садовская, Е. А. Расчет коэффициента интенсивности напряжения при нормальном отрыве по прочности на растяжение при изгибе / Е. А. Садовская, С. Н. Леонович // Вестник Полоцкого государственного университета. Серия F. Строительство. Прикладные науки. – 2022. – № 8. – С. 27-31. – DOI 10.52928/2070-1683-2022-31-8-27-31.

UDK: 65014.1

**К ВОПРОСУ ПРИНУДИТЕЛЬНОГО ИЗЪЯТИЯ ОБЪЕКТОВ НЕДВИЖИМОСТИ И УСТАНОВЛЕНИЕ ИХ РЫНОЧНОЙ СТОИМОСТИ**

М.К. Зияев, А.Н. Джабриев, Н.У. Юсупджанова, С.О. Ибрагимов, Х.М. Бегматов

*Аннотация.* В работе рассматриваются вопросы оценки недвижимого имущества юридических и физических лиц, подлежащих к принудительному изъятию, частной собственности для государственных, социальных и общественных нужд.

*Ключевые слова.* Рынок недвижимости, материальный и моральный компенсация, экспроприация частной собственности.

**Научная новизна.** Предлагается методика оценки рыночной стоимости объектов недвижимости при экспроприации с использованием метода множественной корреляции наиболее достоверным и обоснованным способом.

Быстрое развитие рынка недвижимости и строительной отрасли в целом, особенно за последние 5 лет, привело к перепланировки городской инфраструктуры и как результат к большому объему сноса различных объектов недвижимости. Вопрос объективной оценки объектов недвижимости подлежащих принудительному изъятию получило особенную актуальность.

**Анализ и результаты**

Теоретические вопросы принудительного изъятия недвижимости рассмотрена в многих работах зарубежных авторов, (4,5) где они рассматривает нормативно правовые основы и опыт экспроприации недвижимости в США и странах Европейского Союза. Исследование такого характера в нашей Республики очень незначительные и носят общий характер, т.е. не рассматривается вопросы оценки стоимости возмещения.

Оценочная деятельность основана на единых национальных стандартах оценки (ЕНСО) – от 01.05.2020 г. ЕНСО включает в себя принципы, подхода и методы оценки имущества. В оценочной практики применяются как известно, три подхода:

- затратный; - доходный; - сравнительный.

В нашем исследовании объектом оценки принять жилой дом. Для расчета отдельных показателей использован долларовой эквивалент на 1 марта 2022г. Официальный курс ЦБ Республики Узбекистан составил 10872,41 сум за 1 доллар США ([www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)). Рассмотрен оценка объекта недвижимости традиционными подходами исходные данные приведено таблица 1, 2,3.

**Средняя стоимость жилья по Ташкенту в зависимости от конструктивного материала (за кв.м)**

Таблица №1

	2020	2021	Изменения %
Кирпич	585	599	+2
Панель	526	533	+1
Средняя цена	552	561	+2

**Средняя стоимость 1 кв.м. жилья в зависимости от удаленности от центра**

Таблица №2

Круговой сегмент (от центр.точки)	зона	Декабрь 2020			Январь 2021		
		Среднее	Кирпич	Панель	Среднее	Кирпич	Панель
Центр (0-3,7) км	1 Зона	740	746	731	760	772	732
1-круговой сегмент (3,7-3.9 км)	2 Зона	549	562	534	555	572	538
	3 Зона	515	505	535	501	497	520
	4 Зона	572	583	556	588	602	560
2-круговой сегмент (8,9-14,4 км)	5 Зона	526	545	528	522	535	520
	6 Зона	455	488	439	456	488	443
	7 Зона	465	476	460	457	463	454
	8 Зона	530	560	515	538	572	525
	9 Зона	535	568	527	546	580	535
3-круговой сегмент от 7,6 км	10 Зона	459	455	462	460	448	466

**Изменения цен на жилье в зависимости от материала и зоны (%)**

Таблица №3

Круговой сегмент (от центр.точки)	Зона	За Декабрь 2019г. – Январь 2020 г.		
		Среднее	Кирпич	Панель
Центр (0-3,7) км	1 Зона	+3	+3	0
1-круговой сегмент (3,7-3.9 км)	2 Зона	+1	+2	+1
	3 Зона	-3	-2	-3
	4 Зона	+3	+3	+1
2-круговой сегмент (8,9-14,4 км)	5 Зона	-1	-2	-2
	6 Зона	0	0	+1
	7 Зона	-2	-3	-1
	8 Зона	+2	+2	+2
	9 Зона	+2	+2	+2
3-круговой сегмент от 7,6 км	10 Зона	0	-2	+1

В результате проведение расчетов традиционным методом установлено стоимость исследуемого объекта смотрите таблице.

**Итоговая стоимость объекта.**

Таблица №4

Наименование	Стоимость, сум	Удельный вес	Рыночная стоимость, сум
Затратный	1 089 541 212	0,5	544 770 606
Сравнения продаж	1 519 783 169	0,5	759 891 585
<b>Всего, сум</b>			<b>1 304 662 191</b>

Этот же объект оценен методом множественной корреляции.

Главное значение, на которое стоит ориентироваться при регрессионной модели это R-квадрат. Он показывает качество модели, чем выше R-квадрат, тем выше качество модели. R-квадрат меньше 0,5 обозначает, что зависимость плохая, если выше то зависимость хорошая (высокая). Это означает, что максимальная коэффициент это 1. В нашем случае оно равно 0,935. Означает зависимость высокая смотрите таблицу 5.

Расчетная схема

Таблица №5

№	Адрес	Цена, тыс сум за м <sup>2</sup>	Расположение от центра км.	Расстояние до остановки общественного транспорта км	Жилая площадь м <sup>2</sup>	Нежилая площадь м <sup>2</sup>	Площадь незастроенного земельного участка, м <sup>2</sup>	Количество комнат (помещений)
		Y	X1	X2	X3	X4	X5	X6
1	Ташкентская область, Зангиотинский район	4744324,40	2,50	0,17	165,00	110,00	255,00	8,00
2	Ташкентская область, Зангиотинский район	5134193,60	2,70	0,30	225,00	135,00	240,00	10,00
3	Ташкентская область, Зангиотинский район	4910120,60	3,20	0,50	190,00	120,00	340,00	9,00
4	Ташкентская область, Зангиотинский район	5125950,10	2,30	0,20	223,00	180,00	377,00	10,00
5	Ташкентская область, Зангиотинский район	4981540,62	3,1	0,2	198	156	311	10
6	Ташкентская область, Зангиотинский район	5236877,47	2,15	0,24	284	162	418	12
7	Ташкентская область, Зангиотинский район	6874168,84	1,55	0,05	219	125	329	11
8	Ташкентская область, Зангиотинский район	5741064,11	2,95	0,12	250	202	535	12
9	Ташкентская область, Зангиотинский район	6088549,54	2,5	0,075	281	219	473	14
10	Ташкентская область, Зангиотинский район, пос. Узгариш	Y	1,7	0,15	161,7	159,8	316	8

Результаты вычислений представлены в таблице №6.

Значения переменных

Таблица №6

	Коэффициенты
Y-пересечение	4471679,724
Переменная X 1	-710127,0071
Переменная X 2	843071,4205
Переменная X 3	-29773,03828
Переменная X 4	-4289,447353
Переменная X 5	312,451676
Переменная X 6	9333714,1726

Результаты расчета

Таблица №7

Регрессионная статистика	
Множественный R	0,967221676
R-квадрат	0,93551777
Нормированный R-квадрат	0,742071079
Стандартная ошибка	348857,6574
Наблюдения	9

Таким образом значение зависимой переменной по результатам оценки составило  $Y = 5\,459\,618,66 \text{ сум/м}^2$

Отсюда, рыночная стоимость оцениваемого объекта недвижимости равна  $321,6 \text{ м}^2 \times 5\,459\,618,66 = 1\,755\,813\,361 \text{ сум}$ .

**Выводы.**

1. Сопоставление результатов оценки объекта недвижимости традиционными методами и методом множественной регрессе показано значительное расхождение

- 1 304 662 191 (традиционный)

- 1 755 813 361 (множественной регрессной) и составил более 25%.

2. При использовании традиционных методов, результат по большей части зависит от субъективных факторов, суждения и квалификации оценщика, в то время при регрессионном анализе, результат полностью основан на статистических данных исключает возможность человеческого влияния на результат.

3. Использование регрессионной модели требует большого количества достоверных статистических данных по проведенным операциям о купле продажи объектов аналогов, что на практике не всегда возможно.

**Список использованной литературы**

1. Закон Республики Узбекистан «Об оценочной деятельности» от 19.09.1999 г., № 811-И.
2. Единые национальные стандарты оценки имущества.
3. Сборник №28 «Украпленные показатели восстановительной стоимости жилых, общественных зданий и сооружений коммунально-бытового назначения для переоценки основных фондов», М., Стройиздат, 1970г.
4. William McCluskey and Frances Plimmer, "The Routledge Handbook of Contemporary Issues in Expropriation" – New York, 2019
5. Elli Pagourtzi, Vassilis Assimakopoulos and oth., " Real estate appraisal: a review of valuation methods" – Journal of property Investment and Finance, 2003: 383-401.
6. Н.Е.Симонов, Методы оценки и техничеккой экспертизы недвижимости М.2006 г.
7. Н.Хастингс, Д.Ш.Пикок Справочник по статичтичским распределениям. М.1980 г
8. В.М.Жуковская, И.Б.Мугник Факторный анализ в социально экономических исследованиях. М.1986 г
9. WWW. Lex.uz
10. WWW/ Olx.uz

UO’K 691:338

t  
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, O’zbekiston  
E-mail: [sibraginmovs77@gmail.com](mailto:sibraginmovs77@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolaning qisqachahmazmunida O’zbekiston Respublikasida qurilish industriyasining rivojlanishi va energiya tejamkor qurilish materiallaridan foydalanishning dolzarbligi yoritilgan. Maqolada ushbu sohadagi ishlab chiqarish quvvatlari va investitsiya loyihalari to’g’risidagi ma’lumotlar keltirilgan, shuningdek, qurilish d materiallari eksportining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida so’z boradi. Xulosa qilib aytganda, bino va inshootlarning energiya samaradorligi va barqarorligini oshirish uchun innovation materiallarni qurilishda yanada rivojlantirish va joriy etish zarurligi ta’kidlanadi.

**Kalit so’zlar:** ishlab chiqarish, qurilish materiallari, eksport, investisiyalar, energiya samaradorligi, bazalt plitalar, iqtisodiyot, rivojlanish, barqarorlik, infratuzilma.

**Kirish:** Zamonaviy dunyo rivojlanishdan to’xtamayapdi va qurilish sanoati ham bundan mustasno emas. Har yili bino va inshootlarni yanada samarali, qulay va energiya tejamkorlik bilan qurish imkonini beradigan yangi texnologiyalar, materiallar va qurilish usullari paydo bo’lmoqda. Hozirgi vaqtda



qurilish sanoati ko'plab mamlakatlarda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi iqtisodiy o'sish va butun jamiyat farovonligiga bevosita ta'sir qiladi.

Hozirgi vaqtda qurilish materiallari ishlab chiqarish ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadigan asosiy tarmoqlardan biridir. Qurilish materiallari sanoatning turli sohalarida, masalan, turar-joy va sanoat binolari, infratuzilma, yo'llar, ko'priklar va boshqalarni qurishda qo'llaniladi. Biroq, boshqa sohalar singari, qurilish materiallari ishlab chiqarish ham qiyinchiliklar va to'siqlarga duch kelmoqda.

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilari duch keladigan asosiy muammolardan biri bu sifat talablari va standartlari, shuningdek, qat'iy ekologik qoidalarning doimiy o'zgarishi. Bu esa yuqori sifatli mahsulotlarni kafolatlash va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish uchun ishlab chiqarish jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirish va optimallashtirishni talab qiladi.

O'zbekistonda keyingi yillarda qurilish industriyasi jadal rivojlanmoqda va bu jarayonda yangi materiallar va texnologiyalar muhim o'rin tutmoqda. Masalan, 2022-yilda "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi korxonalari tomonidan 11,2 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, joriy yilning birinchi choragida mamlakatimizga qariyb 100 million dollarlik qurilish materiallari eksport qilindi. Bu qurilish sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri ekanligidan dalolat beradi. [1]

Qurilish industriyasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri energiya tejamkor bino va inshootlarni yaratishdir. Darhaqiqat, bugungi kunda energiya resurslari qimmatlashmoqda va ularni tejash binolar va inshootlardan foydalanish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, bazalt issiqlik saqlash plitalari, bazalt tosh va shisha momig'idan issiqlik saqlovchi materiallar kabi energiyatejamkor qurilish materiallari katta ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:** Tadqiqotni o'tkazish uchun asosiy va ikkilamchi ma'lumotlar manbalaridan foydalanildi. Birlamchi manbalar qatoriga qurilish materiallari ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar vakillari o'rtasida so'rov o'tkazish, shuningdek, qurilish materiallari sohasida faoliyat yurituvchi yetakchi ilmiy markazlar va universitetlar vakillari bilan ekspert suhbatlari o'tkazish kiradi.

Ikkilamchi manbalar orasida ilmiy maqolalar, ixtisoslashtirilgan jurnallardagi nashrlar va qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha yillik hisobotlardan foydalanilgan.

Qurilish materiallari sanoati iqtisodiyotining yirik sohasi hisoblanib, u o'z ichiga bir nechta sohani qamrab oladi va qurilish moddiy-texnik bazasining asosini xosil qiladi. Qurilish materiallarining narhi qurilish majmuasi xarajatlarining sosiy qismini tashkil etadi. Shu bilan birgalikda, qurilish materiallari sanoatining innovasion rivojlanishidagi kechikish butun qurilish majmuasining turg'unligiga olib keladi. [2]

Tadqiqot metodologiyasi qurilish materiallari sanoati vakillari duch keladigan asosiy muammolarni aniqlash, shuningdek, innovatsion klaster asosida ularni hal qilish imkoniyatlarini aniqlash uchun ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va sharhlashni o'z ichiga olgan. [3]

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tomonidan o'tkazilgan matbuot anjumanida qurilish materiallari sanoatining 2022-yilga mo'ljallangan faoliyati tahlili, energiya tejamkor mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratildi. Tadbirda uyushma rahbariyati, soha mutaxassislari, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi. Anjumanda mamlakatimizda qurilish materiallari ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari, eksport-import ko'rsatkichlari va investisiya loyihalari haqida so'z yuritildi. Ma'lumki, 2022-yilda jami 30,7 trillion so'mlik qurilish materiallari ishlab chiqarilgan.

Andijon viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha investisiya loyihalarini faol amalga oshirish davom etmoqda. "Everest Metal Grand" mas'uliyati cheklangan jamiyatida umumiy qiymati 10 million dollar bo'lgan bazalt toshdan issiqlik saqlash plitalari ishlab chiqarish loyihasi boshlandi. Korxonada yiliga 20 ming tonna bazalt issiqlik saqlash plitalari ishlab chiqariladi va mahsulotning 40 foizi eksport qilinadi. Mazkur loyihaning amalga oshirilishi 50 ta yangi ish o'rnini yaratilishi va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi. Korxonani 2024-yilda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan bo'lib, hozirda qurilish-montaj ishlari olib borilib, loyiha moliyalashtirilmoqda.

Quyida “Everest Metal Grand” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan Andijon viloyatida bazalttoşdan issiqlik saqlash plitalari ishlab chiqarish bo’yicha investisiya loyihalari ro’yxati, energiya samaradorligi milliy dasturini ishlab chiqish va ko’lami keltirilgan. Yangi korxonaning ishlab chiqarish quvvati yiliga 20 ming tonna bazalt issiqlik saqlash plitalari bo’lib, bu mamlakatimizda bazalt issiqlik saqlash materiallarining umumiy ishlab chiqarish quvvatini yiliga 178 ming tonnaga yetkazish imkonini beradi. Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotning 40 foizini eksport qilish rejalashtirilgan, bu esa mamlakatimizning jahon qurilish materiallari bozoridagi iqtisodiy mavqeyini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yangi ish joyining yaratilishi ushbu loyihaning eng muhim natijalaridan biridir. Yangi korxonada energiya tejankor texnologiyalar bilan jihozlangani uning faoliyati hududdagi ekologik vaziyatga ko’rgazmali ta’sir ko’rsatishini anglatadi.

Avvalgi matnlarda respublikada issiqlik saqlaydigan materiallar ishlab chiqarilishi qayd etilgan bo’lib, ushbu matnda “O’zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi korxonalari tomonidan 2022-yilda jami 11,2 trillion so’mlik mahsulot ishlab chiqarilishi haqida ma’lumot berilgan. Bu korxonalarining mamlakatimiz iqtisodiyotiga qo’shayotgan hissasi, faol rivojlanishidan dalolat beradi.

Joriy yilning birinchi choragida “O’zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi korxonalari tomonidan 97,8 million dollarlik qurilish materiallari, jumladan, 11,2 million dollarlik keramik plitkalar va keramika mahsulotlari, 15,9 million dollarlik metall buyumlar, 14 million dollarlik PVX va plastmassa buyumlari 9,7 million dollarlik qog’oz va boshqa qog’ozlar eksport qilindi. Bular bilan bir qatorda, 8,2 million dollar sement va bog’lovchi, 8,1 million dollar alyuminiy qurilish materiallari va 20,2 million dollar boshqa qurilish materiallari ham aks etadi. Bu mamlakatimizda qurilish materiallari ishlab chiqarish va eksport qilishning yuqori darajasidan dalolat berib, mamlakatimizning xalqaro qurilish materiallari bozorida salmoqli ishtirokchi ekanligini anglatadi.

Qurilish materiallariga talab ortib borayotgani munosabati bilan O’zbekistonda turli turdagi qurilish materiallari, jumladan, keramika mahsulotlari, metall buyumlar, PVX va plastmassa buyumlari, alyuminiy qurilish materiallari va boshqalarni ishlab chiqarish va eksport qilish faol rivojlanmoqda. Shu bilan birga, respublikada bazalt issiqlik saqlaydigan plitalar va shisha jundan tayyorlangan issiqlik o’tkazmaydigan materiallar kabi yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy etishni ham unutilmaydi. [4]

Ana shunday xilma-xil mahsulotlar va ilg’or texnologiyalardan foydalanish tufayli O’zbekistonda nafaqat ichki, balki jahon qurilish materiallari bozori ehtiyojlarini qondirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Ta’kidlash joizki, qurilish materiallari ishlab chiqarishning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o’sishga, balki fuqarolarning farovonligi va turmush sharoiti yaxshilanishiga ham xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tarmoq salohiyatidan samaraliroq foydalanish uchun ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish, mahsulot sifatini oshirish va jahon bozorlariga faol olib chiqish zarur.

**Xulosa:** Mamlakatda qurilish materiallarining yangi va innovatsion turlari, jumladan, issiqlik saqlovchi materiallardan faol foydalanilmoqda, bu esa bino va inshootlarni energiya tejankor va qulayroq qurish imkonini beradi. Ana shunday materiallar asosida investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda, bu esa soha rivoji va yanada yuksalish salohiyatidan dalolat beradi.

Shunday qilib, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida innovatsion texnologiyalar va mahsulotlarni qo’llash, shuningdek, faol eksport faoliyati tufayli O’zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning istiqbolli yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar ro’yxati:**

1. Sh. Mirziyev. “Innovatsion klasterlar: ma’naviy va amaliy asllar”. “Iqtisod va innovatsiya” jurnali. - 2016. - No 2. - S. 77-82.
2. Ibragimov S.O. Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida innovatsion klasterning zaruriyati va ahamiyati. ”Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar” ISSN 2181-7286 Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti 2020.
3. Sh.K. Sharipov. Sanoatda innovation klasterlar tashkil etishning maqsad va qiymati”. “O’zbekiston davlat sanoat va innovatsiya universiteti ilmiy-texnik jurnallari”. -2021. - No 2. - S. 65-70.

4. S.O.Ibragimov “Qurilish materiallari ishlab chiqarishda innovasion klasterlarni tashkil qilishni rivojlantirish istiqbollari “Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integrasiyasi asosida ilm-fan va innovasion yutuqlarni takomillashtirish istiqbollari” 197-202 b. SamDAQI 2021-yil.

5. A.M. Alimov, Sh.K. Sharipov. "Innovatsion klassterlarning tashkiliy modellari". “Xalqaro ilmiy-texniy qo‘shiqnoma” jurnallari. - 2019. - No 2. - S. 104-107.

6. G.M.Abdullaeva, D.A.Solieva, Sh.K.Sharipov. ”Quruv materiallar sanoatida innovatsion klasterlarning o‘rni va ahamiyati”. “Axborotnoma” ilmiy-texnika jurnali. – 2017. – No2. – B. 55-58.

**T  
O  
S**

Toshkent arxitektura – qurilish universiteti, O‘zbekiston

E-mail: [q.rahimov1983@gmail.com](mailto:q.rahimov1983@gmail.com)

**E**

**Annotatsiya:** Maqolada Toshkent shahridagi ko‘p kvartirali uylarni boshqarish bilan bog‘liq holatlar tahlil qilingan, mavjud muammolar va ularning yechimi yuzasidan takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ko‘p kvartirali uy, uy-joy fondi, uy-joy mulkdorlari, uy-joy mulkdorlari shirkati, majburiy badal, boshqarish usullari, boshqaruvchi tashkilot.

**H**

**Кирриш.** Respublikada davlat uy-joy fondining xususiylashtirilishi natijasida ularning amaldagi boshqaruv tizimi, asosan, davlat hokimiyati organlari tomonidan tashkil etildi. Bu esa, mulkdorlarda uy-joy mulkdorlari shirkati o‘zlarining manfaatli tashkiloti emas, balki yangi nom ostidagi sobiq Uy-joy ekspluatatsiya idorasi degan qarashga olib keldi. Buning oqibatida, aholining aksariyat qismi bugunga qadar uy-joylaridagi umumiy mulkka nisbatan o‘z huquq va majburiyatlarini yaxshi bilmaydilar, o‘zlarining shirkat boshqaruvidagi o‘rni hamda boshqaruv sifatini yaxshilashdagi rolini to‘liq angay olmaydilar. Ushbu muammolarni boshqarish, mavjud holatni muammolarni boshqarish tizimini takomillashtirish muhim masalalardan hisoblanadi [15].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonining 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 33-maqsadida “Aholini joylashtirishning bosh sxemasini ishlab chiqish. Renovatsiya va uy-joylar dasturlari asosida shaharlarda eskirgan uylar o‘rniga 19 million kvadrat metrdan ortiq zamonaviy uy-joylarni barpo etish, 275 mingdan ziyod oilaning yangi massivlarga ko‘chib o‘tishi uchun sharoit yaratish” masalasi dolzarb vazifalar qatoridan o‘rin olgan [3]. Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli ijrosi mamlakatimizda uy-joy fondini samarali boshqarish tizimini takomillashtirishni talab etadi.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida “Mening eng katta niyatim shuki, Vatanimiz ichra har bir inson o‘zining “kichik vatani” ga – uy-joyiga ega bo‘lsa, bizdan xalqimiz ham, Yaratgan ham rozi bo‘ladi.” [4] va 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida, “... Konstitutsiyamizga aholining munosib hayot kechirishi va uy-joyga ega bo‘lishi to‘g‘risidagi yangi moddalarni kiritish lozim, deb hisoblayman.

Aholi uchun yangi uy-joylar qurish hajmini 1,5 barobar oshirib, 90 mingga yetkazamiz...” [5], deya alohida ta’kidlab o‘tganligi, O‘zbekistonda uy-joy siyosatiga jiddiy qaralayotganligining yaqqol dalilidir.

**Асосий қисм.** Toshkent 41 519,4 kilometr kvadrat maydonda joylashgan, 12 ta tumandan iborat shahar bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining poytaxti hisoblanadi.

2023-yil 1-yanvar holatiga Toshkent shahri aholisi soni 2 934,10 ming kishini tashkil etib, shahardagi 11 077 ta ko‘p kvartirali uylarga 284 ta boshqaruv servis kompaniyalari va 127 ta shirkatlar xizmat ko‘rsatmoqda (1-jadval) [16].

Tumanlar kesimida ko'p kvartirali uylar sonini tahlil qiladigan bo'lsak, eng ko'p, ya'ni 1604 ta (14,5%) ko'p kvartirali uy Mirzo Ulug'bek tumanida va eng kam ko'p kvartirali uy Bektemir tumanida 185 ta (1,7%) ni tashkil etgan (1-rasm).




**1-rasm. Toshkent shahri tumanlari kesimida ko'p kvartirali uylar soni tahlili diagrammasi [16]**

Tumanlar kesimida ko'p kvartirali uylarni boshqarayotgan boshqaruv servis kompaniyalari sonini tahlil qiladigan bo'lsak, eng ko'p, ya'ni 43 ta (15,1%) Mirzo Ulug'bek tumanida va eng kam Bektemir tumanida 4 ta (1,4%) ni tashkil etgan (2-rasm)1-jadval.

**Toshkent shahri tumanlari kesimida ko'p kvartirali uylar soni va ularni boshqaruvchi tashkilotlar soni tahlili**


№	Tumanlar nomi	Hudud maydoni (kv.km)	Aholi soni (ming kishi)	Ko'p qavatli uy-joy soni	Yakka tartibdagi uy-joy soni	Boshqaruv servis kompaniyalari soni	Uy-joy mulkdorlari shirkatlari soni
<b>Jami shahar bo'yicha</b>		<b>41 519,4</b>	<b>2 934,10</b>	<b>11 077</b>	<b>173 707</b>	<b>284</b>	<b>127</b>
1	Bektemir	3 493,6	55,00	185	7 950	4	-
2	Mirobod	1 605,5	148,70	819	11 772	30	14
3	M.Ulug'bek	1 677,1	321,10	1 604	13 637	43	24
4	Olmazor	2 907,4	392,40	914	18 802	17	5
5	Sergeli	4 088,3	159,40	674	18 418	16	6
6	Uchtepa	17 990,1	291,70	702	19 427	25	19
7	Chilonzor	881,0	270,70	1 248	10 476	37	22
8	Shayxontoxur	1 399,8	358,90	833	13 165	26	3
9	Yunusobod	33,3	364,80	1 306	22 256	29	19
10	Yakkasaroy	1 046,0	126,20	582	7 272	16	9
11	Yangixayot	4 396,0	159,00	991	9 442	17	-
12	Yashnobod	2 001,5	286,20	1 219	21 090	24	6






2-rasm. Toshkent shahri tumanlari kesimida ko'p kvartirali uylarni boshqarayotgan tashkilotlar solishtirma tahlili diagrammasi

Toshkent shahri tumanlaridagi ko'p kvartirali uylar tomilariga ishlatilgan qurilish materiallarini solishtirma tahlil qiladigan bo'lsak, 11077 ta ko'p kvartirali uylarning jami tom maydoni 8616,22 ming m<sup>2</sup>ni tashkil etsa, shundan 5929,05 ming m<sup>2</sup> i yumshoq qoplamali, 1420,72 ming m<sup>2</sup> i shifer, 1263,55 ming m<sup>2</sup> i tunuka va qolgan 2,90 ming m<sup>2</sup> boshqa turdagi qurilish materiallari bilan qoplangan (3-pacm).



3-rasm. Toshkent shahridagi ko'p kvartirali uylar tomilariga ishlatilgan qurilish materiallari solishtirma tahlili diagrammasi

Toshkent shahrida mavjud jami 11077 ta ko'p kvartirali uylarning 277 tasi 1950 yilgacha (kamida 73 yil), 823 tasi 1951-1960 yillarda, 2841 tasi 1961-1970 yillarda, 2221 tasi 1971-1980 yillarda, 2085 tasi 1981-1990 yillarda, 969 tasi 1991-2000 yillarda, 181 tasi 2000-2010 yillarda, 1272 tasi 2011-2020 yillarda, qolgan 408 tasi esa 2021-yildan keyin qurilgan. Toshkent shahridagi ko'p kvartirali uylarning qurilgan davrlariga e'tibor qaratsak, 1961-1970 yillar, 1971-1980 yillar, 1981-1990 yillar, 2011-2020 yillar va undan keyingi davrda ko'p kvartirali uylar qurilishi jadal ravishda olib borilgan (4-rasm).



4-rasm. Toshkent shahri tumanlari kesimida ko'p kvartirali uylarning qurilgan yillari bo'yicha tahlili diagrammasi

4-rasmdagi tahliliy ma'lumotlardan ko'rinadiki, Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgunga qadar 41 yil davomida 8247 ta, mustaqillikdan keyingi 32 yil davomida 2830 ta ko'p kvartirali uylar foydalanishga topshirilgan.


Tadqiqotlarimiz jarayonida Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi ayrim boshqaruvchi kompaniyalar faoliyatini o'rgandik va ularga tegishli asosiy ko'rsatkichlar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi ayrim boshqaruvchi kompaniyalar faoliyati tahlili

No	Boshqarish organi nomi	Uylar soni	Kvartira soni	Jumladan, noturar joylar soni	Majburiy badal miqdori (o'rtacha)	Xodimlar soni	Maxsus texnikalar soni	Debitor qarzdorlik (mln.so'm)	Kredit qarzdorligi (mln.so'm)	Shirkatlardan o'tgan kredit qarzdorlik, (mln.so'm)
1	YASHIL MAKON STANDART	59	2626	114	800	48	5	530,3945	4901,1	4475
2	Dombirobod Stroy Kommunal Servis	27	1312	0	800	13	2	220	1300	1192
3	Kommunal Stroy Servis Vostoka	44	592	0	800	11	0	180	2214	2214
4	KO'RKAM 5 BOSHQARUV	19	1098	12	1000	11	4	170	1556	1280
5	MAKS QUR LIDER MAXCUC	29	1656	15	900	5	6	1024,6	1085	804
6	Boshqaruv Servis Moon	36	3289	69	800	28	5	500	4380	4000
7	Bereza kommunal servis	25	1294	45	900	22	1	203,3	713,2	713,2

2-jadvalda tahlil qilingan asosiy ko'rsatkichlarni boshqaruvchi kompaniyalar kesimida alohida diagrammalarda ko'rib chiqamiz (5-rasm).



5-rasm. Chilonzor tumanidagi ayrim boshqaruvchi kompaniyalarning debitorlik va kreditorlik qarzlari miqdorining solishtirma tahlili diagrammasi, mln.so'm

5-rasmdan ko'rinadiki, 500 mln. so'mdan ortiq debitorlik qarzdorlik YASHIL MAKON STANDART, MAKS QUR LIDER MAXCUC va Boshqaruv Servis Moon kompaniyalarida kuzatilgan bo'lsa, 2000 mln. so'mdan ortiq kreditorlik qarzdorlik YASHIL MAKON STANDART, Kommunal Stroy Servis Vostoka va Boshqaruv Servis Moon kompaniyalarida kuzatilgan.

Yuqoridagi rasmlarda keltirilgan solishtirma tahliliy ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, biz faoliyatini o'rgangan boshqaruv kompaniyalar salohiyatli xodimlar bilan ta'minlanmagan, maxsus texnikalari ba'zilaridagina yetarli darajada, ayrimlarida umuman yo'qligini alohida ta'kidlab o'tish zarur.

Boshqaruv kompaniyalarining debitorlik va kreditorlik qarzlari miqdorlarini achinarli holatda, deb hisoblashimiz mumkin. Kreditorlik qarzlarning deyarli barchasi shirkatlardan "meros" bo'lib qolgan. Shu bilan birga debitorlik qarzlarning yuqoriligiga ham alohida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, boshqaruv kompaniyalarida eng kamida 170 mln.so'mdan 1024,6 mln.so'mgachani tashkil etmoqda. Demak, boshqaruv kompaniyalari va mulkdorlar o'rtasida o'zaro ishonch, shaffoflik va o'z vazifalarini bilmaslik hamda boqimandalik holatlari barham topmaganligini ko'rishimiz mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish hamda respublikada uy-joy fondini boshqarish samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida quyidagi takliflarning amalga oshirilishini maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- aholi o'rtasida uy-joy fondini, xususan, ko'p kvartirali uylarni boshqarish bevosita joy egalari, shirkat va boshqaruvchi tashkilot (professional boshqaruv kompaniyasi) yoki xususiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilishi, shuningdek ularning bu boradagi asosiy faoliyat yo'nalishlari va vazifalari hamda ushbu jarayonlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati haqida tizimli ravishda tushuntirish ishlarini olib borish;

- uy-joy fondini boshqarish bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

- uy-joy mulkdorlari majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash mexanizmini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etib borish;

- uy-joy fondini boshqarish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish;

- ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, mulkdorlarga tezkor ma'lumotlar etkazish, masofadan turib ma'lumotlar bazasiga kirish va boshqaruvchilarga o'z fikrlarini berishni tashkil etish maqsadida telegramm kanallari va botlarini tashkil etish;

- uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirishda xorijiy rivojlangan davlatlar tajribalarini chuqur o'rganish va tahlillar asosida, ularning maqbul jihatlarini amaliyotga tadbiq etib borish.

Yuqorida keltirilgan takliflarni amalga oshirilishi uy-joy fondini boshqarish tizimiga professional kadrlarning kirib kelishi, tizimda ochiqlik va shaffoflikning ta'minlanishi uy-joy mulkdorlari va uy-joy fondini boshqaruvchilari o'rtasida o'zaro ishonchli hamkorlikning yanada rivojlanishiga zamin yaratadi. Bu esa o'z navbatida sohada boshqarish tizimi samaradorligi va ko'rsatilayotgan uy-joy kommunal xizmatlar sifatining yanada oshishiga olib keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi <https://lex.uz/docs/106136>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-noyabrdagi "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida" gi O'RQ-581-son Qonuni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiёт strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziёevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz> .
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziёevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz>
6. Vishnevskaya N.M. Uy-joy mulkdorlari shirkati tashkil etish va faoliyati bo'yicha tavsiyalar. - Toshkent, 2006.
7. Davletov I.X., Temirov J.A. Respublikada ko'p xonadonli uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish tizimidagi ayrim masalalar // Iqtisod va moliya.- Toshkent, 2018. - №10(118). - 25-31 betlar.
8. Кирсанов С.А. Зарубежный опыт управления многоквартирными домами // ЖКХ: журнал руководителя и главного бухгалтера, № 10, 2011.
9. Ломова М.Н. Экономическая наука и практика. / Материалы международной научной конференции, Россия, г.Чита, феврал 2012г.
10. Nabiyev A.X., Tantibayeva K.A. // Uy-joy mulkdorlari shirkati faoliyatiga oid savollarga javoblar. Toshkent. 2006.
11. Nurimbetov R.I., Davletov I.X. va boshq. O'zbekistonda uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanishni takomillashtirish masalalari // Arxitektura.Qurilish.Dizayn. - Toshkent, 2018. – №1-2. - 135-139 betlar.
12. Rahimov Q.E. Uy-joy fondini boshqarish. Darslik.-Toshkent:TAQI, 2020.-235 b.
13. Степаев К.С. Управление многоквартирным домом – зарубежный опыт и российская специфика // Российское предпринимательство - № 6. - Вып. 1 (185). -2011. - стр. 161-166.
14. Uy-joy kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi: darslik / V.Yodgorov, D. Butunov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; Toshkent arxitektura-qurilish instituti. - Toshkent: Noshir, 2012.-400 b.
15. Rahimov Q.E. Respublikada uy-joy fondini boshqarish samaradorligi va sifatini oshirish masalalari. Mutafakkir. Ilmiy jurnal. – Toshkent, 2023 y. 11- son. 3-9 b. ISSN 2181-3310
16. Toshkent shahar Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bosh boshqarmasi hisobotlari

UO'K: 332.012.334:005

Dotsent, Mirdjalilova Dildora Shuxratovna  
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, O'zbekiston  
E-mail: [mdshuhratovna@gmail.com](mailto:mdshuhratovna@gmail.com)

**Annotatsiya:** Aholining jadal o'sishi va natijada ko'p xonadonli uy-joyga talabning hamda kommunal xizmatlarga bo'lgan infratuzilma rivojlanishiga ehtiyojning ortishi, mazkur tarmoqlarda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va daromadlarni oshirish uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi.



Ushbu maqolada SWOT tahlil orqali ko'chmas mulk bozori infratuzilmasiga raqamli texnologiyalarni joriy etishning ijobiy va salbiy jihatlari tadqiq etilib, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ko'chmas mulk bozori infratuzilmasini samarali tashkil etish va uni rivojlantirish yo'llari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ko'chmas mulk, serveying, raqamli iqtisodiyot, integratsiya, raqamlashtish, svot tahlil, samaradorlik.

Ma'lumki raqamli texnologiyalarning rivojlanishi iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari, xususan xizmat ko'rsatish sohasida mavjud ayrim muammolarning optimal echimini topish imkonini beradi.

Hozirgi kunda mavud ko'p kvartirali uylarga xizmat ko'rsatishda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari yoki boshqaruv servis kompaniyalarininig faoliyatini rivojlanishi bilan bir qatorda ushbu sohada vujudga kelayotgan ayrim muammolar, jumladan: ko'p kvartirali uy joylar sonini oshib borish va ko'rsatiladigan xizmatlarning kengayishi, boshqaruv kompaniyalariga mavjud muammolar bo'yicha o'z vaqtida to'liq ma'lumot yetkazish; uy-joy egalari murojaatlari bo'yicha tezkorlik bilan zaruriy xizmatlarni ko'rsatish, shuningdek ekspluatatsiya bilan bog'liq xizmat ko'rsatuvchi shaxslar soni hamda sifatini yanada oshirish va x.k.lar bilan bog'liq muammolar mavjud.

Prezidentimizning 2022-yil 4-avgustdagi "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish va boshqaruvchi tashkilotlarni moliyaviy sog'lomlashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori [1] ushbu yo'nalishdagi ishlarni takomillashtirishni, bu borada zamonga mos faoliyat yuritishni qo'llab-quvvatlaydi.

Bugungi kunda respublikamiz bo'yicha jami 40 mingga yaqin ko'p kvartirali uy mavjud. Ushbu ko'p kvartirali uylar 700 dan ortiq boshqaruv kompaniyasi, 350 ga yaqin uy-joy mulkdorlari shirkati tomidan xizmat ko'rsatilib boshqarib kelinmoqda. 1000 ga yaqin [3] ko'p kvartirali uylar esa o'z-o'zini boshqarib kelinishi, ko'p kvartirali uylarni boshqaruviga xizmat qiladigan tadbirkorlik faoliyati sub'ektlariga bo'lgan talabni yuqoriligini ko'rsatib kelmoqda.

Respublikangizda ko'p xonadonli uylarning ko'pligi samarali boshqaruv xizmati muhimligini ko'rsatadi. Yuzlab boshqaruvchi kompaniyalar va uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyat ko'rsatayotganligi sababli ushbu xizmatlarga talab katta ekani aniq. [2] Biroq, o'z-o'zidan boshqariladigan binolar soni ham boshqaruv xizmatlari sohasida o'sish va innovatsiyalar uchun imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi.

Samarali boshqaruv xizmatlarini taqdim etish orqali korxonalar aholining hayot sifatini yaxshilash, binolarni to'g'ri saqlashni ta'minlashga yordam beradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni qabul qilish aloqa va shaffoflikni yaxshilashga yordam beradi, bu esa umumiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash va mijozlar talablarining yuqori darajada qondirilishiga olib keladi.





Umuman olganda, respublikangizda ko'p xonadonli uylarning ko'pligi boshqaruv xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar uchun katta imkoniyatdir. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda va mijozlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish orqali ushbu korxonalar samarali boshqaruv xizmatlariga ortib borayotgan talabni qondirishga yordam beradi, shu bilan birga o'z biznesini rivojlantiradi, mintaqaning umumiy o'sishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi.

O'tkazilgan tahlillar asosida ko'rinib turibdiki, ko'p xonadonli uylarni boshqarish bo'yicha "E-Surveying" faoliyatini jadal rivojlantirish uchun salmoqli salohiyat mavjud. O'zining kuchli tomonlari va imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun kompaniya quyidagi asosiy strategiyalarga e'tibor qaratishi kerak:

**Raqamli texnologiyalardan foydalanishga urg'u berish:** ko'p xonadonli binolarda samarali boshqaruv xizmatlariga bo'lgan yuqori talabni hisobga olgan holda, E-Surveying onlayn platformalar va mobil ilovalar kabi raqamli texnologiyalardan foydalanishga e'tibor qaratishi kerak. Bu aloqa va shaffoflikni yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va umumiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

**Mijozlarga xizmat ko'rsatishga e'tibor qaratish:** ko'plab mavjud boshqaruv kompaniyalari va uy-joy mulkdorlari shirkatlari allaqachon ishlayotgan bo'lsa, E-Surveying mijozlarga innovatsion raqamli xizmat ko'rsatish orqali o'zini farqlashi muhim bo'ladi. Bu muammolarga tez va samarali javob berish, shaxsiy muloqot va aholining qoniqishiga e'tiborni o'z ichiga olishi mumkin.

Yangi tashkil etiladigan raqamli serveying (“E-Surveying”) kompaniyasi faoliyatini tashkil etish, kompaniyaga raqobatbardosh xizmatlarni rivojlantirish va ko‘proq mijozlarni jalb qilish maqsadida SWOT<sup>1</sup> tahlil amalga oshirildi:

	IJOBIY	SALBIY
ICHKI MUHIT	 <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ 24/7 - doimiy aloqani mavjudligi;</li> <li>✓ ekspluatatsiya bilan bog‘liq xizmat ko‘rsatuvchi mutaassislar doirasini kengaytirish va ular bilan bog‘lanish sur‘atlarini tezlashtirish;</li> <li>✓ boshqaruv harajatlarini tejash;</li> <li>✓ yashirin iqtisodiyotning salbiy jihatlarini kamaytirish;</li> <li>✓ korruptsyaning oldini olish;</li> <li>✓ surveying kompaniyasi faoliyatidagi shaffoflikni taminlash;</li> <li>✓ boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatini KPI orqali baholash imkoniyati.</li> </ul>	 <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ aholi orasidagi onlayn kompaniyalarga bo‘lgan ishonchning pastligi;</li> <li>✓ sohaga xizmat qiladigan mutaxassis kadrlarni yetarli malaka ko‘nikmalarga ega emasligi;</li> <li>✓ dastlabki moliyaviy kamomadlar</li> </ul>
TASHQI MUHIT	 <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ 40 mingga yaqin ko‘p kvartirali uy mavjudligini inobatga olgan holda katta istemolchilarning mavjudligi;</li> <li>✓ raqamli texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga kirib kelishi;</li> <li>✓ aholi orasida raqamli boshqaruvga bo‘lgan qiziqishlarni ortish v.h.k</li> </ul>	 <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ ayrim hududlarni internet tarmog‘ini yetarli darajada taminlanmaganligi;</li> <li>✓ aholini zaruriy qurilmalar, mobil telefon bilan taminlanmaganligi;</li> <li>✓ aholini etarli ko‘nikmalarga ega emasligi va h.k.</li> </ul>

Rasm 1. Raqamli serveying (“E-Surveying”) kompaniyasini tashkil etishning SWOT tahlili

**Strategik hamkorlikni yo‘lga qo‘yish:** Ko‘p xonadonli binolarni samarali boshqarish uchun E-Surveying texnik xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalar, pudratchilar va kommunal xizmatlar provayderlari kabi xizmat ko‘rsatuvchilar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi kerak. Bu operatsiyalarni soddalashtirishga yordam beradi va muammolarni tez va samarali hal qilishni ta‘minlaydi.

Zaif nuqtalar va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni oldini olish va bartaraf etish uchun E-Surveying quyidagi asosiy strategiyalarga e‘tibor qaratishi kerak:

**Qoidalarga rioya qilishni ta‘minlash:** E-Surveying ko‘p xonadonli binolarni boshqarishni tartibga soluvchi barcha tegishli qoidalar va qonunlarga rioya qilishni birinchi o‘ringa qo‘yishi kerak. Bu huquqiy va moliyaviy risklarning oldini olishga, kompaniyaning axloqiy va samarali ishlashini ta‘minlashga yordam beradi.

**Xodimlarni o‘qitishga sarmoya kiritish:** mijozlarga xizmat ko‘rsatishning eng yuqori darajasini ta‘minlash uchun E-Surveying o‘z xodimlarini doimiy ravishda o‘qitish va rivojlantirishga sarmoya kiritishi kerak. Bu xodimlarning bilimli va malakali bo‘lishini ta‘minlashga yordam beradi va aholiga alohida xizmat ko‘rsatishi mumkin.

**Doimiy ravishda bozor tendentsiyalarini baholash:** ko‘p xonadonli binolarni boshqarish tez rivojlanayotgan sohadir va E-Surveying doimiy ravishda bozor tendentsiyalarini baholashi va shunga mos ravishda o‘z strategiyalari va xizmatlarini moslashtirishi kerak. Bu kompaniyaning raqobatbardoshligini ta‘minlashga va mijozlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlari va afzalliklariga moslashishiga yordam beradi.

O‘zining kuchli tomonlari va imkoniyatlaridan foydalanish, shu bilan birga xavf va zaif tomonlarni yumshatish uchun ushbu strategiyalarga e‘tibor qaratish orqali E-Surveying o‘zini ko‘p xonadonli binolarda boshqaruv xizmatlarining yetakchi provayderi sifatida samarali namoyon qilishi mumkin.

**E-Surveying kompaniyasi marketing strategiyasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:**

<sup>1</sup> Антипов, А. SWOT -анализ как инструмент стратегического менеджмента/ А. Антипов// Business Excellence - 2015. №9.- С. 44 - 48.

**Potensial mijozlarni aniqlash:** avvalo mulkni boshqarish xizmatlariga qiziqadigan maqsadli auditoriya aniqlanadi. Asosan, bu o'z mulkini boshqarishga vaqtlari bo'lmagan yoki buni o'zlari qilishni xohlamaydigan kvartiralar yoki uylar egalari hisoblanib, bugungi kunda respublikamiz bo'yicha jami 40 mingga yaqin ko'p kvartirali uy-joylar shular jumlasidan.

**Novob xizmatlarni ishlab chiqish:** E-Serveying raqobatchilar taklif qiladigan xizmatlardan farqli ravishda ko'p kvartirali uylarga xizmat ko'rsatishni no an'anaviy usullarda tashkil qilish, xususan raqamli boshqaruv orqali innovatsion xizmatlarni ishlab chiqisi lozim. Masalan, onlayn xarajatlarni kuzatish tizimini, kechayu kunduz texnik yordam va mijozlar so'rovlariga tezkor javob va h.k.

**Brendni ilgari surish:** E-Serveying o'zining marketing strategiyasida kompaniya brendini hududlarda tashqi reklama, ijtimoiy tarmoqlar, avtomobil reklamasi, mahalliy ommaviy axborot vositalaridagi reklama maqolalari va boshqalar kabi turli marketing vositalaridan foydalangan holda tashkil etishi maqsadga muvofiq.

**Xizmatlar sifatini doimiy ravishda yaxshilash:** kompaniya mijozlarni saqlab qolish va yangilarini jalb qilish uchun o'z xizmatlari sifatini doimiy ravishda yaxshilab borish, jumladan, ekspluatatsiya bilan bog'liq xizmat ko'rsatuvchi shaxslarni muntazam tavishta rag'batlantirish orqali ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini ta'minlash kerak.

**Kuchli boshqaruv kengashini tashkil etish:** E-Serveying turar-joy mulkini qanday boshqarishni, muammolarni hal qilishni va umumiy farovonlikni ta'minlash bo'yicha yetarli darajada malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan boshqaruv kengashini tashkil etish va ular orqali samarali strategiyalarni ishlab chiqishi talab etiladi.

Shuningdek, ilova orqali ko'p kvartirali uy egalari va boshqa iste'molchilardan taklif hamda tavsiyalar olinishi ham qo'shimcha afzallik bo'ladi.

E-Serveying uchun mobil ilovani ishlab chiqish kompaniyaga o'z faoliyatini tartibga solish va aholi bilan aloqani yaxshilashga yordam beradigan aqlli harakatdir.

Rezidentlar uchun mobil ilovani ishlab chiqishning ba'zi afzalliklari quyidagilardan iborat:

**Ma'lumotga oson kirish:** Mobil ilova yordamida aholi o'z binosi haqidagi ma'lumotlarga, jumladan, bo'lajak tadbirlar, texnik xizmat ko'rsatish jadvallari va muhim e'lonlarga osongina kirishlari mumkin. Ushbu turdagi ma'lumotlar aholi o'z binosida sodir bo'layotgan voqealar haqida xabardor bo'lishlari uchun muhim va umumiy qoniqishni oshirishga yordam beradi.

**Tez javob berish vaqtlari:** Mobil ilovalar aholi va boshqaruv kompaniyasi o'rtasidagi aloqani yaxshilashga yordam beradi. Bu shuni anglatadiki, aholi texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq muammolar yoki boshqa muammolar haqida tez va oson xabar berishi mumkin, bu esa tezroq javob berish vaqtini va umumiy xizmatni yaxshilashga olib keladi.

**Yaxshilangan shaffoflik:** Mobil ilovadan foydalanish orqali aholi o'z binolari haqidagi ma'lumotlarga, jumladan, energiya iste'moli, kommunal to'lovlar va boshqa muhim ko'rsatkichlarga nisbatan shaffofroq kirish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Ushbu shaffoflik darajasi aholi va boshqaruv kompaniyasi o'rtasida ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

**Ma'lumotlarni tahlil qilish:** Mobil ilova orqali yaratilgan ma'lumotlarga kirish imkoniyati, shuningdek, E-Serveyingga kelajakda qaror qabul qilishda ma'lumot beradigan tendentsiyalarni aniqlashga yordam beradi. Misol uchun, agar ma'lumotlar aholining energiya iste'moli haqida qayg'urishini ko'rsatsa, E-Serveying o'z sa'y-harakatlarini binolarda energiya samaradorligini oshirishga qaratishi mumkin.

Umuman olganda, mobil ilova orqali yaratilgan ma'lumotlarni maxsus serverda saqlash E-Serveyingga xavfsizlikni yaxshilash, ma'lumotlarga kirish va aholining xatti-harakatlarini tahlil qilishda yordam beradi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.08.2022 yildagi PQ-346-son "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish va boshqaruvchi tashkilotlarni moliyaviy sog'lomlashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori

2. D.Sh.Mirdjalilova. Ko'chmas mulk ob'yektlarini boshqarishda serveying xizmatlarini rivojlantirish. – T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2021. 176 b.

3. Xalq so'zi online: <https://xs.uz/uz/post/kop-qavatli-ujlarni-boshqarish-sohasidagi-islohotlar-samarasi-qandaj>
4. Антипов, А. SWOT -анализ как инструмент стратегического менеджмента/А. Антипов// Business Excellence - 2015. №9.- С. 44 - 48.

## QURILISH KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASTERLARNI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

D

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, O'zbekiston

E-mail: [zilolaarifdjan@gmail.com](mailto:zilolaarifdjan@gmail.com)

t

**Anotatsiya:** Mazkur maqolada qurilish korxonalarini samaradorligini oshirishda klasterlarni tashkil etish va ularni boshqarish, shuningdek, klasterlar nazariyasining nazariy-uslubiy asoslari bayon etilgan hamda O'zbekistondagi qurilish klasterlari tizimini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** klaster, klaster nazariyasi, raqobatbardoshlik, korxonalarining tashkiliy tuzilmasi, qurilish, qurilish materiallari, boshqaruv samaradorligi, innovatsiya.

,

Dunyoda qurilish sohasi juda tez rivojlanib, boshqa sohalarning ham rivojlanishiga sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatadigan sohalardan biridir. Shuning uchun, qurilish sohasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, jumladan, qurilish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, boshqaruv xodimlari salohiyatidan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Dunyo mamlakatlarida qurilish sohasiga talabning yildan yilga keskin oshishi sababli, qurilish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha ham yanada ko'proq ilmiy izlanishlar olib borish kerak ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun jahon iqtisodiyotini rivojlantirishda qurilish sohasi mamlakatlarning asosiy infratuzilmalarini tashkil etganligi sababli, bu sohada boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida integratsiyalashuv hamda raqobatchilik jarayonlarining rivojlanishi qurilish sohasida an'anaviy boshqaruv tizimlaridan voz kechib, glaballashuv hamda xalqaro raqobatning kuchayishi jarayonida klaster tizimlarini tashkil etishga bo'lgan talabni oshishiga olib kelmoqda. Masalan, Toshkent va Navoiy viloyatlarida shunday klasterlar tashkil etilgan bo'lib, qurilish konstruksiyalarining 80 foizini o'zida ishlab chiqaradi va pudrat ishlarini ham o'zi bajaradi [1]. Shu va boshqa holatlar respublikamizning qurilish sohasida klaster tizimlarini tashkil etish dolzarbligini belgilaydi.

Klaster tizimini joriy etish va boshqarish masalalari bo'yicha ko'plab xorijlik mutaxassis-olimlar o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Xususan, klaster atamasi iqtisoddan oldin bir qator tabiiy fanlarda keng qo'llanilgan. Birinchi marta "klaster" atamasi matematikada 1930 yillarning oxirida ishlatilgan bo'lsa, noorganik kimyoda bu tushuncha turli xil miqdordagi metall atomlarini o'z ichiga olgan kimyoviy birikmalar sinfini bildirgan. Klaster fizikasi zamonaviy fizika fanining eng jadal rivojlanayotgan sohalardan biriga aylandi.

Klaster ma'lum va cheklangan hududda joylashgan o'zaro bog'langan korxonalarining iqtisodiy aglomeratsiyasi sifatida 18-asr boshlarida kichik hunarmandchilik ishlab chiqarish hukmronlik qilgan davrlardan beri ma'lum bo'lgan. Shuningdek, sanoatning jadal rivojlanishi, yangi sanoat markazlarining shakllanishi, XX asr boshlarida sanoatni mahalliyashtirishga ixtisoslashtirilishi klasterlar haqidagi ilk g'oyalarning shakllanishiga hissa qo'shdi.

Klaster nazariyasining uslubiy rivojlanishiga M.Veber, A.Lesh, A.Smit, D.Rikkardo, E.Xeksher va B.Olin, F.List, S.Koen, V.Izard, J. Shumpeter, N.N. Baranskiy, N.N. Kolosovskiy va boshqalar sezilarli hissa qo'shgan[2]. Mazkur mualliflarning tadqiqotlari muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, klaster nazariyasining takomillashiga, uning tashkil topishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Shunday qilib, klaster nazariyasi yaqinda paydo bo'lganiga qaramay, u tizimli ravishda o'sib borayotgan mamlakatlar, tarmoqlar va mintaqalar spektrida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyot fanlari nazariyotchilarining soni ortib borayotgani tomonidan kontseptsiyani doimiy



ravishda qo'shish va takomillashtirish, klaster tuzilmalaridan foydalanishning yangi imkoniyatlari va afzalliklarini ochib berish, shuningdek, ularni shakllantirish va faoliyat yuritishda ilgari o'rnatilgan yondashuvlarni o'zgartirish jarayoni mavjud.

Shuni ta'kidlash kerakki, shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi bozor sharoitida klasterlarni boshqarish masalasiga yangicha nigo bilan qarashni talab qilmoqda. Qurilishda klasterlarning tashkil etilishi raqobatchilik muhitini, shuningdek, o'z navbatida qurilish mahsuloti va xizmatlari sifatini doimiy oshirib borishni talab etgan holda ularni raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlarda ta'kidlanishicha zamonaviy jamiyatda klaster tushunchasi ko'pincha milliy va mintaqaviy ko'rinishlari ajratib ko'rsatiladi. O'rganishlarning ko'rsatishicha, dastlab milliy klasterlarning shakllanishi sanoat tarmog'ida keng tarqalgan. Ammo bugungi davrda klaster tizimini tashkil etish nafaqat qurilish sohasida balki ishlab chiqarish tarmoqlaridan tashqari xizmatlar ko'rsatish sohasiga kiruvchi – sog'liqni saqlash, turizm, ta'lim va h.k.larda ham dolzarbli oshib bormoqda.

Adabiyotlar tahliliga ko'rsatishicha, "Klaster" tushunchasiga asosan uch xil yondashuv mavjud:

- uncha katta bo'lmagan hududda yirik korxonalar yoki kompaniya atrofida jamlangan xo'jalik sub'ektlari;

- tadqiqotdan to'zahiralar ta'minoti, savdo va undan keyingi xizmat ko'rsatishgacha to'la-to'kis qamrab olingan, ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini birlashtirgan, ma'lum mahsulot yaratishda qatnashuvchi korxonalar va tashkilotlarning vertikal texnologik tizimidagi jamlanmasi;

- soha klasteri.

Hozirgi davrda qurilish mahsulotlarining ham sifatini oshirish ham uning tannarxini kamaytirishni ta'minlashda qurilish klasterlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan qurilishda yuqori sifatni, shuningdek, qurilish sohasi takomillashtirish, qurilish materiallari, qurilish narxlarining arzonlashishini ta'minlashda qurilish klasterlarini joriy etishi lozim bo'ladi.

Ilmiy izlanishlar natijasi iqtisodiyot tarmoqlarida klasterlashtirish bilan bog'liq jarayonlar davlat va xo'jalik organlari, mos yetakchi fan va oliy ta'lim muassasalari hamda biznes jamoatchiligi jamoaviy uyg'unlashuvi bilan masalalarga kompleks yondashuvda shakllantirilishi maqsadli ekanligini ko'rsatdi. Chunki ushbu faoliyatda paydo bo'ladigan hududiy, tarmoq yoki uning ayrim sohasiga xos nazariy, uslubiy va amaliy muammolar "inson kapitali", ya'ni insonlarda jamlangan qobiliyat, malaka va maqsadlar zahirasidan soha va sohalararo ichki, tashqi integratsiyalashuvning kuchayishi bilan paydo bo'lgan innovatsion muhitda "ilm orqali bilim" tamoyili qonuniyatiga ko'ra kontsentratsiyalashgan bilimlardan o'z o'rnida foydalanish bilan tasdig'ini topadi.

Mamlakatimizda klasterlar bilan bog'liq ilmiy izlanishlar boshlanishi 2000 yillarga to'g'ri keladi, bu boradagi ilmiy-amaliy ishlar esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish asosida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish borasida barcha sohalarda keng ko'lamlil islohotlar olib borish bilan boshlandi. Mazkur jarayonlar bilan bog'liq texnopolis, texnopark, klaster kabi qator tushunchalar turmush tarzimizga kirib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6119 sonli Farmoni hamda 2021 yil 2-dekabrda «Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish va aholini uy-joy bilan ta'minlash masalalari» bo'yicha videoselekr yig'ilishida Toshkent va Navoiy viloyatlarida tashqari har bir viloyatda qurilish klasterlarni tashkil etish vazifasi yuklatildi [1].

Shuningdek, Oxirgi uch yilda 210,0 ming oilaga 33,0 trillion so'mlik ipoteka kreditlari ajratilib, ehtiyojmand 73,0 ming oilaga boshlang'ich badal va foiz to'lovlari uchun 1,3 trillion so'm subsidiya berildi. Sohaga bozor tamoyillari joriy qilinib, yuzlab xususiy buyurtmachi kompaniyalar shakllandi. Seysmik xavfsiz va energiya tejamkor yig'ma temir-betonli ko'p qavatli uylarni qurish bo'yicha 11 ta yirik klaster paydo bo'ldi. Joriy yil mamlakattimizda uy-joy qurish hajmi 1,5 baravarga oshirilib, 90 mingtaga yetkazish rejalashtirildi [2].

So'nggi bir necha yillardagi hayotiy jarayonlar mamlakatimizdagi klaster sohalarning mavjud muammolarini jamoatchilik tomonidan teran anglanishi, ularning yechimiga jamoaviy uyg'unlashuvdagi yondashuv, xom ashyo, energiya va mehnat zahiralardan samarali foydalanib, tashabbuskor mutaxassislarining faol bilimlari almashinuviga asoslangan mustahkam ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va muayyan texnologik tizimga birlashgan ishlab chiqarish tuzilmasi o'zaro ishonchli hamkorligi ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, klasterlar innovatsion, raqobatbardosh va samarali iqtisodiyotning shakllantirilishi zamonaviy iqtisodiy vositachisi, yaratilgan tayyor mahsulotlarning iste'molchigacha yetib borishini, ishlab chiqarish kuchlarining yuksalishini, ishlab chiqarish hajmining o'sishini, sog'lom ishlab chiqarish munosabatlari hamda samaradorlikni ta'minlovchidir. Mazkur klasterlarda sohalarning ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi bilan bir qatorda, soha kichik korxonalarining manfaatli kooperatsiyasi, sohalararo ichki va tashqi integratsiya elementlari ham yuksalishiga zamin yaratadi.

Iqtisodiy rivojlanishda va innovatsion faoliyatni faollashtirishda klasterlarning roli ko'plab iqtisodiy tadqiqotlarda qayd yetilgan bo'lsada, ammo jahon fanida klasterlarning yagona nazariyasi hali rivojlanmagan.

Eng yaxshi xorijiy tajribani o'rganishni hisobga olgan holda tashkilotlar kooperatsiyasi asosida klaster qurilish tizimini (ishlab chiqarish-qurilish, investitsiya-qurilish va loyiha-qurilish klasterlari) joriy etish.

Klaster usulida tajriba almashish hamda qurilish-montaj jarayonlarining alohida yo'nalishlari bo'yicha ustalar va tor malakali mutaxassislarni o'qitish tizimini tatbiq qilish.

Xorijiy tajribani o'rganish asosida respublika hududlarining ehtiyojiga qarab klaster hamkorligi (ishlab chiqarish-qurilish, investitsiya-qurilish va loyiha-qurilish klasterlari) uslubiyatini ishlab chiqish.

Ikkinchi bosqichda klaster hamkorlikni qurilish, loyihalashtirish va birgalikda investitsiyalash yo'nalishlari bo'yicha kengaytirish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ўзбекистон газетасининг 2021 йил 3 декабрдаги №244 – сони. «Аҳоли ва қурилиш ташкilotлари янги имкониятлар берилади» – Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 2 – декабрдаги «Қурилиш материаллари саноатини ривожлантириш ва аҳолини уй-жой билан таъминлаш масалалари» бўйича видеоселекр йиғилиши.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида “Янги Ўзбекистон” массивларида уй-жой қурилиши ва 2023 йил учун ипотека дастурини амалга ошириш бўйича устувор вазифалар юзасидан видеоселектор йиғилиши. [https://t.me/Press\\_Secretary\\_Uz/3027](https://t.me/Press_Secretary_Uz/3027).

3. Бондаренко Н.Е. Кластерная теория экономического развития: история становления и формирования// Международный научный журнал «Символ науки», 2016 №2 – С.116-120.

4. Ф.Рахимов, Б.Усмонов, Х.Кушиев. Кластер назарияси ва унга амалий ёндашувлар// <http://mineconomy.uz> > uploads > КЛАСТЕР 2020.

### **QURILISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

D

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, O'zbekiston

E-mail: [zilolaarifdjan@gmail.com](mailto:zilolaarifdjan@gmail.com)

t

**Annotatsiya.** Maqolada qurilish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish, samaradorlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi muhit omillari baholash, boshqaruv samaradorligi, usullari va texnologiyasi, boshqarish qarorlari, motivatsiya, nazorat va boshqa boshqarishga oid masalalar o'rganilgan.

n

**Kalit so'zlar:** boshqaruv nazariyasi, samarad samaradorlik, boshqaruv samaradorligi, boshqaruv usullari, boshqaruv qarorlari, motivatsiya, nazorat, menejer, strategik boshqarish.

Jahonda qurilish sohasini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish, hududlarning zamonaviy qiyofasini shakllantirish, hayot va tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bevosita qurilish korxonalarini faoliyatini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarishning muhim sharti hisoblanadi. Qurilish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish bir vaqtning o'zida yakuniy natijalar uchun javobgarlikni oshirish, iste'molchi oldidagi majburiyatlarni bajarish, jamoaning daromad darajasining uning ish samaradorligiga bevosita bog'liqligini o'rnatish kabi muammolarni bartaraf etilishini ta'minlaydi. Yillar o'tishi bilan iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining o'sib borishi va shunga mos ravishda qurilish ishlari hajmining oshishi, turar-joy binolari, maktablar, bolalar muassasalari, sog'liqni saqlash muassasalari, madaniyat, ta'lim muassasalarining foydalanishga topshirilishi jarayonidagi tahlillar qurilish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning uslublari va qoidalarini keng joriy qilishga, raqobatni rivojlantirishga, yangi qurilish korxonalarining bozorga kirib kelishiga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston jahon tajribasiga asoslanib, mulkchilikning turli shakllari tengligi ta'minlangan, ishlab chiqarishning zamonaviy milliy manfaatlariga mos tuzilmasini yaratish ko'zda tutilgan, erkin narx-navo va bozor qonunlari asosida boshqariladigan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotida islohatlarni bosqichma-bosqich samarali amalga oshirib kelmoqda. Olib borilayotgan iqtisodiy islohatlar institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishga, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini boshqarish borasida ularning xususiyatiga mos keladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga iqtisodiy erkinlik berishga yordamlashadigan, tadbirkorlikni rivojlanishini rag'batlantiradigan tashkiliy huquqiy shakllar vujudga kelishiga qaratilgan. Qurilish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishda bevosita rahbar, boshqaruvni amalga oshirishda bosh bo'g'in hisoblanib, uning tashkil etilishi, samaradorligi ko'p jihatdan rahbar egallagan bilim malaka, tajriba, qolaversa uning muhim hislatlari va boshqaruv uslubiga bevosita bog'liq bo'ladi.

“Samarali” so'zi eramizning 1300 – 1400 - yillar orasida kirib kelgan tushuncha bo'lib, lotincha “effectivus” so'zidan olingan, ijodiy yoki samarali degan ma'nolarni anglatadi [1].

Har qanday faoliyat sohasida asosiy omil samaradorlik hisoblanadi, chunki, mazkur omil ushbu sohaning o'ziga xos shakllarini, usullarini, shuningdek, innovatsiyalarini asoslashi yoki rad etishi mumkin.

Iqtisodiy samaradorlikning klassik, neoklassik va neoinstitutsional yondashuvlar kontseptual asoslarining umumiy jihatlari bo'lishi bilan bir qatorda bir-biridan farqli tomonlari ham mavjud. Ya'ni, klassik nazariyada raqobat bozorni boshqarish, mehnat taqsimoti, mehnat kooperatsiyasining vujudga kelishi, rivojlanishi va bu o'z navbatida samaradorlikni oshirishda asosiy rol o'ynashiga diqqat qaratilsa, neoklassik nazariyada resurslarning optimal uyg'unlashuvi orqali samarali foydalanish va uni tadqiq etish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar, modellar ishlab chiqish, ularni tahlil qilishga diqqat qaratiladi. Neoinstitutsional yo'nalish vakillari bozor iqtisodiyotida mulkchilikka ham iqtisodiy, ham huquqiy jihatdan bir butun holda yondashish kerakligini ilgari suradi [2].

ICO 9000: “Cifat menejmenti tizimi. Acociy qoidalar va lug'at”da “camaradorlik - erishilgan natija va foydalanilgan recurclar o'rtacidagi nisbat” [3] deya ta'rif keltirilgan.

Iqtisodiy camaradorlik - iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy dactur va chora-tadbirlar camaradorligi bo'lib, iqtisodiy camara, natijaning ushbu natijani olishga cabab bo'lgan omillar, recurclarga nicbati hamda ma'lum qiymatdagi recurclar yordamida ishlab chiqarishning eng katta hajmiga erishish kabi tacniflanadi [4].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda, shuningdek, xorij va mahalliy olimlarning iqtisodiy camaradorlik bo'yicha turli yondashuvlari mavjud bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiy camaradorlik kontseptsiyacining aniq talqini yo'qligini, “camaradorlik” tushunchacining yagona, bir to'htamga kelingan aniq ta'rifi mavjud emas.

Shu bilan birga, qurilish korxonalarini boshqarish jarayonida boshqaruv samaradorligini oshirish, ular faoliyati camaradorligini boshqarishning zamonaviy ucullarini qo'llash macalaci yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu holat mazkur yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi.

Qurilish korxonalarida boshqaruv samaradorligi texnik samaradorlik (ishlab chiqarish hajmi), iqtisodiy samaradorlik (mehnat unumdorligi, mehnat resurslari, asosiy fondlar, aylanma resurslar), ijtimoiy samaradorlik (moddiy resurslar, foyda) hisobiga shakllanadi.

Qurilish korxonalarida boshqaruv samaradorligini hisoblashdan maqsad samaradorlikka nimalar hisobiga erishilganini aniqlash, yana qanday ichki va tashqi omillar evaziga uni oshirish mumkinligini belgilashdan iborat.

Barcha sohalardagi raqobat kun sayin rivojlanib borayotgan bugungi globallashtirilgan dunyoda qurilish sohasida ham yangidan yangi o'zgarishlarga, innovatsiyalarga e'tibor, shuningdek, har bir ishga kreativ yondashish va mavjud resurslardan samarali foydalanishga ahamiyati tobora oshib bormoqda. Bu borada qurilish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishga, korxonalar faoliyatini samaradorligini baholashga alohida e'tibor qaratilib, qurilish korxonalar va uning tashkiliy bo'g'inlari, shuningdek, barcha manfaatdor tomonlar faoliyatini sonlar orqali o'lchanishi davr talabiga aylanoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, qurilish korxonalarining umumiy samaradorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lishini barcha manfaatdor tomonlarning ijobiy ko'rsatkichlari ta'minlaydi.

Respublikamizning amaliyotchi hamda nazariyotchi olimlari tomonidan samaradorlik tushunchasi nisbatan ko'p o'rganilgan, uni hisoblash usuli, ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan, lekin, shunga qaramay global iqtisodiy rivojlanish jarayonining jadallashishi, turli-tuman innovatsion g'oyalarning vujudga kelishi, ularning amalga oshirilishiga yo'naltirilgan harakatlar samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib borishni talab etadi.

Qurilish korxonalarining faoliyatini quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi:

1. Miqdoriy ko'rsatkichlar - qurilish va investitsiyalar hajmini, qurilayotgan va foydalanishga topshirilayotgan ob'ektlar miqdori, ishchilar soni va boshqalarni tavsiflaydi;

2. Strukturaviy ko'rsatkichlar – korxonalarining tashkiliy tuzilmasi, investitsiyalar, bajarilgan ishlar va boshqalarni tavsiflaydi.

3. Sifat ko'rsatkichlari - qurilish korxonalarining xalq xo'jaligidagi o'rni, investitsiya manbalarining ko'payishi, investitsiya-qurilish majmuasida mulkchilikning rivojlanishi va boshqalarni tavsiflaydi.

Mazkur ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali qurilish korxonalarining joriy holatini, rivojlanish tendentsiyalarini, mavjud muammolarni aniqlash va samaradorlikni oshirish yo'llarini belgilash mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar, shuningdek, iqtisodiy adabiyotlar xo'jalik yurituvchi subektlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, iqtisodiy o'sish darajasi, korxonalarining raqobatbardoshlik darajasi hamda qurilish va boshqaruv sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi o'rtasida ob'ektiv bog'liqlik mavjudligidan dalolat beradi.

Samaradorlik tushunchasi amalga oshirilayotgan faoliyat, xarakatning natijadorligini anglatadi. Bu boshqaruv jarayonlarining o'ziga xos xususiyati bo'lib, u maqsadlarga erishish darajasini aks ettiradi, chunki faqat maqsadli harakat samarali bo'ladi. Shuningdek, samaradorlikning asosiy mezonini – ko'zlangan samaraga erishish uchun xarajatlarni minimallashtirish yoki maksimallashtirishdir. Mazkur kontseptsiya qurilish korxonalarini faoliyatining maqsadlarini, rivojlanish yo'nalishini aniqlash imkonini beradi.

Qurilish korxonalarida boshqaruv samaradorligining asosiy tarkibiy qismlarini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

- ishlab chiqarish qobiliyati;
- vaziyatli yondashuv zarurati;
- boshqaruv qarorlarini amalga oshirish;
- harakatlarning samaradorligi va natijadorligi.

Fikrimizcha, qurilish korxonalarining samaradorligini boshqarishda quyidagi asosiy sohalarning faoliyatini to'g'ri tashkil etish, mazkur sohalarni rivojlantirish, ushbu sohalarga innovatsiyalarni uzluksiz kiritish lozim:

1. Ishlab chiqarish - samarali faoliyat yuritish uchun resurslardan foydalanish;
2. Marketing - bozor sharoiti va raqobat muhitini hisobga olgan holda mahsulot sotish;



3. Moliyalash - moliyalashtirish manbalaridan oqilona foydalanish;

4. Investitsiya - optimal sarmoyadir.

Qurilish korxonalarida mazkur sohalarni optimal boshqaruvini tashkil etish samaradorlikning oshishiga, oldinga qo'yilgan strategik maqsadlarga qiyinchiliklarsiz erishilishiga yordam beradi.

Bizning fikrimizcha, qurilish korxonalarini samarali boshqarish va boshqaruv samaradorligini oshirish uchun korxonaning o'sishi va rivojlanishi omillarini, tashqi va ichki muhit omillarini, samarali boshqaruv tamoyillari va usullarini, shuningdek, rivojlanish va o'sish jarayonlarini boshqarish samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Harper, Douglas. "Etymology Online". Online Etymology Dictionary. 2011. Web. 04 Oct. 2011. <http://www.etymonline.com>.

2. Тожибоева Д. Иқтисодий самарадорликка ёндашувларнинг концептуал асослари ва фарқлари// "Иқтисод ва молия" журнали. - 2018, 12(120).

3. Международный стандарт ISO 9000. Системы менеджмента качества. основные положения и словарь. Перевод В.А. Качалова. – 2016.

4. Peter F. Drucker (2006). The Effective Executive: The Definitive Guide to Getting the Right Things Done. New York: Collins.

УЎК: 65.336

,

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti<sup>1</sup>, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti<sup>2</sup>, O'zbekiston

**Annotatsiya:** ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida va AQSHda uy-joy ipoteka kreditlari berish tartibi, hozirgi kundagi ipoteka kreditlarining foizlari, mamlakatimizdagi berilayotgan subsidiyalar, davlatimiz tomonidan beriladigan imniyozlar, Prezident farmonlarini amaliyotga qo'llanishi va AQSh da beriladigan ipoteka kreditlarining imtiyozlari bir-biri bilan solishtirilgan va tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** uy-joy, qurilish, ipoteka kreditlari, foiz, subsidiya, byudjet, ijtimoiy-iqtisodiy, bozor.

**Asosiy matn:** Ma'lumki, har bir davlat uchun fuqarolarning uy-joy bilan ta'minlanganligi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar amaliyoti uy-joy qurilishini moliyalashtirish ulardagi iqtisodiyotning o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi va shu orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammoni ham yechishga yordam beradi. Bizning davlatimiz ham uy-joy qurilishiga katta e'tiborni qaratmoqda. O'zbekistonda Prezident Farmoniga muvofiq uy-joy sotib olish va qurish uchun 20 yilga kam foizli kreditlar, hamda subsidiyalar berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 3 mart kuni o'tkazgan videoselektorda «2021 yilda 54 ming oilani uy-joy bilan ta'minlashimiz zarur», deya ta'kidlagan edilar. Yig'ilishda belgilab berilgan vazifalarning huquqiy asosi sifatida Prezidentning tegishli farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq, O'zbekiston aholisiga uy-joy olish va o'z mustaqil qurishi uchun 20 yillik kam foizli ipoteka kreditlari hamda ularga subsidiyalar ajratiladi.

Ipoteka krediti bozorini yanada rivojlantirish, aholining uy-joyga bo'lgan yuqori talabini qondirish, Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan subsidiyalar taqdim etish ishlarini davom ettirish, xususiy pudrat tashkilotlarini zamonaviy ko'p qavatli uylar qurilishiga keng jalb etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2021-yil 9-dekabrda "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-32-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida quyidagilar belgilandi.**

- 2021-yil 10-dekabrda boshlab bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash tartibi belgilandi;

- daromadi yuqori bo'lmagan va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj fuqarolarga Davlat byudjetidan subsidiyalar to'lashda kvartira maydonining eng ko'p me'yorini belgilash amaliyoti bekor qilinadi;

- iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan har yili bir qarz oluvchiga ajratiladigan ipoteka kreditining eng ko'p miqdori va dastlabki badalning bir qismini qoplash uchun subsidiya miqdori tasdiqlanadi;

- subsidiya taqdim etish to'g'risidagi xabarnomani olgan shaxslar ipoteka krediti bo'yicha boshlang'ich badalning uy-joy qiymatining kamida 5 foiziga teng bo'lgan qismini o'z mablag'lari hisobidan shakllantiradi;

- sotib olinadigan kvartira joylashuvi, qiymati va maydonidan qat'iy nazar, dastlabki badalning bir qismini qoplash uchun subsidiyalar qat'iy belgilangan miqdorida, foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar birinchi besh yil davomida 10 foizlik punktidan oshgan qismiga to'lanadi;

- dastlabki badal va foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar sotib olinayotgan kvartiraning narxi ipoteka kreditining eng ko'p miqdoridan oshgan taqdirda ham to'lanadi. Bunda, sotib olinadigan kvartiraning narxi ipoteka kreditining eng ko'p miqdoridan oshgan taqdirda, qiymatning qolgan qismi qarz oluvchi tomonidan o'z mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan dastlabki badal summasini oshirish orqali to'lanadi;

- fuqarolarga ipoteka kreditini olishda, birgalikda qarz oluvchi sifatida ular bilan birga yashamayotgan va yaqin qarindoshi bo'lmagan boshqa shaxslarni ham jalb qilish huquqi beriladi;

- moliya vazirligining resurslari tijorat banklariga to'g'ridan to'g'ri yoki "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJ orqali joylashtiriladi;

- tijorat banklariga qarz oluvchi tomonidan to'langan dastlabki badal miqdori, uning qarz yuki ko'rsatkichi, imtiyozli davr muddati va boshqa ko'rsatkichlardan kelib chiqib, subsidiyasiz ajratilgan ipoteka kreditlari bo'yicha tabaqalashtirilgan foiz stavkalarini o'rnatish huquqi beriladi.

- 2020 yil 1-maydan boshlab 2022 yil 1 yanvarga qadar jismoniy shaxslarga xususiy pudrat tashkilotlari tomonidan tayyor holda topshirish shartsiz (pardoz ishlarini amalga oshirmasdan) qurilgan kvartiralarini birlamchi uy-joy bozorida sotib olish uchun ipoteka kreditlarini ajratishga ruxsat berildi.

Shu 2 yil davomida "Ipoteka krediti" ma'lumotlari bo'yicha jami 15 111 ta kvartira ishlatishga topshirildi, ularning jami maydoni 802614 kvadrat metrga teng. Byudjet tomonidan moliyalashtirilgan summa **3,3 trilyon** so'mga teng. Bank tomonidan berilgan jami kreditlarning miqdori 14,4 trilyon so'mga teng, bular jumlasiga imtiyozli kreditlar ham kiradi.

Yukorida aytib o'tilganlar oldingi "Ipoteka krediti" tomonidan amalga oshirilgan edi. Uy-joy sotib olish yoki qurish va qayta ta'mirlash uchun aholini uy-joy bilan ta'minlash ishlarini yanada jadallashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 fevralda "Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PK-80-son Qarorini qabul qildi va bu barcha banklar kesimida keng qo'llanila boshladi. Hozirgi kunda "Ipoteka banki" yaratilib, uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- uy-joy qurishga uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari berilishini yo'lga qo'yish;

- uy-joy quruvchi xo'jalik sub'ektlariga ularning uy-joy qurishlari uchun kreditlar olishiga yordam berish;

- uy-joy qurish uchun ipoteka kreditlash tizimini rivojlantirish maqsadida chet el investitsiyalarini jalb qilish, jumladan, kreditlar va xalqaro va mahalliy moliyaviy institutlar grantlaridan foydalanish.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 maydagi "Ipoteka kredit berishni qo'llab quvvatlash jamg'armasi faoliyatini tashkil qilish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq jamg'arma tuzish ko'zda tutilgan.

***Jamg'armaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:***

- ipoteka kreditlarini qo'llab quvvatlash;

- uzoq muddatli kreditlarni jalb qilish va ularni jamlash, xalqaro va chet el moliyaviy institutlardan investitsiya va grantlarni jalb qilish va boshqa manbalar orqali jamg'arma mablag'larini oshirish;

- shartnoma asosida "Ipoteka-bank" va uy-joy qurish yoki sotib olish va qayta ta'mirlashga kredit beradigan boshqa banklarga kredit liniyalarini ochish;
- berilgan kreditlarning maqsadli ishlatilishini qattik nazoratga olish;
- jamg'armaga kelib tushgan va ishlatilgan mablag'lar bo'yicha yillik va chorak hisobotlar tuzish.

Dunyoning eng rivojlangan davlati AQSh da ham aholini uy-joy bilan ta'minlash yuqori o'rinda turadi. AQSh da uy-joy juda qimmatligi uchun u yerdagi aksariyat odamlar uy-joyini kredit hisobiga sotib oladilar. Ko'pchilik AQSh fuqarolarning hayoti davomidagi eng katta qarzi bu uy-joy uchun olgan kreditlari hisoblanadi. Odatda ushbu kreditlar 15-30 yilga beriladi. Uy-joy uchun beriladigan kreditlar ikki xil toifada bo'ladi:

1. Foiz stavkasi kredit qoplanguncha o'zgaraydigan kredit.
2. Foiz stavkasi o'zgaruvchan kredit.

Foiz stavkasi kredit qoplanguncha o'zgaraydigan kreditlar shunisi bilan qiziqki, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodda kredit foizlarining qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ushbu kreditning foiz stavkasi bir xil ushlanib turadi. Juda ko'p odamlar ushbu kredit turini ma'qul topishadi, chunki ularning uy-joylari uchun qiladigan oylik xarajatlari yillar davomida bir xil bo'ladi va inflyatsiya darajasi yuqori bo'lib ketsa, ular yuqori foiz stavkalaridan jabrlanmaydilar. Buning yana bir afzallik tomoni shundaki, kredit oladigan shaxs o'z oylik byudjetining qancha qismi uy-joy uchun olgan kreditiga sarflanishi miqdorini biladi va bu esa uning boshqa ishlari uchun qilmoqchi bo'lgan xarajatlariga qancha mablag'i qolganini aniqroq hisoblashga yordam beradi. Albatta bunday qulayliklarning o'ziga yarasha narxi bor. Bunday kreditlarning foiz stavkasi kredit berilayotgan paytda joriy kredit stavkalaridan balandroqda beriladi. Buning sababi kredit beruvchi kelgusida foiz stavkalari oshgan paytida undan foydalana olmasligidir. Foiz stavkasi kredit qoplanguncha o'zgaraydigan kreditlar odatda 30 yil muddat bilan beriladi.

Foiz stavkasi o'zgaruvchan kredit deganda ochiq bozorda kreditning narxi o'zgarganda kreditning ham foiz stavkasi o'zgaradi. Bunday kreditlarning foiz stavkalari pastroq, bo'ladi, chunki kredit oluvchi kredit tavakkalchiligidan (riskidan) ozod etilmagan. Foiz stavkalarining pastroq bo'lganligi sababli mijozning har oy kreditni qoplash uchun bajaradigan to'lovlari ham kamroq bo'ladi. Bu arzonroq kredit turi o'z navbatida odamlarning kattaroq miqdordagi kredit olishlariga imkon yaratadi. Agar kelgusida kredit foiz stavkasi arzonlashsa, bu kredit olgan shaxs foydasiga bo'ladi. Ushbu xolat deyarli ko'p uchraydi, bunga yaqqol misol qilib 2021 yil sentyabr voqealaridan keyin 2022 yilning yoz oylarigacha bo'lgan holatni ko'rsatishimiz mumkin. Ushbu davr ichida qayta moliyalash stavkasi juda pasayib ketdi. 2022 yilning 3-choragidan boshlab qayta moliyalash stavkalari sekin asta ko'tarilgan bo'lsa-da, u haligacha juda past darajada. Bundan shu xulosaga kelish mumkinki, 2021 yil 11 sentyabr voqealaridan oldin uy-joy olish uchun "foiz stavkasi o'zgaruvchan kredit" asosida olingan kredit egalari hozirgi kunda past foiz stavkalaridan foydalanmoqdalar va bu esa ular uchun katta foyda. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, agar qayta moliyalash stavkasi oshib ketsa, bu holda ushbu kredit turi bilan kredit olganlar zarar ko'radi va oqibatda "foiz stavkasi kredit qoplanguncha o'zgaraydigan kredit" dan ham qimmatroqqa tushishlari mumkin. "foiz stavkasi o'zgaruvchan kreditlar ham bir necha xilga bo'linadi. Masalan, foiz stavkasi har yili o'zgaruvchan kredit bo'lishi mumkin yoki foiz stavkasi har 3 yilda bir marta o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Foiz stavkasi qancha tez-tez o'zgaruvchan bo'lsa, bunday kreditlar shunchalik arzonroq bo'ladi, lekin bu kreditlar tavakkalchiligi (riski) kattaroq kreditlar hisoblanadi, chunki foiz stavkalarining o'zgaruvchan xususiyati ushbu kreditlar narxlarining mo'tadil emasligidan dalolat beradi. Ushbu kreditlarning o'ziga xos xususiyatli joyi shundaki, bu kreditlar foiz stavkalarining yillik o'zgarishi chegaralangan bo'ladi. Agar ochiq bozorda kredit stavkalar foizi oshsa, bu kreditlar odatda eng ko'pi bilan 2 % ga oshishi mumkin, kredit muddati 30 yil davomida kreditni olgan paytda qayd qilingan foiz stavkasidan 6 % gacha oshishi mumkin.

Har bir shaxs o'zining sharoitidan kelib chiqqan holda kredit turini va qancha kredit olmoqchi bo'lganligini tanlaydi.

***Bank kredit berishda mijoz haqida quyidagilarga e'tibor beradi:***

Bank kredit berish to'g'risidagi qarorini chiqarishdan oldin mijozga tegishli bir necha omillarga o'z e'tiborini qaratadi. Masalan, mijoz ishlayotgan korxonasida qancha vaqtdan beri ishlab kelmoqda,

mijozda nechta kredit kartochkalari mavjud. Bank uchun eng asosiy narsa mijozning kreditni olgandan so'ng uni har oylik to'lovlarini to'lab borib, kreditni vaqtida qoplash hisoblanadi, ya'ni kredit muddati davomida mijoz o'z zimmasiga olgan talablarni bajarishidir. Bu esa o'z navbatida bank tomonidan mijozning oylik daromadi va boshqa narsalar uchun bo'lgan jami qarzlarni o'rganib chiqishni talab qiladi. O'rganish jarayonida bank o'z e'tiborini asosan ikki narsaga qaratadi.

Birinchi, mijoz oylik daromadining necha foizi uy-joyning har oylik to'lovlariga ishlatilishi bo'lib, bunda bank mijozning bir oylik daromadining 28 % dan ortiqcha bo'lmagan miqdorni uy-joyga ishlatilishini ma'qul ko'radi.

Ikkinchidan, bank mijozning bir oylik jami majburiy to'lovlarini bilishi zarur, bunga uning uy-joy uchun to'laydigan oylik to'lovlari ham kiradi va bundan tashqari kredit kartochkalari uchun amalga oshiradigan to'lovlari, mashinasini moliyalashtirishga to'laydigan oylik to'lovlari, oilasi bilan ajrashgan bo'lsa, ajrashgan xotinidan bo'lgan farzandlariga to'lashi kerak bo'lgan majburiy to'lovlar kiradi. Ushbu majburiy to'lovlar mijozning jami bir oylik daromadining 36 % idan oshmasligi kerak.

#### ***Uy-joy uchun to'lanadigan birlamchi to'lov:***

Bank tomonidan odatda, mijozning uy-joy sotib olishda uning uyining umumiy qiymatining 20 % ini to'lashga yarasha puli bo'lishi talab qilinib, qolgan 80 % ini bank moliyalashtiradi. Ushbu talab bo'yicha mijozning 150 000 dollarlik uy uchun kamida 30 000 dollari bo'lishi kerak yoki u 250 000 dollarlik uy uchun 50 ming dollarni oldindan to'lashi kerak. Bu esa mijozlar uchun, ayniqsa, yosh oilalarga yoki birinchi marotaba uy sotib olayotganlarga katta qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli ohirgi 2-3 yil davomida banklar uy-joy umumiy qiymatining 95% — 97% ini moliyalashga tayyor. Bu sharoitda yosh oilalar yoki birinchi marta uy sotib olayotganlar 150 000 dollarlik uy uchun 30 000 dollar o'rniga atigi 7500 dollarni oldindan to'lashlari kerak bo'ladi. Bu qulaylik albatta yaxshi, mijoz uy uchun birinchi to'lovni qancha kam to'lasa, ya'ni oldindan to'lanadigan to'lov kam to'lansa, bunda mijoz kredit to'lash muddati davomida kreditning har oylik to'lovlarini to'lab borishda shunchalik ko'proq to'laydi. Bunday mijozlar tavakkalchiligi yuqori bo'lgan mijozlar guruhiga kiradi. Bunday hollarda bank mijozni sug'urta sotib olishga majbur qilishi mumkin, chunki mijoz o'z to'lovlarini to'lay olmasa, uni sug'urta kompaniyasi to'lab beradi. Lekin ushbu uyni sug'urtalash mijozga yiliga 1000 dollarga tushishi mumkin, bu esa albatta yana ortiqcha xarajat deganidir.

Kreditning bank tomonidan tasdiqlanish muddati hozirgi paytda mijoz uy-joy olish uchun kredit olishga ariza bergandan so'ng bank uni ko'rib, 2 haftadan 2 oygacha bo'lgan muddatda o'z xulosasini beradi. Kredit tasdiqlangandan so'ng 45 kun ichida mijoz kreditdan foydalanmasa kredit shartlari o'z kuchini yo'qotadi va mijoz qaytadan ariza berishi kerak. Bunda kredit shartlari va foiz stavkalari o'zgarishi mumkin.

Yuqorida O'zbekiston va AQSh da uy-joy masalalarini hal etish uchun uy-joy sotib olishda qanday qilib kredit olish tartiblari aytib o'tildi. O'zbekiston va AQSh da bu ishlarni amalga oshirishdagi farqlar quyidagicha:

Birinchidan, AQShda uy-joy uchun kreditlarni ko'pgina banklar berishi mumkin, bundan tashqari boshqa moliyaviy institutlar ham uy-joy sotib olish uchun mijozlarga kreditlar berishi mumkin. O'zbekistonda ham hozirgi kunda uy-joy uchun kreditlar berish ko'pgina banklar tomonidan berilishi sekin asta hayotga tatbiq qilinayapti va alohida maxsus fond ochilish arafasida. Hozirgi kungacha uy-joy sotib olish yoki qurish uchun barcha banklar kredit berib kelmoqda. Hozirgi kunda ham bu narsa O'zbekistonda keng tarqalmoqda.

Ikkinchidan, O'zbekistonda fuqarolar uy-joy sotib olishlari yoki qurishlari uchun bankdan kredit olmoqchi bo'lsalar, uy-joyning umumiy qiymatining boshlang'ich qismi byudjet tomonidan to'lanadi va bu esa o'z navbatida fuqarolarning uy-joy bilan ta'minlanishlariga juda katta yordam beradi. AQSh da bu narsa yo'q, fuqarolar uy-joyning umumiy qiymatini o'zlari to'laydilar, 20% oldindan, qolgan 80% kredit hisobidan.

Uchinchidan, AQSh da fuqarolar uy-joy sotib olish uchun olgan kreditlarini to'la qoplamasdan turib ham, xohlagan paytda uyni sotish xuquqiga ega, lekin uyni sotishdan olgan pullari birinchi navbatda kreditni yopishga sarflanadi va agar ortib qolsa, qolgan pul ularning shaxsiy hisob varaqlariga tushadi. O'zbekistonda "Ipoteka krediti" ning ma'lumotlariga qaraganda, mijoz faqat qarzdorligini yopishi bilan uyni sotish huquqiga ega.



To'rtinchidan, O'zbekistonda yangi ipoteka tartibi bo'yicha kredit miqdori har bir shaxs uchun eng kam ish haqining 900-1500 baravarigacha, lekin uy-joy qurish, sotib olish yoki qayta ta'mirlash umumiy qiymatining 75% dan oshmagan miqdorida kredit beriladi, ya'ni maksimum 219375 — 365625 ming so'mgacha kredit beriladi. AQShda esa uy-joy umumiy miqdorining 97% gacha kredit beriladi. Bunda maksimum summa yo'q, faqat maksimum foiz bor. Masalan, uying umumiy narxi 200 000 dollar bo'lsa mijozga 194 000 mingga, yoki uying umumiy narxi 1 000 000 dollar bo'lsa, unda mijozga 970 000 dollargacha kredit berilishi mumkin. Albatta, 970000 dollarga kredit olish uchun mijozning moliyaviy sharoiti juda yaxshi bo'lishi kerak.

Beshinchidan, banklarning "Ipoteka krediti" ma'lumotlariga qaraganda, mijoz uy-joy uchun kreditga ariza berganda, bank 10 ish kuni ichida xulosasini berishi kerak, lekin AQShda ushbu narsa 2 oyga cho'zilib ketishi mumkin.

O'zbekistonda aholini uy-joy bilan ta'minlash ishlari bo'yicha qilinayotgan ishlar o'z samaralarini bermoqda va aholini ijtimoiy himoyalashda ham katta ahamiyatga ega.

Mening fikrimcha, mijozlarga bank tomonidan berilgan kreditlari bilan sotib olgan yoki qurgan uy-joylarini kredit muddati tugamasdan yoki kredit 100% ga qoplanmasdan sotishga ruxsat berish ularning yaxshiroq va kattaroq uy-joylarga ega bo'lishlariga imkon yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. «Пул маблағларини банкдан ташқари муомаласини янада қисқартириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикасининг Вазирлар Маъкамасининг қарори. 05.08.2002 й.
2. Каримов.И.А. «Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий барқарорлик» тўғрисида.Т.,Ўзбекистон.2005 й. 437 бет.
3. Рашидов О.Ю., Тоймухамедов И.Р., Тожиев Р.Р., Карлибаева Р.Х. «Пул муомаласи, кредит ва молия» Ўқув қўлланма. Т.: ТДИУ, 2005.
4. «Деньги, кредит, банки» / Под ред. Белоглазовой Г. Н. Пособие для сдачи экзамена. – М.: Юрайт-Издат, 2006. – 160 с.
5. «Деньги, кредит, банки» / Под ред. Г.Н. Белоглазовой: Учебник. – М.: Юрайт-Издат, 2006. – 620 с.

## 'LIMGA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TATBIQ

ВНЕДРЕНИЕ ПЕРЕДОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В  
ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

## KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABANING MUSTAQIL TA'LIM TURLARINI TASHKIL

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, O'zbekiston

E-mail: [islambek2005@mail.ru](mailto:islambek2005@mail.ru)

**Аннотация:** Мақоллада oliy ta'lim muassasalarida talabalarining mustaqil ishlari, mustaqil ta'limning ta'lim jarayonidagi o'rni, roli va holati, bu borada olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ishlarining tahlili, hozirgi kunda rivojlangan davlatlardagi mustaqil ta'limning turlari va ularni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari ko'rsatilgan.

**Калит so'zlar:** Mustaqil ta'lim va uning turlari, ta'limning kredit modul tizimi, talabalarning mustaqil ish turlari, o'qituvchi rahbarligidagi talabalarning mustaqil ishlari

**Annotation:** The article discusses the independent work of students in higher educational institutions, the role and status of independent education in the educational process, the analysis of research work carried out in this area, shows the types of independent education in developed countries and the possibilities of their use in the educational process.

**Keywords:** Independent education and its types, credit-modular training system, types of independent work of students, independent work of students under the guidance of a teacher.

**Аннотация:** В статье обсуждаются самостоятельная работа студентов в высших учебных заведениях, роль и статус самостоятельного образования в образовательном процессе, анализ исследовательских работ, проводимых в этой сфере, показаны виды самостоятельного образования в развитых странах и возможности их применения в учебном процессе.

**Ключевые слова:** Самостоятельное образование и его виды, кредитно-модульная система обучения, виды самостоятельной работы студентов, самостоятельная работа студентов под руководством преподавателя

Ma'lumki, ta'limning kredit texnologiyasi bilan auditoriya ishlari hajmining qisqarishi bevosita talaba mustaqil ishining qiymati va mavqeini oshiradi [4]. Agar an'anaviy ta'lim tizimida mustaqil ish o'rganilayotgan o'quv kursining umumiy mehnat sig'imini uchdan bir qismini tashkil etsa, kredit ta'lim tizimida bu qismning uchdan ikki qismini tashkil qiladi. Binobarin, kredit texnologiyasi sharoitida talabaning mustaqil ishi ta'lim sifatini oshirish va bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning asosiy zaxiralaridan biriga aylanadi [6].

Talabaning mustaqil ishi, uning turlari, ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati, ularni samarali tashkil etish yo'llari kabi masalalar shu kunga qadar juda ham ko'p respublikamiz va xorijiy olimlar tomonidan tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganib chiqilgan.

I.E.Unt, M. M. Skatkin, S. D. Smirnov, V. I. Yurchenko, P.I.Pidkasistiy, V.K. Buryak, B.P. Yesipov, R.M. Mikelson, J. Hasonboev, X. To'raqulov, Sh.Sharipov, N.Muslimov, O.A.Qo'ysinov, M.X.Xaybullaev, S. M. Yashanovlar tomonidan oliy ta'lim tizimidagi talabalar mustaqil ishlarining turlari va ularni tashkil etish masalalarini o'rganilgan bo'lsa, B.N.Guzanov, N.V.Morozova, A.V. Antyxov, N.V. Fomin, S.A. Boltaboevlar tomonidan talabalar mustaqil ishini tashkil etish bosqichlari, B.Usmanov, R.Habibullaev, I.G.Teleshova, V.A. Topolskiy, O.Ya.Potexina, Ye.V.Sherbakovalarning tadqiqotlari kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasiga bag'ishlangan. Mazkur masalaning yanada mohiyatining oshishiga 2020 yil 31 dekabrda O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog’liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi №824-son qarorining va mazkur qaror bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to’g’risida” gi Nizomning qabul etilishi bo’ldi [4]. Ushbu nizom talabani o’quv yuklanmasining asosiy qismi talabalar mustaqil ta’limiga ajratilganligini, shu sababli oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ishlariga alohida e’tibor qaratish kerakligini ko’rsatib o’tadi.

Talabani bevosita o’zi tomonidan mobil qurilmasi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlariga quyidagilarni kiritish mumkin [7]:

- o darsga tayyorlanish – ma’ruza matnlari, vodkastlar, video materiallar, amaliy mashg’ulotlar va laboratoriya ishlari bayonlarini o’rganish. Talabalar darsga tayyorlanish jarayonida o’qituvchi tomonidan tayyorlangan va masofaviy o’qitish tizimiga qo’yilgan video fayl (vodkast)lardan ham foydalanishi mumkin.

- o axborot izlash – o’z qiziqishlaridan kelib chiqib taqdim qilingan dayjest orqali internet materiallarini o’rganish. Vikipediya Dayjest — (inglizchada bayon, tanlash) boshqa nashrlarning qisqacha tahlili yoki qisqacha mazmuni degan ma’noni bildirar ekan. Umuman Dayjest iborasi-bu eng qiziqarli materiallarning qisqacha mazmuni ko’rinishidagi ma’lum bir vaqt oralig’idagi matbuotning qisqacha bayoni sifatida qaraladi. Talaba internet saytlarda o’z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda dayjestlardan foydalanib axborot izlashi mumkin.

- o FAQ (ko’p so’raladigan savollar) – o’zini qiziqtirgan muammolarga o’rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash. Ma’lumki FAQ (Frequently Asked Question(s))-u yoki bu mavzu bo’yicha ko’p so’raladigan savollarga javoblar saqlanadigan saytning umumiy bo’limining nomi. Rus tilidagi anoligi ChZV hisoblanadi. Umumiy qilib aytganda internetdan talabani o’zini qiziqtirgan mavzu bo’yicha ma’lumot izlab topishi hisoblanadi.

- o Forum – fan mavzulari bo’yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta’lim platformalarida fikr almashish. Bu forumlarda fanga oid muayyan fikrlar bilan almashish imkoniyatini beradi. Masalan, Qurilish konstruksiyasini AVTOCAD dasturida o’rganish bo’yicha forum mavjud.

- o Test yechish – o’rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan moduliga oid materiallarni mustahkamlash; Masalan MyTest dasturida fanga oid testlarni yechish imkoniyati mavjud.

- o Nazorat ishiga tayyorlanish – fan bo’yicha kutilayotgan oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko’rish.

Ushbu mustaqil ish shakllariga o’qituvchi tomonidan kech qanday ko’rsatma berilmaydi va baholanmaydi, balki talabani o’zi qiziqishlaridan kelib chiqib ularni amalga oshiradi. Fanni o’qitishda quyidagi TMI shakllari qo’llaniladi.

**Talabani mustakil ish mashg’ulotlari hajmi**

T/r	TMI shakllari va mazmuni	Soat
1.	<b>Research.</b> Talabalar internetdan va boshka manbalardan mustaqil ravishda ma’lumot izlashadi va tarqatma materiallarni o’rganishadi. Har bir ma’ruza buyicha kamida 2 soat shug’ullanish maqsadga muvofiq.	14
2.	<b>Forum.</b> Talabalar fan mashg’ulotlari bo’yicha topshiriqlarni bajarish mobaynida masofaviy ta’lim platformasida o’zaro muloqot qilishadi. Bu jarayon uchun vaqt sarfi masofaviy ta’lim platformasida qayd kilib boriladi.	16
3.	<b>FAQ</b> (ko’p beriladigan savollar forumi). Talaba o’z muammosi buyicha maslahat olish uchun masofaviy ta’lim platformasida maslahat tizimiga yoki professor-o’qituvchiga murojaat qiladi. Bu jarayon uchun vaqt sarfi masofaviy ta’lim platformasida qayd qilib boriladi.	14
4.	<b>Test.</b> Talaba har bir modul yakunida o’z bilimlarini mustahkamlash uchun masofaviy ta’lim platformasidagi (HEMIS) o’rgatuvchi (MyTest) testlarni ishlaydi. Bu jarayon uchun vaqt sarfi masofaviy ta’lim platformasida qayd qilib boriladi.	16
	<b>Jami</b>	<b>60</b>

Bu yerda asosan talabalarning masofaviy ta'lim platformasidagi mustaqil ishlari haqida so'z boryapti. Shuningdek, ta'lim platformasidan foydalanishga imkoni yo'q talabalarni ham inobatga olgan holda professor-o'qituvchilar jamoasi harakat qilishi kerak. Demak, talabaning kutubxonada yoki Talabalar turor joyida ishlashini inobatga olgan holda platformadan foydalanish vaqtini kelishib olishi kerak bo'ladi. Lekin bu platforma ta'lim muassasasida yo'q bo'lganda ham o'qituvchi o'z saytida ham xuddi shu ishlarni tashkil etishi mumkin. Shuningdek, professor-o'qituvchilar ijtimoiy tarmoqlardan ham foydalanib, muayyan topshiriqlarni berishi mumkin.

Hozirgi kunda eng ko'p tarqalgan talaba mustaqil ishlarining turi bu- An'anaviy shakldagi ***o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishlari*** (O'RTMI) hisoblanadi.

An'anaviy shakldagi o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishlari (O'RTMI) qo'yidagi turlarga bo'linadi[14]:

- + masala yechish – amaliy mashg'ulot mavzusi bo'yicha berilgan masalalarni yechish va uni yozma tarzda taqdim qilish;

- + referat – muammoning yozma bayoni, bunda adabiy manbaalar sharhlanadi yoki ilmiy ish, kitoblar tahliliy bayon qilinadi;

- + kollokvium – o'quv modulining nazariy qismining o'zlashtirilishini tekshirish maqsadida suhbat uyushtirish;

- + esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;

- + taqdimot – berilgan mavzu bo'yicha slayd va video materiallar vositasida chiqish qilish;

- + keys-stadi – ishlab chiqarishdagi muammoli vaziyatlar bo'yicha belgilangan shakldagi topshiriqlar bo'yicha yechim izlash;

- + ish o'yinlari – kasbiy faoliyat jarayonlarini imitatsiya qilish, sahnalashtirish, rollarni ijro qilish orqali kasbiy ko'nikmalar orttirish;

- + glossariy – berilgan mavzu bo'yicha atamalarni qisqa izohlash.

- + guruh loyihasi – 3-5 talabaning hamkorlikda loyiha ishini bajarishi;

- + hisob grafik ishlari – odatda texnik fanlar (muhandislik grafikasi, elektrotexnika, axborot texnologiyalari va h.k.) bo'yicha amalga oshiriladigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan grafik va hisob ishlari;

- + kurs ishi – fan yoki fanlar majmuasi (korxonalar iqtisodiyoti, menejment asoslari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, fuqaro himoyasi va h.k.) muammolari bo'yicha belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida bajariladigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan yozma va hisob ishlari;

- + kurs loyihasi – fan yoki fanlar majmuasi (texnik mexanika, texnologik jarayon va qurilmalar, mutaxassislikka oid loyiha ishlari bajariladigan fanlar) muammolari bo'yicha belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida bajariladigan grafik chizmalar ilova qilinadigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan hisob ishlari;

- + diplom loyihasi - mutaxassislik faniga oid berilgan mavzu bo'yicha ishlab chiqarish korxonasini yoki uning bo'linmasini loyihalashga qaratilgan, grafik chizmalar va hisob ishlari bilan bayon qilinadigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan loyihaviy ish;

- + amaliyot hisoboti – o'tkazilgan malakaviy amaliyot (tanishuv, ishlab chiqarish, bitiruv oldi amaliyotlari) bo'yicha belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan hisobot;

- + fan to'garaklarida ishtirok etish – talabaning fan to'garaklarida maket, slayd, namunalar kabi ko'rgazmali materiallarni tayyorlashi;

- + tanlovlarda ishtirok etish – talabaning o'qituvchining ilmiy rahbarligi ostida turli tanlovlarda ishtirok etishi (“Yangi avlod iste'dodlari”, talabalar startap loyihalari va h.k.);

- + fan olimpiadalarida qatnashish – fanlar bo'yicha OTM lar o'rtasida o'tkaziladigan olimpiadalarda ishtirok etish (Arxitektura, Qurilish konstruksiyalari, Qurilish mexanikasi, Materiallar qarshiligi va h.k.);

- + ilmiy anjumanlarda ma'ruza qilish – fanga oid ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha OTM, xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-texnikaviy anjumanlarda ma'ruza qilish;



✚ ilmiy tezis va maqolalar chop etish – ilmiy anjumanlarning to‘plamlarida tezislari va ilmiy jurnallarda ilmiy tadqiqot mavzusi bo‘yicha maqolalar chop qilish;

✚ o‘quv-uslubiy materiallarni tayyorlashda ishtirok etish – darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, uslubiy ko‘rsatma va boshqa o‘quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlashda ishtirok etish;

Har bir professor-o‘qituvchi o‘zi dars beradigan fanidan kamida yuqoridagi O‘RTMI turlarida 80-90% ini foydalanadi. Lekin ularga qo‘yilgan talablarni to‘liq bajarmagan talabalarning ham TMllarini qabul qiladi. Ya‘ni, kamchiligi bor ishlarga past baho qo‘yish orqali qabul qilinadi. Masalan, u talaba bundan zo‘r yoza olmaydi degan ma‘noda. Ko‘pchilik OTMlarda faqat iqtidorli talabalar bilangina fan to‘garaklarini tashkil etish, ilmiy tezis va maqola chop etish, fan olimpiadalarida qatnashish, o‘quv-uslubiy materiallarni tanlashda ishtirok etish kabi TMllar tashkil etiladi. O‘quv rejasida ko‘rsatilgan TMI laridan tashqari keys-stadi yechish, guruh loyihasini ishlab chiqish, kollokvium o‘tkazish, esse yozish, ish o‘yinlarini tashkil etish, glossariy tuzish kabi TMI topshiriqlari faqat o‘zlashtirishi yaxshi bo‘lgan guruhlarda tashkil etiladi.

Shuhbasiz, ushbu TMI larini tashkil etish uchun o‘qituvchida birinchidan salohiyat, xoxish, vaqt va ikkinchidan talabalar bilan ishlash uchun sabr, fidoyilik, ta‘lim sifatini oshirishga ya‘ni o‘z mehnatining natijasini ko‘rishga bo‘lgan qiziqish bo‘lishi kerak.

Shu kabi o‘quv loyihalari bilan talabalarda qo‘yidagi tayanch layoqatlarni shakllantirishimiz mumkin:

1. Ijtimoiy,
2. Muloqatli,
3. Axborotli,
4. Loyihaviy
5. Dizaynerlik (nashrlik)

Shuningdek, Toshkent arxitektura-qurilish institutining Shahar qurilishi va xo‘jaligi kafedrasini mudiri t.f.d., dotsent A.Xotamov tomonidan tayyorlangan “Binolarni texnik baholash” fanidan tuzilgan keys-stadini ko‘rib chiqishimiz mumkin.

**Keys-stadi:** Barhayot MChJ qurilish firmasi tomonidan Sergeli tumanidagi 9 qavatli turar-joy binolari qurilib, foydalanish uchun topshirildi.

Ushbu turar joy kompleksida 6 oy muddatda 9, 10, 11-uyalar uy egalari tomonidan o‘zlashtirildi va uylarning «Hayot sikli» boshlandi. Binolarning umrini inson umriga qiyoslash mumkin: Moslashish bosqichi, asosiy xizmat davri va bino konstruksiyalarida asta-sekinlik bilan ishdan chiqish jarayonining yuz berishi-eskirish davri.

Aynan ekspluatatsiyaning dastlabki birinchi yilidayoq 9-uyning konstruktiv elementlarida, 10 va 11-uyning injenerlik-kommunikatsiya tizimida kutilmagan avariyaalar paydo bo‘la boshladi. Bundan tashqari 10 va 11-uyalarning yuqori qavatdagi xonadonlarida pardoz qismlaridagi ko‘chishlar, yedirilishlar, tomdan chakki o‘tishi, injenerlik tarmoqlaridagi quvurlarda nosozliklarni kiritish mumkin.

**Savollar:** Binoda dastlabki yildayoq bunday holatlarning paydo bo‘lishiga asosiy sabab nimada deb uylaysiz?

1. Aytinch, bunday hollarda ko‘riklar tizimining aynan qaysi turi o‘tkaziladi?
2. Bunday nosozliklarni bartaraf etish uchun ta‘mirlashning qaysi turi qo‘llaniladi?

Shu kabi TMllardan ta‘lim jarayonida foydalanish orqali ularning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirishimiz va o‘z ustida ishlashini, mustaqil fikrlashini tashkil etamiz. Ayniqsa magistratura ta‘lim bosqichida TMllari alohida ahamiyatga ega, sababi ularning ichidan kelajakda o‘z faoliyatini OTM bilan bog‘lagan professor-o‘qituvchilar yetishib chiqishi mumkin.

Elektron shakldagi O‘RTMI lar me‘yorlashtirilmaydigan TMllaridan bo‘lib, ular har bir amaliy mashg‘ulot yakunida hisobot shaklida qabul qilinadi. Bu turdagi O‘RTMllari amaliy mashg‘ulotda yoki undan keyin amalga oshirilishi mumkin. Har bir amaliy mashg‘ulotdan so‘ng masofaviy ta‘lim platformasida O‘RTMI uchun o‘qituvchining maslahat darslari tashkil etiladi. Xorijiy davlatlarning OTMlarida qo‘llanilayotgan elektron shakldagi O‘RTMI larni ko‘rib chiqamiz [7]:

➤ Link – internet havolasini ochib unda keltirilgan video yoki matn shaklidagi materialni belgilangan hajmda izohlash yoki internet- havolaga annotatsiya yozish. (Aslida Link (inglizcha link - havola) sayt sahifasidagi faol element bo‘lib, uni bosganingizda qandaydir amal bajariladi. Saytdagi har

qanday navigatsiya va foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan deyarli barcha harakatlar linklar tufayli amalga oshiriladi.) Talaba internetdagi ma’lum bir video yoki matn ko’rinishidagi o’quv materialini belgilangan hajmda izohlash yoki internet-havolaga annotatsiya yozish orqali o’zlashtirishi mumkin.

➤ Chart – jadval, diagramma va sxemalarni cheklangan hajmda tahlil qilish. (Chart so’zi -ayirim manbalarda bozorlarda narxlarni prognoz qilishda foydalaniladigan diagrammalar va grafiklar deb, yana boshqalarida esa Chart so’zi-zamonaviy rus tilidagi "xit-parad" so’zi bilan sinonimdir, ya’ni hozirgi vaqtda yoki ma’lum bir davr oralig’idagi eng mashhur qo’shiqlar va kompozitsiyalar ro’yxati sifatida ishlatilgan.) Chartlarni mavjud jadval, diagramma va sxemalarni tahlil qilish orqali muayyan xulosalarni chiqarish sifatida foydalanishimiz mumkin.

➤ Q/A – masofaviy ta’lim platformasida o’qituvchi tomonidan berilgan savollarga belgilangan hajmda yozma javob berish. Q/A – (inglizchada savol va javob degan ma’noni bildiradi) Masofaviy ta’lim platformasidagi yozma savollarga yozma javob berish hisoblanadi.

➤ Review – taqdim qilingan manbaga annotatsiya yozish yoki taqriz yozish. Talabalarga boshqa olimlarning yoki talabalarining ishlarini o’qib ularga taqriz yozish orqali ham mustaqil ta’lim olishini tashkil etish mumkin.

➤ SWOT – talaba biror tushunchani cheklangan hajmda SWOT-tahlil qiladi. Ushbu usul orqali talaba o’zining faoliyatini baholashi mumkin yoki boshqa bir hodisani baholash imkoniyatiga ega bo’ladi.

<b>S – kuchli tomoni</b>	<b>O - imkoniyatlari</b>
<b>W – kuchsiz tomoni</b>	<b>T- to’siqlar</b>

➤ Interview – muammoni tadqiq qilish bo’yicha suhbat uyushtirish va uni masofaviy ta’lim platformasiga yuklash. (Intervyu muayyan muammoni tadqiq etish maqsadida yirik fan arboblari yoki ilg’or ishlab chiqarish korxonasining rahbarlari bilan o’tkazilishi mumkin.)

➤ Google Apps – Google Classroom platformasida hamkorlikda slaydlar, jadvallar, matnlar shaklidagi topshiriqlarni bajarish. (Google Classroom yoki " Google Class " - bu onlayn ta’lim uchun Internet xizmati. Kurslar yaratish, vebinarlar o’tkazish va talabalarni test qilish imkonini beradi. Aslida, Google bir xizmatda bir nechta vositalarini to’plagan. Ular orasida fayllarni saqlash uchun disk, matnli ma’ruzalar, taqdimotlar, so’rovlar nashr qilish uchun Google Docs, video uchrashuvlar uchun xizmat va treningni rejalashtirish uchun taqvim mavjud. Google Classroom butunlay rus tilida. Google maktablar, texnik maktablar, universitetlar va notijorat tashkilotlar uchun xizmat ishlab chiqdi.) Asosan guruhlarda TMI ni tashkil etishda bir vaqtda taqdimot tayyorlash, matnlar yozish imkoniyatini beradi.

➤ Dayjest – berilgan mavzu bo’yicha internet-havolalar to’plamini keltirish, kartoteka tuzish va ularni qisqa izohlash. Berilgan mavzu bo’yicha talaba ma’lumotlarni internet resurslaridan topadi, havolalaridan kartoteka tuzadi va ularni izohlaydi.

➤ Report – talabalar laboratoriya mashg’ulotlari bo’yicha hisobotlarini masofaviy ta’lim platformasiga kiritish. (Report so’zi- bu yerda hisobot, doklad, xabar ko’rinishida keladi.) Tajriba darsida amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari bo’yicha hisobotni platformaga kiritadi.

Yuqoridagi elektron shakldagi O’RTMI larni 1 bosqich magistraturada o’tiladigan “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya” fani misolida ko’rib chiqadigan bo’lsak quyidagidek shaklda tashkil etishimiz mumkin.

<b>T/r</b>	<b>MI turi</b>	<b>Amaliy mashg’ulot mavzulari bo’yicha O’RTMI</b>	<b>Soat</b>
1	Review	“Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchi shaxsi: tuzilishi va sohalari” mavzusi bo’yicha o’qituvchi tomonidan berilgan yoki taqdim qilingan manbaga taqriz yozadi. Talabalar tomonidan tayyorlangan taqrizlar o’zlari tomonidan tuzilgan komissiya tomonidan baholanadi. Taqrizlarni baholash bo’yicha ko’rsatmalar komissiyaga oldindan beriladi.	4
2	Link	Talaba “O’quv jarayonini loyihalash va rejalashtirish” mavzusi bo’yicha berilgan variantlardagi havolalarni ochib ularga fikr bildiradi. Javobni baholashda talabaniing to’g’ri javob berishi va bayon qilishi inobatga olinadi.	4

3	Chart	“An’anaviy, rivojlantiruvchi va innavatsion ta’lim” mavzusi bo’yicha jadvalni 200 gacha so’z ishlatib izohlash talab etiladi. Javobni baholashda so’zlar soni, atamalardan foydalanish, gapning tuzilishi, bog’lovchi so’z va iboralardan foydalanish, taqqoslashlar, o’zgarish dinamikasi va izohning to’g’riligi hamda to’liqligi inobatga olinadi.	4
4	Dayjest	Talaba “Interfaol ta’lim metodlari. Grafik organayzerlar” mavzu bo’yicha internet-havolalar to’plamini keltirish, kartoteka tuzish va ularni qisqa izohlaydi. Berilgan mavzu bo’yicha talaba ma’lumotlarni internet resurslaridan topadi, havolalaridan kartoteka tuzadi va ularni izohlaydi.	4
5	Q/A	“Pedagogik mahorat va uning o’qituvchi faoliyatida tutgan o’rni” mavzusi bo’yicha o’qituvchi tomonidan berilgan variantlardagi savollarga 50-70 so’z hajmida javob yoziladi. Javobni baholashda javobning to’liqligi va so’zlar soni e’tiborga olinadi.	4
6	Chart	Talaba “Pedagogik qobiliyat-pedagogik mahoratning asosi sifatida. Pedagogik takt va pedagogik odob” mavzusi bo’yicha jadvalni 200 gacha so’z ishlatib izohlash talab etiladi. Javobni baholashda so’zlar soni, atamalardan foydalanish, gapning tuzilishi, bog’lovchi so’z va iboralardan foydalanish, taqqoslashlar, o’zgarish dinamikasi va izohning to’g’riligi hamda to’liqligi inobatga olinadi.	2
7	Google Apps	“O’qituvchining kasbiy faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyati” mavzusi bo’yicha hamkorlikda Google Apps taqdimot tayyorlashadi.	2
8.	Review	“Pedagogik ijodkorlik va pedagogik refleksiya” mavzusi bo’yicha o’qituvchi tomonidan berilgan yoki taqdim qilingan manbaga taqriz yozadi. Talabalar tomonidan tayyorlangan taqrizlar o’zlari tomonidan tuzilgan komissiya tomonidan baholanadi. Taqrizlarni baholash bo’yicha ko’rsatmalar komissiyaga oldindan beriladi.	2
9.	SWOT	“O’qituvchining innovatsion faoliyati: namoyon bo’lishi va tuzilmasi” mavzusi bo’yicha har bir talaba tomonidan SWOT-tahlilni amalga oshiradi.	2
10	Interview	Talaba “Pedagogik nizolar va ularni bartaraf etish texnologiyasi” mavzusi bo’yicha o’zgalarning shu muammoga nisbatan fikrlarini o’rganadi va audio, video yozuvlar shaklida taqdim etadi. Talabaning ishini baholashda uning vaqt reglamentiga rioya qilganligi, suhbatdoshini to’g’ri tanlashi, savollarni suhbatdoshining javobidan kelib chiqib berishi va uni yo’naltirishi, original javob olishi, tashqi ko’rinish va fon, mulozamat elementlari inobatga olinadi.	2

Mazkur elektron shakldagi O’RTMI lar o’qituvchidan bu AKT borasidagi bilim, ko’nikma va malakalarni talab etadi. Shuningdek, o’qituvchidan dars beradigan fani bo’yicha ushbu TMIlarni qaysi amaliy mashg’ulotga mos kelishini tanlay bilishni, qanday natijaga erishishi mumkinligini oldindan bashoratlash kerakligini taqozo etadi. Eng asosiysi talabalarda ushbu TMIlarni bajarish uchun moddiy-texnik imkoniyati mavjud bo’lishi kerak bo’ladi. Hozirgi kunga qadar OTM si professor-o’qituvchilari ushbu TMIlardan faqat SWOT tahlilini o’qitish metodi sifatida foydalanilayotganligini bilamiz. Ma’lumki, O’RTMI lar ularning bayoni, mavzulari, topshiriqlari, o’tkazish shakllari, soatlar hajmini ham ko’rsatgan holda fanning sillabusida fan modullari bo’yicha keltiriladi.

Albatta O’RTMI mazmuni fanning xususiyatidan, oliy o’quv yurtining texnik imkoniyatlaridan va elektron kutubxonaning o’quv-uslubiy ta’minlanganidan kelib chiqib aniqlanadi.

Xulosa o’rinda shuni aytish mumkinki, talabalarining mustaqil ishi bo’lajak mutaxassis shaxsini shakllantirishga muhim ta’sir ko’rsatadi. Ayniqsa kredit-modul tizimda tahsil olayotgan har bir talaba o’z ish tartibini va har bir fan bo’yicha ta’lim mazmunini o’zlashtirishga sarflangan mehnat o’lchovini belgilaydi. U mustaqil ta’lim ishini o’zining tayyorgarlik darajasi, vaqti va boshqa shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda shaxsiy, individual reja asosida amalga oshiradi.

Kredit-modul tizimida ham bakalavr ta'lim yo'nalishlariga, ham magistratura mutaxassisliklariga talabalar mustaqil ishlarini samarali foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkinligi asoslandi. Kredit-modul tizimiga asoslangan masofaviy ta'lim platformalarida talabalar mustaqil ishlari turlarini nafaqat ijtimoiy–gumanitar sohaga balki, arxitektura, qurilish, san'at va madaniyat, qishloq xo'jaligi sohalaridagi OTMLarda ham muvaffaqiyatli foydalanish imkoniyati mavjud.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha [harakatlar strategiyasini](#) "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid [davlat dasturi](#) to'g'risida" PF-5953-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6108-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 824-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 14 avgustagi "Talabalar mustaqil ishini tashkil etish to'g'risida"gi 286-sonli buyrug'i.
6. Самостоятельная работа студентов: виды, формы, критерии оценки: [учеб.-метод. пособие] / [А. В. Меренков, С. В. Куньщиков, Т. И. Гречухина, А. В. Усачева, И. Ю. Вороткова; под общ. ред. Т. И. Гречухиной, А. В. Меренкова]; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. — 80 с.
7. Усмонов Б.Ш., Хабибуллаев Р.А. Олий ўқув юртлирида ўқув жараёнини кредит модуль тизимида ташкил қилиш. Ўқув қўлланма. – Тошкент, ТКТИ, 2020. - 120 бет.
8. Топольский, В. О. Проблемы организации самостоятельной работы студентов университета в процессе кредитно-модульной системы обучения / В. О. Топольский. — Текст непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 3 (62). — С. 1039-1043
9. <http://dr-sharipov.com/> Мустақил таълимни ташкил этишда билим олишнинг интеллектуал тизимидан фойдаланиш масалалари.
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/kontseptualnye-osnovaniya-organizatsii-samostoyatelnoy-raboty-studentov-v-bakalavriate-i-magistrature/viewer>
11. <https://docplayer.com/186885-Organizaciya-uchebnogo-processa-pri-realizacii-kreditno-modulnyh-obrazovatelnyh-programm.html>
12. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0742051X19304299>  
<https://docplayer.com/35201325-Nekotorye-problemy-organizacii-samostoyatelnoy-raboty-studentov-v-processe-kreditno-modulnoy-sistemy-obucheniya.html>

#### **'LIMDA FANLARNI O'QITISH SIFATINI OSHIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING ROLI**

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, O'zbekiston  
E-mail: [muborakmahkamova56@gmail.com](mailto:muborakmahkamova56@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada ta'lim jarayonida mustaqil ishlashning mohiyati, shakllari, turlari, o'rni va vazifalari ko'rsatilgan hamda ularning ta'lim ishtirokchilarida namoyon bo'layotgan kompetentliklarga ta'siri haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lim, bilim, ko'nikma, mahorat, fikrlash, ma'lumot, kreativ fikrlash, tahliliy fikrlash, tanqidiy fikrlash.



**Аннотация:** В статье показаны сущность, формы, виды, роль и задачи самостоятельной работы в образовательном процессе и даны комментарии об их влиянии на компетенции участников образования.

**Ключевые слова:** самостоятельное образование, знания, умения, навыки, мышление, информация, творческое мышление, аналитическое мышление, критическое мышление.

**Abstract:** The article shows the nature, forms, types, role and tasks of independent work in the educational process and comments on their influence on the competences of the participants of education.

**Key words:** independent education, knowledge, skills, skills, thinking, information, creative thinking, analytical thinking, critical thinking.

Hozirgi davrda ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish, talabalarning mustaqil ravishda o'quv materiallarini o'zlashtirishi, ularning kasbiy o'sishini rag'batlantirish, ularda ijodiy faollikni tarbiyalashda pedagoglarning mas'uliyatini oshirish zarur. Talaba va pedagog mustaqil ta'lim ularning manfaati uchun olib borilishini tushunishi kerak. Talaba bajarayotgan mustakil ish pedagogi uchun emas, balki o'zi uchun, uning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlashining asosiy omili ekanligini tushunishi kerak. Talaba olayotgan bilim natijasiga o'zi mas'ulligini anglashi zarur. Pedagog esa mustaqil ta'lim fakatgina talaba uchun emas, balki o'zi uchun ham kerak ekanligi, o'zini ishini osonlashtirish, mustaqil fikr yurita oladigan talabalar bilan mulokotda bo'lib, o'z bilimini boyitish va kelajda xizmat pog'onalarida o'sishini ta'minlashini anglashi lozim.

O'quv jarayoni sifatini oshirishda mustaqil ta'limning roli so'zsiz katta. Pedagogdan tayyor ma'lumot olgandan ko'ra mustaqil faoliyat jarayonida olgan bilimni o'zlashtirish nisbatan ancha yaxshi natija beradi.

Talaba va pedagog mustaqil ta'lim ularning manfaati uchun olib borilishini tushunishi kerak. Talaba bajarayotgan mustaqil ish pedagogi uchun emas, balki o'zi uchun, uning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlashining asosiy omili ekanligini tushunishi kerak. Talaba olayotgan bilim natijasiga o'zi mas'ulligini anglashi zarur.

Pedagog esa mustaqil ta'lim faqatgina talaba uchun emas, balki o'zi uchun ham kerak ekanligi, o'zini ishini osonlashtirish, mustaqil fikr yurita oladigan talabalar bilan mulokotda bo'lib, o'z bilimini boyitish va kelajda xizmat pog'onalarida o'sishini ta'minlashini anglashi lozim.

Mustaqil ta'limni faollashtirmasdan oliy ta'limda talabalarni samarali o'qitishni ko'z oldimizga keltirish qiyin.

Hozirgi davr mutaxassisidan yuqori darajadagi tayyorgarlik, mustaqil ravishda qarorlar qabul qila olish, belgilangan vazifalarni bajarish uchun ko'p ma'lumotlar orasidan kerakligini tanlab olish va bu ma'lumotlarni qayta ishlay olish talab qilinadi.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, har bir pedagog faqatgina o'zining fanini asosiy deb hisoblamasdan, talabaning mustaqil ta'limga ajratilgan vaqti o'quv rejadagi barcha fanlar uchun ajratilganligini esdan chiqarmasligi kerak, aks holda talabalarga keragidan ortiq berilgan vazifa mustaqil ta'limdan kuzatilgan ijobiy natija o'rniga, aksincha salbiy natijaga olib kelishi mumkin.

**Talabalarning mustaqil ta'limidan asosiy maqsadlar quyidagilardan iboratdir:**

- yangi bilim olish usullarini egallash, jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- auditoriyadagi mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va tartibga solish;
- me'yoriy-huquqiy aktlar, ma'lumotlar va maxsus adabiyotlar bilan ishlashni o'rganish;
- o'quv materiallarini mustaqil o'rganish;
- faolligi, bilim orttirishi, ijodiy tashabbusi, mas'uliyati va tartibligini rivojlantirish;
- olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishni shakllantirish;
- mustaqil fikr yuritish, o'z-o'zini o'stirish, o'zining rejasini amalga oshirishni shakllantirish;
- tadqiqot qila olish qobiliyatini rivojlantirish.

Talabalar mustaqil ta'limining asosiy vazifasi mustaqil ravishda ma'lumotlar topish usuli bilan bilim olishni rivojlantirish, o'quv jarayoniga ijodiy yondashishga faol qiziqishni shakllantirishdan iborat.

Talabalar mustaqil ravishda kurs ishlari, kurs loyihasi, bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlayotganlarida qo'yilgan muammolarni chuqur tahlil qilib, o'zlarining mustaqil asoslangan fikr va xulosalarini chiqarishlari kerak...!!!

Hozirgi kunda kompyuter bilimlariga ega bo'lish zamon talabiga aylandi, bunga sabab kompyuter savodxonligiga ega bo'lgan kadrlarga bo'lgan talabning kundan-kunga ortib borayotganligidir.

Talabalarning zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalari bilan ishlay olish malakalarini egallashlari, dunyoda bo'layotgan voqea-hodisalardan xabardor bo'lishlarida, o'z bilim darajalarini yanada boyitib borishlarida Internet tarmog'i bilan ishlay olish malakalarini egallashgan bo'lishlari muhim hisoblanadi.

Talabalarning fanlardan mustaqil ta'limini tashkil etish va ularning mustaqil bilim olishlari uchun dastlab, ularning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

**Mustaqil ta'limni tashkil etishda kompyuter texnologiyasidan foydalanishni amalga oshirish uchun avval quyidagi ishlarni bajarish zarur:**

1. Mavzudagi asosiy tushunchalarning o'zlashtirish sifatini baholash mezonini ishlab chiqish.
2. Mavzudagi asosiy tushunchalarning talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtirishlari uchun maxsus kompyuter dasturlarini ishlab chiqish.
3. Talabalarning fandan mustaqil bilim olishiga zarur, kerakli kompyuter jihozlarini tayyorlash.
4. Oliy o'quv yurtlarining o'quv-tarbiya jarayonida talabalarning o'zlashtirish darajalariga mos ravishda bilimlarni egallashida zamonaviy kompyuter dasturidan foydalanishning samarali yo'llarini izlab topish.

**Talabalar mustaqil ish topshiriqlarini tayyorlashda, bajarishda quyidagilarga amal qilishlari lozim:**

- ma'ruza mashg'ulotiga oid mustaqil ta'lim topshiriqlarini tanlashda ularning auditoriyada o'rganiladigan mavzular bilan uzviyligini ta'minlash;
- uyda mustaqil ravishda o'rganiladigan mavzularning va o'rganilishi lozim bo'lgan asosiy savollarning aniq bayon etilishiga erishish;
- amaliy mashg'ulotlar topshiriqlarini o'rganilayotgan nazariy o'quv materiallari bilan mutanosib bo'lishini hisobga olish;
- amaliy ishlarni, mustaqil ishlarni bajarishga oid mavjud metodik ishlanmalar yaratilganligini hisobga olish;
- mustaqil ravishda yechilishi lozim bo'lgan misol va masalalarning aniq ro'yxatini tuzish;
- mustaqil ish topshiriqlarining axborot ta'minoti, jumladan adabiyotlar ro'yxati, betlari ko'rsatilgan holda, elektron o'quv qo'llanmalar va Internet manzili ko'rsatilishiga erishish va h.k.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, talabaning bilish faoliyati, ya'ni qobiliyati uning aqliy rivojlanish darajasi bilan o'lchanadi. Bilish qobiliyatini aniqlaydigan mezonga o'zlashtirish tezligi, tafakkurlash jarayoni egiluvchanligi va tafakkurning aniq komponentlari kiradi. Bilish tushunchasi umumiy holda aqliy qobiliyatlar tushunchasiga mohiyati jihatidan yaqindir. Umumiy aqliy qobiliyat talabaning o'quv faoliyatida talab etiladigan barcha qobiliyatlar majmuasini o'zida mujassamlashtiradi. Bunga talabaning o'quv materialini xotirasida saqlab qolish, ijodiy fikrlash, mantiqiy amallar bajarish qobiliyati kabilar kiradi. Bu qobiliyatlar psixologiyada turli sinflarga ajratiladi va har xil talqin qilinadi.

O'quv ishlarining har qanday shakli o'quv-malaka talab qiladi, masalan, o'qituvchi ma'ruzasini eshitish, amaliy topshiriqlarni bajarish, test topshiriqlari bilan ishlash, mustaqil ishlash malakasi kabilar.

O'quv jarayoni davomida ma'ruza mashg'ulotlarini o'tishda ko'pgina pedagoglarimiz "Qanday metoddan foydalanish mumkin?" degan muammoga duch kelishadi. Ko'p hollarda bu muammo ma'ruza metodidan foydalangan holda yechiladi. Dars jarayonida ta'lim metodlarini tanlash mavzuning mazmuniga bog'liq bo'ladi va o'ziga xos mazmunini bayon qilish texnologiyasi tanlanadi, bunda talabalarning psixologik tayyorgarliklari, bilimlarni o'zlashtirish va fikrlash darajalari, har xil ta'lim bosqichi uchun mos metodlari hisobga olinadi. Talabalar o'quv jarayonida mustaqil faoliyat olib borish uchun pedagogdan quyidagi tayyorgarlik ishlari olib borish talab qilinadi: fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmua tayyorlash va o'qitish muhitini loyihalash; o'quv dasturini yaxshilash, ya'ni mustaqil ish mavzularini kiritish, mustaqil ishni mustaqil ta'limga namunaviy topshiriqlarni kiritish bilan muntazam

ravishda nazorat kilib borish; talabalarning har tomonlama bilimdonligi, malakaviy bilimni rivojlantirish; talaba mustaqil ishni bajarayotganda qancha soat va ball berilishini hisoblash; o'qitishning usul va vositalarini ko'rsatgan holda texnologik xarita ishlab chiqish.

Pedagog maslahatchi, ekspert, t'yutor va moderator vazifasini bajaradi, ya'ni talabani qo'llab-quvvatlaydi. Pedagog talabaga ma'lumot, texnologik va psixologik nuqtai nazardan maslahat beradi. Shunday talabalar borki, ular mustaqil ravishda faoliyat olib bora olmaydilar, bu holatda pedagog moderator vazifasini amalga oshiradi. Moderatorlik talabaning ichki imkoniyatlarini ochishga karatilgan bo'lib, ichki qobiliyatlari va yashiringan imkoniyatlarini ochishga karatilgan. Moderatorning asosiy vazifasi talabaning faoliyatini faollashtirish, ulardagi muammolarni aniqlashdir. Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishda mustaqil o'rganishga olib chiqilayotgan o'quv materiallari hajmi va mazmunining tuzilishiga katta e'tibor berish bilan bir qatorda uslubiy ta'minlashga katta e'tibor berish kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”ги фармони. халқ сўзи.-2017.-8 февраль.-№28.
- 2.Иминов А.А., Джаматов М.Х. “Бошқарувда ахборот технологиялари” маърузалар матни. Тошкент-2017.
- 3.Арипов М., Бегалов Б., Бегимқулов У., Мамаражабов М. “Ахборот технологиялари” Ўқув кўлланма. Т.: “NOSHIR”-2009.
- 4.Арипов А.Н., Иминов Т.К. «Ўзбекистон ахборот-коммуникация технологиялари соҳаси менежменти масалалари» Монография -Т.: Фан ва технология, 2005.
- 5.Кадиров А.М., Шакирова К., Инновационный потенциал повышение конкурентоспособности национальной экономике. // Сбор.2018.
- 6.Махкамова М.А. Развитие и управление инновационной деятельностью предприятий. Т.: ALOQACHI НММ, 2006.

**Т**  
**А**  
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, O'zbekiston  
E-mail: [usa190380@mail.ru](mailto:usa190380@mail.ru), [usa190380@umail.uz](mailto:usa190380@umail.uz), [usa190380@gmail.com](mailto:usa190380@gmail.com), [khalमतoival@mail.ru](mailto:khalमतoival@mail.ru)

**Аннотация:** Ushbu maqolada oliy ta'limda sifat tushunchasi va sifat masalalarining talqini xorijiy manbalar asosida tahlil etilgan. Xorijiy tajribalar esa O'zbekistondagi tajribalar bilan qiyoslangan. Oliy ta'limda sifat tushunchasini talqinlashda Diana Greenning qarashlari ochib berilgan. Sifatni belgilash va baholash har doim bahs munozaralar ichida bo'lib kelganligi misollar bilan yoritilgan. Britaniyalik mualliflar Jakson va Lundning oliy ta'limdagi sifatni baholash masalalariga yondoshishda «kontseptual tizim»i tahlil etilgan. Oliy ta'limda sifatga bo'lgan qiziqishning paydo bo'lishiga turtki bo'lgan omil va faktorlar asoslab berilgan.

**Калит so'zlar:** sifat, sifatni belgilash, tajriba, xorijiy manba, kontseptual tizim, omil.

**Аннотация:** В данной статье анализируются понятие качества и вопросы качества в высшем образовании, основываясь на международных источниках. Проведён сравнительный анализ международного опыта с опытом Узбекистана. Освещены видение и взгляды Дианы Грин на толкование понятия качества в высшем образовании. Показано с примерами, что определение и оценка качества всегда являлось предметом дискуссий. Также анализируется концептуальный подход к оценке качества в высшем образовании британских авторов Джексона и Лунда. Обоснованы факторы, послужившие причиной появления интереса к вопросам качества в высшем образовании.

**Ключевые слова:** качество, определение качества, оценка качества, опыт, зарубежный источник, концептуальная система, фактор.

**Annotation:** In this article the concept of quality and quality issues in higher education are discussed based on the international sources. The international practices are compared with the practices in Uzbekistan. The Diana Green's views on interpretation of the quality in higher education are

highlighted. It is highlighted on some examples that the quality assessment and defining was always in dispute. Also, the article analyses the conceptual approach of British authors Jackson and Lund's to defining the quality of higher education is discussed. The triggered factors and forces in increasing the interest for quality in higher education are justified.

**Key words:** quality, definition of quality, quality assessment, experience, foreign source, conceptual system, factor.

Jahonning barcha oliy ta'lim muassasalarida oliy ta'lim sifati, ya'ni sifatli kadrlar tayyorlash hamma vaqt ham dolzarb masala bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Sifat masalasi, ayniqsa, XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida yana ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aksariyat davlatlarda oliy ta'lim muassasalarining davlat tasarrufidan chiqarilishi, xususi universitetlarning ko'payishi, shu bilan birga, ta'lim ham iqtisodiy tizimda tovar kabi baholanishi unga o'z mijozlari (buyurtmachi talablari) ga ega bo'lishi, bunda oliy ta'lim muassasalarining raqobatga kirishishi ularni sifatli kadr tayyorlashga majbur qilmoqda. Hozirgi davrda va kelajakda ham har bir oliy ta'lim muassasasi o'z mijozlarini o'zi topishi tamoyilida ishlaydi. Ya'ni, bitiruvchilarga bo'lgan talabning kuchayishi o'sha bitirib chiqayotgan ta'lim muassasasining yuqori ko'rsatkichlarga ega ekanligi va salohiyatligini bildiradi. Mana shunday beg'araz raqobat muhitida ta'lim muassasasi rostlanadi, shakllanadi va natijada raqobatbardosh kadrlar yetishib chiqadi. Demak, raqobatbardosh, sifatli kadr tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari iqtisodiy jihatdan kuchayib boradi. Endi shu o'rinda raqobat vasifatning o'zi nima? Uning qanday komponentlari bor? degan savolga javob berish va ularni ilmiy tahlil etish lozim. Raqobatning lug'aviy ma'nosi "raqib" likka taqalib, qandaydir noxush kayfiyat qoldirsa-da, bozor iqtisodiyoti sharoitida uning turgan-bitgani foydali. Raqobat hamma vaqt ham sifatli bo'lishga yetaklaydi. Sifat va raqobat bir-biri bilan bog'liq va deyarli birga qo'llaniladigan terminlardir. Oliy ta'limda sifat bu ko'p qirrali, ko'p darajali, va dinamik tushuncha bo'lib, u ta'lim modelining mazmuniy birligiga, muassasaning missiya va vazifalariga, hamda o'ziga xos ma'lum standartlarga bog'liqdir. Batafsilroq ta'rifni A. Karimov va L. Peregudovlar tomonidan berilgan: "Oliy ta'lim sohasida sifat ko'p qirrali kontseptsiya hisoblanadi. U ta'lim sohasidagi barcha funktsiya va faoliyat turlari – o'quv va akademik dasturlar, ilmiy tadqiqot va stipendiyalar, mutaxassis xodimlar bilan to'liq ta'minlanganlik, ta'lim oluvchilar, binolar, moddiy-texnika bazasi va jihozlarni, jamiyat va akademik muhit farovonligi yo'lidagi barcha ishlarni qamrab olishi kerak".

Rossiya Federatsiyasi manbalarida sifatning ta'rifida ko'p munozarali fikrlar bayon qilingan holda, uning qisqa va lo'nda ta'rifi ham berilgan, ya'ni sifat talablar tavsifiga xos moslik darajasidir. Uning ikki tomoni ko'rsatiladi: 1) ta'lim jarayoni natijasi sifati; 2) sifatni ta'minlovchi sistemalar tavsifi. Bunga ta'lim mazmuni, abiturentlarni tayyorlash jarayoni, pedagog kadrlar, axborot-metodik ta'minot, ta'lim texnologiyalari, ilmiy faoliyat kirishi aytiladi.

Shu bilan birga, sifat tushunchasi oliy ta'limdan manfaatdor guruhlar va turli vakolatli tashkilotlar tomonidan turlicha qabul kilinishi mumkin.

Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan manbalarda uning uch komponenti haqida ma'lumotlar uchraydi:

1. Ta'lim sub'ektlari. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- ta'lim tashkilotchilari. Ularga rektor, dekanat, o'quv bo'limi, kafedralar kiradi;
- ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi shaxslar. Ularga professor-o'qituvchi, metodist, maslahatchi, laborant, dastur va o'quv adabiyotlari kiradi;
- ta'lim xizmatlaridan bahramand bo'luvchi shaxslar. Ularga talaba va tinglovchilar kiradi.

2. Ta'limning me'yoriy hujjatlari. Ularga ta'lim kontseptsiyalari va paradigmatlari, o'qitish texnologiyalari, o'quv adabiyotlari, sifatli bilimlarni berish va nazorat qilish metodlari kiradi.

3. Ta'lim muhiti. Bunga ijtimoiy, madaniy, psixologik muhitlar kiradi.

Yuqoridagi komponentlarga kirgan har bir qismdagi tayyorgarlik darajasi pirovardida oliy ta'lim sifatini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasasi faoliyatida yuqoridagi komponentlar mavjud, lekin uni sifat darajasiga ko'tarish lozim. Bunda xorijiy tajribalarni o'rganish shu sohada takomilga erishish uchun asos bo'ladi.

Aytish mumkinki, bu sohada ish olib borishga O'zbekiston Respublikasida to'liq sharoit



yaratilgan. Jumladan, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da shunday deyiladi: “O‘zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konventsiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilg‘or tajribasini hisobga olish, uzluksiz ta‘lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor bo‘lib, uning rivojlanish omillaridir.”

O‘zbekiston Respublikasida ilm-fan va ta‘lim tizimi dunyo tajribalari asosida yanada boyitib boriladi va shu tariqa globallashuv jarayonida mamlakatimizdagi oliy ta‘lim jahon ta‘lim tizimida o‘z o‘rnini topib bormoqda. Demak, ta‘limdagi «sifat» kategoriyasi Yetakchi komponent bo‘lib xizmat qiladi. Xalq xo‘jaligi va ta‘limning qaysi turi va bosqichi bo‘lmasin, uning bozor iqtisodi sharoitida yashashi va amal qilishida sifat mezoni asosiga tayanadi. Oliy ta‘lim sohasida sifatning taminlanishi provardda Yetuk kadrlar tayyorlashga sabab bo‘ladi. Bu isbot talab qilmaydigan aksioma bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi hukumati, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi va oliy ta‘lim muassasalarining bosh masalasiga aylangan. Albatta, o‘quv jarayoni sifati va kadrlar tayyorlash sifati bir-birini taqozo qiladigan kategoriyalardir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida jiddiy ishlar amalga oshirilgan: «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to‘lig‘icha amalga oshirilmogda, oliy ta‘limda ikki bosqichli ta‘lim, talabalar bilimni baholashning reyting tizimi, zamonaviy o‘quv adabiyotlar yaratilgan, ta‘limda innovatsion texnologiyalar joriy etilgan, va h.k. Shu bilan birgalikda jahon tajribalari ham o‘rganilmoqdaki, bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekistondagi oliy ta‘limning jahon oliy ta‘limining tarkibiy qismi sifatida globallashuv jarayonlarida o‘z o‘rnini topib olayotganligidan dalolat bermoqda. Bu kabi jarayonlar ilmiy jamoatchilik tomonidan yanada o‘rganilishi lozim.

Shuning uchun sifatning mohiyatini to‘liq anglash va talqin etish ehtiyojlari paydo bo‘ldi. Bunda jahon tajribasini tanqidiy tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, oliy ta‘limda sifat va sifatni baholash masalasi XX asrning oxirida dunyo miqyosida eng dolzarb masala sifatida maydonga chiqqan. YUNESKO tomonidan 1998 yilda o‘tkazilgan konferentsiyada butun dunyo deklaratsiyasi qabul qilindi va uning 11-moddasi “Sifatni baholash” deb nomlandi va unda sifat oliy ta‘lim sohasida ko‘p o‘lchamli kontsepsiya deb ta‘riflandi. Unga ko‘ra o‘quv va akademik dasturlar, ilmiy tadqiqot ishlari, professor-o‘qituvchilar, talabalar, o‘quv binolari, moddiy-texnika bazasi, jihozlar, jamiyat uchun jon kuydirish, akademik muhit sifatni belgilovchi dasturlar sifatida keltiriladi. Shuningdek sifatni baholaydigan tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot beriladi.

Axborot manbalaridan olingan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, jahon oliy ta‘limidagi sifat tushunchasini yoritib berish va uning universal izohi bo‘yicha muayyan va yakuniy to‘xtamga kelingan emas. Shunday bo‘lsa-da, uni talqin yoki interpretatsiya qilish orqali tushuntirib berishga dunyoda juda ko‘plab olimlar harakat qilganlar. Bu borada g‘arb olimlarining turlicha qarashlari yuzaga keldi.

Oliy ta‘limda sifat tushunchasini talqin qilishda Diana Grinning qarashlari o‘ziga xosdir. U sifatning ananaviy manosi (the traditional concept of quality) to‘g‘risida fikr yuritadi. Unga ko‘ra, mijozlarga talablar darajasida mahsulot Yetkazish, servis ko‘rsatish va muvaffaqiyatga erishish, imidjga ega bo‘lish sifat hisoblanadi. Masalan, Mercedes yoki Rols Roys (Rolls Royce) avtomobil kompaniyalarining mahsulotlari, oliy ta‘limda esa Oksford va Kembridj universitetlarining talabalar va tadqiqotchilar o‘rtasida imidjga ega bo‘lishi yaqqol misol bo‘la oladi. Masalan, Oksford universitetida hozirgi kunda 20 mingdan ortiq ortiq talaba tahsil oladi, ularning 11734 tasi bakalavr va 8101 tasi bakalavrdan keyingi (magistratura, doktorantura va b.) bosqich ta‘lim oluvchilaridir. Talabalarning 35 foizi chet elliklardir. Shundan AQSH (1421), Xitoy (705), Germaniya (632), Kanada (355), Hindiston (308), Avstraliya (253), Frantsiya (198), Irlandiya (188) va Italiya (178) liklardir. 85 nafar nobel laureatlarini dunyoga bergan Kembridj universitetida ham 19 ming talabaning 38 foizi xorijliklardir. Ular ko‘p yillardan beri dunyo reytinglarida yuqori pog‘onalarni egallab kelmoqda. Masalan, oxirgi Kembridj universiteti 2005 yilgi “Tayms oliy ta‘lim reytingi (Times Higher Education-QS World University Rankings)” da 3 o‘rinni va 2006 yilgi Xitoyning Jio Tong universitetidagi Oliy ta‘lim tadqiqot markazi (Higher Education Research institute of Jiao Tong University in Mainland China) jahon universitetlari ligasi (The World’s Leading Universities) da 2 o‘rinni egallagan.

Diana Grin mahsulot yoki servislarning standartlar yoki spetsifikatsiyalarga muvofiqligi (Conformance to specification or standards) to‘g‘risidagi fikri ham keng tarqalgan. Oliy ta‘limda talabaning o‘zlashtirishidagi yuqori natija va Yetarlicha malakaga ega bo‘lishi standartlar orqali baholanadi. Masalan Britaniya oliy ta‘lim muassasalarida “Akademik standart”larga muvofiqlik bo‘lish

ham sifatli deb qabul qilinadi.

D.Grın sifatning maqsadga muvofiqiqligi (Quality as fitness for purpose) haqida ham fikr bildiradi. D.Grın bu g'oyani bir necha savollar qo'yish orqali tushuntirib beradi: oliy ta'limning maqsadi jamiyatga Yetuk kadrlarni Yetkazib berish bo'lsa, u holda bu vazifani ular uddalay olayaptimi, ta'lim dasturlari Yetarlicha bilim va ko'nikmalarni aks ettira olganmi, muassasa o'zi belgilagan istiqbol (vision) va missiyalar ado etilmoqdami? va h.k. Demak, ushbu qarashlar ta'lim standartlari sifatining asosini aniqlashda asos bo'ladi deb baholandi.

Oliy ta'limning maqsadini aniqlash va interpretatsiya qilishda turli qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. Oliy ta'lim maqsadini talabalar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, rahbariyat yoki hukumat aniqlab berishi munozarasi ham bor. Albatta, ushbu manfaatdor guruhlarining oliy ta'limdan ko'zlagan maqsadlari bir-birlaridan ayni o'rinda farqli va ularning uyg'unligi ham bor. Bu esa oliy ta'limning ko'p maqsadli ekanligini ham ko'rsatadi.

D.Grın sifat mijozlarning talab va ehtiyojlariga qaratilganligini (Quality as meeting customers stated or implied needs) ta'kidlaydi. Bunday fikrni L.Vlaseanu, L.Grunberg va D.Parleular ham tasdiqlaydilar. Dunyoda keyingi 20 yil mobaynida mahsulot ishlab chiqarish ma'lum bir andozalarga emas, balki mijozlarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshirildi. Lekin ishlab chiqarishdan farqli o'laroq davlat sektorlarida «mijoz»ning kim ekanligi ham munozara qilinadi. Ayniqsa, oliy ta'limda mijozni aniqlashda fikrlar qarama-qarshiligi mavjud. Oliy ta'limdagi mijoz deganda, uning xizmatidan foydalanuvchilar (talabalar)mi yoki xizmat ko'rsatuvchilar (o'qituvchi yoki hukumat) mi? Talaba mijozmi yoki «mahsulot»mi yoki har ikkalasimi? Albatta, talabaning intellektual ehtiyojidan kelib chiqadigan xizmatlar (yaxshi kutubxona, shinam yotoqhona yoki boshqalar bilan taminlanganlik)ning sifat darajasini baholash oson. Lekin oliy ta'limda u boshqa jarayonlarda kechadi, chunki unda xizmatning mazmuni deganda, o'qitish va o'rganish jarayoni hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabat va muloqot bo'lib qolmoqda. Ishlab chiqarishdan farqli o'laroq, oliy ta'limda xizmat ko'rsatish yoki ishlab chiqarish jarayoni talaba va o'qituvchi o'rtasidagi uyg'unlikda aks etadi. Shuningdek, oliy ta'limdagi sifat mezonlarini faqat talabaning talab va istaklari belgilamaydi, balki oliy ta'limda rahbariyatni ta'lim jarayoni sifati qiziqtirsa, talaba, ota-ona va buyurtmachilarni esa ta'lim natijalari sifati ko'proq qiziqtirishi mumkin. Oliy ta'lim va uning mijozni borasida O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi manbalarda ishlab chiqarish kadrlar tayyorlash tizimida buyurtmachi va iste'molchi funksiyalarini bajarib, tegishli sohalar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonida faol ishtirok etishi ta'kidlangan.

Sifatni belgilash va baholash ham har doim bahs munozalar ichida bo'lib kelgan. K.Kampbel va K.Roznialarning: «Sifat baholanmaydi va o'lchanmaydi, balki ilm ahli tomonidan sifatning qayerda va qachon taminlanishi tan olinadi» degan talqini ham mavjud va u ham turli munozaralarning yana ham kuchayishiga sabab bo'ladi. Britaniyalik mualliflar N.Jakson va X.Lund oliy ta'limdagi sifatni baholash masalalariga yondashishda «kontseptual tizim»ga asoslanadilar.

Ushbu tizim oliy ta'limning asosiy mohiyati va funksiyalaridan tashkil topgan bo'lib, ular «Kirim va resurs» (Input), «Jarayon» (Process), «Natija va maqsad» (Output) kabi ketma-ket ta'sir qiluvchi bo'limlarga bo'lingan. Sifatni belgilovchi «Kirim va resurs» bo'limida ta'lim jaryonini yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan barcha resurs turlari hisobga olingan. «Jarayon»ning samarali olib borilishi va «natija»ga erishishda resurslar sifatiga va andozaga mos kelishiga alohida ahamiyat beriladi. Umuman olganda, «Kirim va resurs», «Jarayon», «Natija va maqsad» elementlari ta'lim tadqiqotlarining asosi hisoblanib, aksariyat adabiyotlarda keng yoritilgan. Norvegialik mualliflar Y.Cheng va V.Tam ham ushbu elementlar asosida oliy ta'lim sifatini belgilash kerak deb biladilar. Ctandardlar ham shu bo'limlar bo'yicha belgilanishi ta'kidlangan. Ular D.Grın fikrlariga qo'shilgan holda, sifatni belgilashda oliy ta'limdan manfaatdor guruhlar, yani «mijoz»lar tomonidan kutilajak talab va istaklar asosida amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlaydilar. CHeng va Tam manfaatdorlarni ichki va tashqi guruhlariga bo'lib, ichki guruhni oliy ta'lim muassasasi talabalari, o'qituvchilari, ishchi-xodimlari tashkil etsa, tashqi guruhni vazirliklar, davlat va xususiy tashkilotlar, organlar va talaba bo'lishni istovchi yoshlardan iborat deb biladilar.

Turli mintaqa va mamlakatlarda ta'lim sifatiga qiziqishning o'sib borishi o'ziga xos tarzda kechdi. Bunga jamiyatda, fanda, iqtisodiyotda globalizatsiya jarayonlarining boshlanishi va misli ko'rilmagan

darajada tez avj olishi asosiy omil bo'ldi. Benchmarking yoki boshqa metod va uslublar barchasi bir maqsad uchun, ya'ni muassasada sifatga erishish va uni ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Oliy ta'limda sifatga erishish uning salohiyatini, iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi kafolatdir.
2. Xorijiy axborot manbalari bo'yicha oliy ta'lim sifati o'rnatilgan me'yorlarga, talablar bo'yicha tayyorlangan kadrlarning mosligidir.
3. Oliy ta'lim muassasalarida sifatni ta'minlovchi tuzilmalar – bu ta'lim sub`ektlari, ta'limning me'yoriy asoslari va ta'lim muhitidir.
4. Xorijiy mamlakatlarda sifatning an'anaviy tushunchasi mijoz (talaba, buyurtmachi)ga yuqori darajada mahsulot (kadr) Yetkazib berish, servis ko'rsatish va imidjga ega bo'lishdir.
5. Xorijiy mamlakatlarda mahsulot (kadr) va servis (talabalarni o'qitish) bo'yicha bir necha qarashlar yuzaga kelganki, ular iqtisodda bo'lsin, ta'limda bo'lsin, muvaffaqiyat bilan qo'llanmoqda.
6. Xorijiy mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalari avtonomiyasining oshib borishi ularda sifatli kadr tayyorlash vazifasini keltirib chiqarar edi. Aks holda bunday oliy ta'lim muassasalari reytingi tushib ketadi va raqobatda o'z o'rnini yo'qotishiga to'g'ri keladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Баркамол авлод орзуси, Т., 2000. 165-бет.
2. Lazăr Vlăsceanu, Laura Grünberg, and Dan Pârlea. (2004). Quality Assurance and Accreditation: A Glossary of Basic Terms and Definitions. Bucharest: UNESCO [ISBN 92-9069-178-6].
3. Каримов А.А., Перегудов Л.В. Основы системы мониторинга и управления качеством высшего образования. Т-2003. Стр. 46., Олий таълим менежменти ва иқтисодиёти. Т-2002. 51-б.
4. Левшина В.В. Развитие методологии создания системы менеджмента ачества вуза// Университетское управление. Архив. 2003, № 2, стр.1.
5. Наймушин А.И. Структура системы управления качеством образования. Основные направления развития.
6. Интернет янгиликлари //Ахборот технологиялари ва масофавий ўқитиш маркази ахборотномаси, 2004, Январь, 7-б.
7. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури //Олий таълим, “Шарқ”: Т., 2001, 29-б.
8. Миркурбанов Н.М, Аношкина В, Данилова-Кросс Е. высшее образование в Узбекистане: состояние и рекомендации. /Аналитическая записка, 2009. № 1 (12), [www.undp.uz/publications](http://www.undp.uz/publications)
9. Green, Diana, ed. (1994). What is Quality in Higher Education? Society for Research into Higher Education, Ltd., London (England). p1-21.
10. Maureen Brookes, Nina Becket (2007). Quality Management in Higher Education: A Review of International
11. Issues and Practice /The International Journal for Quality and Standards. P1-10.

#### **KIMYO FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH**

Karimova Feruza Sattarovna, talaba G'oziboyev Murod Botir o'g'li, talaba Saydullayev Suxrob Shavkat o'g'li

Jizzax politexnika institute, O'zbekiston

E-mail: [f.karimova.85@mail.ru](mailto:f.karimova.85@mail.ru)

**Annotatsiya:** Kimyo fanining ilmiy asoslarini chuqur o'rgangan va mukammal biladigan avlodni tarbiyalash natijasida kelajakda ko'plab ekologik, texnologik, oziq-ovqat va ishlab chiqarishning boshqa sohalaridagi qator muammolar o'z yechimini topishiga olib keladi.

**Kalit so'zlar:** intellekt xarita, kontekst matnli topshiriq, metod, kompetensiya, o'qitish, didaktika, kreativlik, aqliy harakat, idrok.

**Abstract:** In the future, as a result of educating the younger generation, who have thoroughly studied and perfectly mastered the scientific foundations of chemistry, they will help to solve many environmental, technological, food and a number of other production problems.

**Keywords:** mind map, contextual text task, method, competence, training, didactics, creativity, mental action, perception.

Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida, jumladan kundan-kunga ilm fan, san'at, texnika-texnologiyalar va ishlab chiqarish sohalari rivojlanayotgan yurtimizda ham, ta'limning asosiy boshlang'ich bo'g'ini sanalgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha fanlar, xususan tabiiy fanlar sirasiga kiradigan, zamonaviy ishlab chiqarishning va kundalik hayotimizning asosini tashkil etadigan kimyo fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish, darslarda yangicha innovatsion texnologiyalar va ilg'or ta'limiy metodlarni qo'llashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Keyingi yillarda jahonning bir qator taraqqiy etgan mamlakatlari, jumladan, AQSH, Germaniya, Xitoy, Rossiya, Koreya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Yaponiya kabi davlatlarda barcha tabiiy fanlar qatorida kimyo fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish, nazariya va amaliyotni uyg'un tarzda olib borish, "Bilish - tushunish - amaliyotda qo'llash" ketma-ketligi uzviyligi asosida o'qitishni tashkil qilish, darslarni qiziqarli tarzda olib borish va motivatsiyani rivojlantirish uchun o'quvchi yoshi va qiziqishlariga mos tarzda tanlangan didaktik o'yinlardan foydalanish sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan ishlarda o'z aksini topmoqda. Kimyo fanining ilmiy asoslarini chuqur o'rgangan va mukammal biladigan avlodni tarbiyalash natijasida kelajakda ko'plab ekologik, texnologik, oziq-ovqat va ishlab chiqarishning boshqa sohasidagi qator muammolar o'z yechimini topishiga olib keladi. Shunday ekan, o'quv fanlarining integratsiyasiga asoslangan ta'limiy texnologiyalarning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish jarayonini yaxshilash natijasida o'quvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish kimyo fanini o'qitish jarayonini yaxshilashga xizmat qiladigan eng asosiy muammolardan biridir.

Kimyo fanini o'qitish, kimyo o'qitish metodikasini fan sifatida shakllanishida rossiyalik metodist olimlardan V.N.Veroxovskiy, P.P.Lebedeva, L.M.Smorgonskiy, Ya.L.Goldfarb, Yu.B.Xodakov, S.G.Shapovalenko, L.A.Svetkova, I.N.Chertkova, V.S.Polosina, V.P.Garkunova, N.E.Kuznetsova, D.M.Kiryushkina, G.I.Shelinskiy, M.S.Pak, O.S.Gabrielyan va boshqalar o'z hissalarini qo'shganlar. Ushbu metodist olimlar tomonidan ilk o'quv-metodik materiallar komplekslari, o'quv darsliklari, mashq daftarlari va o'qitish jarayonida qo'llashga mo'ljallangan boshqa didaktik manbalar tayyorlangan [1;19-76]. Pedagogik texnologiyalardan ta'lim sifatini oshirish jarayonida foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish, ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish, darslarda guruhli va individual usullarni qo'llash borasida respublikamiz olimlaridan H.T.Omonov, N.Azizxo'jaeva, Z.Mamajonova, N.X.Xo'jaev, S.A.Madyarov, E.U.Eshchanov, O'.Q.Tolipov, M.Usmonboeva, M.B.Xattabovlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Kimyo fanini va uning bo'limlarini o'qitishda didaktik materiallarni ishlab chiqish va qo'llash haqida, kimyo ta'limini samarali tashkil qilish va boshqarish usullari, kimyo fanini o'qitishda algoritmlar va dasturlardan foydalanish, kimyo ta'limini tashkillashtirish shakllari, kimyo o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi, kimyo darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning nazariy asoslarini o'rganish bo'yicha chet el olimlaridan E.G.Polupanenko, V.A.Kuzurman, I.V.Zadorojniy, E.E.Minchenkov, M.S.Pak, D.K.Bondarenko, S.S.Kosmodemyanskaya, S.I.Gilmanshina kabilarning ishlari diqqatga sazovordir [2;3-4]. Rus maktablarida kimyo o'quv kursining shakllanishida G.M.Chernoblskaya va N.E.Kuznetsovaning xizmatlari beqiyosdir. P.A.Orjekovskiyning fikricha: "Rivojlanish-faol va ongli faoliyat natijasida paydo bo'ladigan qabul qilish, fikrlash, tasavvur qilish, xotira kabi shaxsning bilish jarayonining ijobiy o'zgarishlaridir." Rivojlantiruvchi ta'limning asoslari, jumladan olingan bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash jarayonida rivojlantiruvchi ta'limning ahamiyati mashhur psixolog L.S.Vigotskiy tomonidan izohlab berilgan [4; 2-5]. Kimyo fani uning bo'limlarini o'qitish metodikasining O'zbekistonda o'rganilish jarayonini tahlil qilar ekanmiz, so'nggi yillarda professor H.T.Omonov kimyo fanini o'qitish metodikasi sohasini rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Qolaversa, o'zbekistonlik olimlardan A.Mamajonov, J.Fayozov, T.Gulboyev, G'.Boymurodov, M.Umarov,



A.Azimov, Sh.Quvvatov, J.Mamajonov, F.Alimova va L.Zaylobovlar kimyo fanini o'qitishni takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlarni olib borganlar.

Yuqorida keltirilgan olimlar va ular tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilar ekanmiz, ularda kimyo fanini o'qitish shakllari, kimyo darslarida qo'llash mumkin bo'lgan usullar va ularning ahamiyati izohlanganligini, o'quvchilar bilimni baholash bo'yicha qator qimmatli fikrlar berilganligini qo'rishimiz mumkin bo'ladi. Lekin kimyo fanini o'qitish borasida qator kam tadqiq etilgan, ushbu yo'nalishlar borligini ham ta'kidlash zarur: 1.Kimyo fanini o'qitish jarayonining psixologik asoslari etarlicha tahlil qilinmagan, aynan ana shu yo'nalishda kerakli tavsiyalar keraklicha ishlab chiqilmagan. Darsning samarali bo'lishida o'qituvchining o'quvchi psixologiyasini chuqur bilishi, uning kayfiyatiga yaxshi ta'sir o'tkazib, unda faqat ijobiy emotsiyalarni yuzaga keltirish orqari motivatsiyani oshirib, qiziqishni rivojlantiradigan texnologiyalarni takomillashtirish va yangilarini ishlab chiqib, ulardan darslarda foydalanish lozim. 2.Bugungi kunda kimyo fanidan o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni aniqlash va bartaraf etishning zamonaviy, samarali usullari kam o'rganilgan.

Pedagogik tadqiqotlar natijasida shaxs manbani o'zi mustaqil o'qiganida 10%, ma'lumotni eshitganda 20%, sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rganida, ular to'g'risida ma'lumotlarni eshitganda 50%, ma'lumotlarni o'zi uzatganida 80%, o'zlashtirilgan bilimlarni o'z faoliyatiga tadbiiq etganida 90% ma'lumotlarni yodda saqlash imkonini berishi aniqlangan. [ 6;5-6]. Bu holat umumiy, barcha fanlar uchun bo'lib, aynan kimyo fani uchun tahlillar olib borilmagan. Kimyo fanining murakkab fanligini inobatga olsak, jarayon yanada chuqurroq tahlil qilinsa zarar bo'lmasdi. Hozirda ta'lim jarayonida eng ustuvor sanalgan texnologiyalardan, muammoli ta'lim texnologiyasi asosan o'quvchilarga mavzularni qiziqarli tarzda tushuntirish, mustahkamlashga imkon beradi. Biroq o'quvchi bilimni tezkor va yoppasiga baholash jarayonida test usullari juda samarali sanaladi.(4;40-45). Kimyo fanini o'qitish jarayonida testlarning yangicha ko'rinishlarini ishlab chiqish, mavjud testlarni takomillashtirish, testlarni vaziyatli, muammoli, rasmlil, jadvalli topshiriqlar bilan uzviylashtirish lozim.

Kimyo darslarining samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish muammosi xorijiy va yurtimiz pedagoglari tomonidan juda keng o'rganilgan bo'lib, shu yo'nalishda turlicha yutuqlarga erishilgan [5]. Shu bilan birga, shu kungacha yaratilgan metodlar va texnologiyalarni zamon talabiga moslashtirish uchun ularni biroz o'zgartirish, takomillashtirish lozim. Bunda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va kreativ fikrlash jarayonini rivojlantirishga urg'u berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Omonov H.T., Xattaboev M.B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: (Iqtisod - Moliya), 2016 – 200 b.
2. Pak M.S., Bondarenko D.K. Didakticheskiy material v obuchenii ximii.- Sankt-Peterburg:(Osipova), 2013 – 45 b.
3. Kuzurman V.A., Zadorojniy I.V. Metodika prepodovaniya ximii.- Vladimir:(VLDU), 2017 – 88 b.
4. Seirbhis Tacaiochta, Dara Leibseal. Using Graphic Organisers in Teaching and learning. (Castello Print Navan), SLSS 2008. 64 p.
5. Karimova F., Mullajonova Z. S. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda milliy qadriyatlarimizning orni //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 2.

#### **BO'LAJAK MUHANDISLARNING O'ZBEK TILI AMALIY MASHG'ULOTLARIDA TIL VA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

K

Namangan shahrida Dilfuza Shermatova O'zbekiston  
E-mail: [shermatovadilfuza57@gmail.com](mailto:shermatovadilfuza57@gmail.com) telefon: +998945060858

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek tiliga doir nutqiy faoliyat, til imkoniyatlaridan foydalanish, oliy ta'limning texnika yo'nalishi talabalarida nutqiy savodxonlik va madaniyat, o'zbek tili darslarida o'qituvchi va o'quvchilarda nutq, muloqot haqida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy o'quv - texnik vositalar, musobaqa darslari, bahs-munozara darslari, axloqiy-ma'naviy tarbiya, didaktik maqsad.

**Аннотация:** Статья содержит комментарии по узбекской речевой деятельности, использованию языковых возможностей, речевой грамотности и культуре студентов технических вузов, речи и общению преподавателей и студентов на уроках узбекского языка.

**Ключевые слова:** Современные учебно-технические средства, конкурсные занятия, дебатные занятия, нравственно-духовное воспитание, дидактическое назначение.

**Annotation:** The article contains comments on Uzbek speech activity, use of language opportunities, speech literacy and culture of technical students of higher education, speech and communication between teachers and students in Uzbek language classes.

**Key words:** Modern educational-technical means, competition classes, debate classes, moral and spiritual education, didactic purpose.

Nutqiy faoliyatda har bir til hodisasining o'z o'rni, o'z vazifasi bor. Yoshlar til imkoniyatidan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo'lishlari, o'z fikrini aniq ifodalashga, zarur bo'lgan so'z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarni tanlay va qo'llay bilishlari davr talabidir. Buning uchun ona tili o'qituvchisi o'z ixtisosligini puxta bilishi, ilg'or pedagogik texnologiya hamda zamonaviy o'quv-texnik vositalaridan yaxshi xabardor bo'lishi lozim. Shundagina ta'lim samarasi ham, o'qitish darajasi ham yuqori bo'ladi.

Oliy ta'lim texnika yo'nalishlarida ham ona tilidan dars beruvchi o'qituvchi haqiqiy ijodkor bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, alohidaliklarga ajratish va tasnif qilishga yo'naltirilgan faoliyatini rag'batlantirishi, o'z fikri, g'oyalarini o'zgalarga yetkaza bilish ko'nikma va malakalarining shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi dardkor. Shuningdek, u yoshlarning axloqiy-ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanishi, ularga sharqona muloqot odobi, milliy an'analarimizga hurmat, ona Vatanga muhabbat tuyg'usi kabi zaruriy xislatlarni singdira bilishi lozimligi ta'kidlanadi, ilmiy adabiyotlarda[1].

Bugungi davr zamonaviy dars turlari va shakllari qanday ko'rinishga ega? Ma'lumki, an'anaviy yo'nalishdagi dars didaktik maqsadiga ko'ra: yangi bilimlarni o'zlashtirish; o'rganilgai bilimlarni amaliy tatbiq etish orqalimustahkamlash; o'tilganlarni takrorlash; bilim va malakalarni mustahkamlash; talaba bilimni nazorat qilish va baholash; ularni bir tizimga keltirish kabi turlarga ega ekanligi o'zbek pedagogikasi fanining va o'zbek tili o'qitish sohasining bosh yo'nalishi hisoblanadi.

Ammo insoniyatning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti, ilmu-fan sohalaridagi, jahon pedagogikasidagi yangi-yangi yutuqlar ta'limning asosiy vositasi bo'lgan dars (mashg'ulot) va uning turlarining ko'payishiga, takomillashuviga olib keldiki, endilikda darslarning yangi tiplari va shakllari haqida qator ilmiy-metodik ishlar mavjudligini hisobga olib, ular haqida to'xtab o'tish joiz hisoblanadi[2].

Ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy-innovatsion darslarning tur va shakllarini tashkil etish, talabaning ta'limdagi mavqeyi o'rni, lisoniy jarayonlarga yangicha yondashuv, yangicha munosabatni ta'minlaydi. Darsdagi innovatsion texnologiyalar asosidagi jarayonlar o'qituvchining mohirlik va idrok bilan mashg'ulot boshqaruvidir.

Zamonaviy darslar va undagi pedagogik texnologiyalar asosidagi dars turlarining o'ziga xos tomonlari quyidagilardir:

*Musobaqa darslari.* Ona tili ta'limida musobaqa darslarini o'tkazishdan maqsad o'quvchining til darsida olgan bilimlarini sinab ko'rish, o'zaro munozara-muloqot jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana bilish, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini, muammoli vaziyatlardan chiqa olish malakasini baholashdan iboratdir.

Musobaqa darslari o'quvchilarda faollik, topqirlik, zukkolik fazilatlarini shakllantiradi, ularni mustaqil ijodiy mushohada uyritishga odatlantiradi, zarur va foydali ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi.

Samarali dars shakllaridan biri bo'lgan musobaqa darsi til mashg'ulotlarining qiziqarli o'tishi va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi vositadir[3].

Musobaqa darslari uchun mavzular: «Kasbimga oid men bilgan soʻzlar siri», «Talaffuzi va yozilishi qiyin soʻzlar», «Tinish belgilari – mazmundir», «Atamalar anjumani», «Quvnoqlar zakovati» va boshqa bir talay darslar.

*Bahs-munozara darslari.* musobaqa darslarida yechib ulgurilmagan, biror toʻxtamga kelinmagan masalalarni oydinlashtirish, toʻgʻri, aniq hukm va muxtasar xulosalar chiqarishi bilan farqlanadi. Bahs-munozaralar oʻquvchilardan xushyorlikni talab etadi. U mustaqil va jadal fikrlashga, hozirjavoblikka, aytilgan fikrning toʻgʻri yoki notoʻgʻriligi haqida oʻylashga va oʻz fikrini mantiqli va izchil isbotlashga oʻrgatadi. Oʻzaro tortishuv va bahs oqibatida eng toʻgʻri va maʼqul yechimga kelinadi. Oʻquvchi bahs-munozara orqali qarshi tomonning ishonarli dalillarini tinglaydi, oʻz «men»ini anglab etadi, oʻz dunyoqarashi, ilmiy-ijodiy tafakkuri koʻlami, haq yoki nohaq ekanligi toʻgʻrisida, oʻzi mustaqil xulosa chiqaradi. Oʻz fikrini himoya qilish uchun turli usul va vositalarni ishga solish, ijodiy fikrlash, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishga oʻrganadi.

Bahs-munozara darsini samarali oʻtkazish uchun talabalar muhokama qilinadigan matn yoki mavzu boʻyicha keng tushunchaga ega boʻlishlari, uni yaxshi oʻqib, oʻrganib chiqqan boʻlishlari darkor, deya taʼkidlanadi pedagogik ilmiy adabiyot va tadqiqotlarda[4].

Bunday mashgʻulotlarda talaba: *fikrlovchi, ishlovchi, izlanuvchidan* tashqari, *nazorat qiluvchi* vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun oʻqituvchi talabalardan bahs-munozara darsining qoʻyidagi talablarini benuqson bajarishini talab va nazorat ostiga oladi.

Zamonaviy darslar va undagi pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslarni tavsiyaviy talablar asosida tashkil qilinsa, dars samarasi oshadi, talabada nutniy madaniyat shakllanadi.

Onatili metodikasida ilgʻor pedagogik texnologiyaga asoslangan dars turlari til taʼlimi samaradorligini oshiribgina qolmay, uning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Dars mashgʻulotlarini rang-barang zamonaviy texnik vositalar ishtirokida tashkil qila olgan oʻqituvchi qisqa vaqtda oʻquvchilarning egallagan bilimi, doʻstlariga munosabati, muomala madaniyati, fikr doirasi, soʻz boyligi, nutqiy salohiyati haqida aniq tasavvurga ega boʻladi. Ilgʻor texnologiyaga asoslangan darslar oʻquvchi va oʻqituvchi oʻrtasida teng, doʻstona munosabat qaror topishiga sharoit yaratadi. Talaba mashgʻulotda oʻzini erkin his qiladi, mashgʻulotlarga qiziqishi, soʻz sanʼati bilan shugʻullanishga, ijodga ragʻbati ortadi.

Ilgʻor pedagog-metodist oʻqituvchilarimiz dars samaradorligini oshirishning yangi-yangi vositalarini oʻylab topmoqdalar. Ularni zamonaviy oʻquv texnika vositalariga tayanib, dars jarayoniga tatbiq etish usullarini ishlab chiqmoqdalar.

Bundan tashqari, yangicha yondashuvlar asosidagi taʼlim texnologiyalaridan biri til mashgʻulotlarini olib borishni rejalashtirishda “Oʻquvchi-Taʼlim-Oʻqituvchi” tizimiga asoslanishdir. Oliy taʼlimning texnika yoʻnalishi talabalarining ushbu tizim orqali faoliyat yuritish ham katta samara beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1. Тўхлиев Б. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 9-10[1].
2. Розиков О. Ўзбек тилидан дарс типлари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1976; Рафиев А., Ғуломов Н. Келдиёров Р. Ўзбек тили ва адабиётидан дарс турлари. – Тошкент, 1999[2].
3. Sharopova Z. F. taʼlim texnologiyalari. Darslik. - Toshkent: Navroz, 2019. 340 bet\$ Юрьева Л.Н. Дифференциальная диагностика психопатий и акцентуаций характера лиц призывного возраста. – Москва, 1987; А. Ғуломов, Г. Неъматов. Она тили таълим мазмуни. – Тошкент, 1996.
4. Юсупова Ш. Она тили таълими самарадорлигини ошириш ва илғор педагогик технологияларни жорий этиш. Пед. фан. Номз. ... дисс. – Тошкент: ТПДИ, 1998. – 137 б; Юсупова Ш. Академик лицей ўқувчиларини фаоллаштиришда интеграциянинг ўрни. Илмий тўплам. – Тошкент, 2005. Б.182-183.[3]
5. А. Ғуломов, Г. Неъматов. Она тили таълим мазмуни. – Тошкент, 1996; Юсупова Ш. Она тили таълими самарадорлигини ошириш ва илғор педагогик технологияларни жорий этиш. Пед. Фан. Ном-ди дисс. – Тошкент: ТПДИ, 1998. – 137 б.; Она тили ўқитиш мазмуни: (Она тили ва адабиёт ўқитувчилари учун “Ҳозирги ўзбек адабий тили” дарслигидан услубий кўлланма). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 148. 37-6\$ Sharopova Z. F. taʼlim texnologiyalari. Darslik. -

Toshkent: Navroz, 2019. 340 bet[4].

6. Shermatova D.Ya. “Texnika oliy ta’limida o’zbek tili va soha ta’limi integratsiyalashuvi”., NamMQI, xalqaro konferensiya -2022-yil,274-277- b. 5.Shermatova D.Ya., “Texnika yo’nalishi talabalari o’zbek tili nutqini o’stirishning zamonaviy texnologiyalari”., NamMQI, xalqaro konferensiya.-2022-yil., 274-277-b.

7. Shermatova D.Ya “Texnika yo’nalishida ta’lim olayotgan talabalarda til kompetensiyasini shakllantirishning ahamiyati”., NamMQI, respublika konferensiya.-2022-yil., 366-370-b.

## **MUTAXASSISLIK FANLARINI O’QITISHDA INNOVATSION VA ILG’OR TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, O’zbekiston

E-mail: [khalmamatoval@mail.ru](mailto:khalmamatoval@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarning kasbiy faoliyatni tushunishga ijodiy yondashuvini shakllantirishga yordam beradigan faol o’qitish usullariga asoslangan innovatsion ta’lim texnologiyalari muhokama qilinadi, fikrlash mustaqilligini, muayyan vaziyatda maqbul qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari universitet talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish misolida ko’rib chiqiladi.

**Kalit so’zlar:** innovatsiya, ta’lim, innovatsion faoliyat, novatsiya, konseptual yondashuv, metod, tadqiqot, instrumental va texnologik bilimlar, kommunikativ qobiliyat.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются инновационные образовательные технологии, основанные на активных методах обучения, которые помогают формировать у студентов творческий подход к осмыслению профессиональной деятельности, развивают самостоятельность мышления, способность принимать оптимальные решения в конкретной ситуации. Возможности использования инновационных технологий рассматриваются на примере организации самостоятельной работы студентов вуза.

**Ключевые слова:** Инновации, образование, инновационная деятельность, инновации, концептуальный подход, метод, исследования, инструментальные и технологические знания, коммуникативные способности.

**Annotation:** This article discusses innovative educational technologies based on active teaching methods that help students to form a creative approach to understanding professional activities, develop independence of thinking, and the ability to make optimal decisions in a specific situation. Possibilities of using innovative technologies are considered in the example of organizing independent work of university students.

**Key words:** Innovation, education, innovative activity, innovation, conceptual approach, method, research, instrumental and technological knowledge, communication skills.

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishga nisbatan katta talab qo’yilmoqda. O’zbekiston Respublikasining Ta’lim to’g’risidagi Qonunida ta’kidlanganidek, bugungi kunda jamiyatda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga bo’lgan ehtiyoj mavjud bo’lib, uni qondirish masalasi tobora dolzarblik kasb etayotgan bir vaqtda kafolatlangan ta’lim xizmatlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Kafolatlangan, samarali natijaga asoslangan ta’lim tizimigina malakali kadrlarni tayyorlab bera oladi. Shu sababli ayni vaqtda pedagogik texnologiyalarni yanada takomillashtirish, innovatsion xarakterdagi texnologiyalarni yaratish va ularni ta’lim amaliyotida samarali, faol qo’llash talab etilmoqda.

Pedagogik jarayonda qo’llaniladigan innovatsion texnologiyalar o’z mohiyatiga ko’ra shaxsga individual yondashuv masalasini ilgari suradi. Shaxsning individualligiga asoslangan uning faolligini oshirish, qobiliyatlarining to’laqonli namoyon bo’lishini ta’minlash, ma’naviy-axloqiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish sanaladi. Shu bilan birga innovatsion xarakterdagi texnologiyalar har bir shaxs uchun tanlash va erkin rivojlanish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.



Innovatsion harakterga ega pedagogik texnologiyalarning amaliy didaktik va texnik imkoniyatlari haqida soʻz yuritish dastlab “innovatsiya” tushunchasi mohiyatini anglab olishni taqozo etadi.

Lugʻaviy jihatdan “innovatsiya” (“innovation”) tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda “yangilik yaratish” degan maʼnoni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida “innovatsiya” tushunchasi muayyan tizimining ichki tuzilishini oʻzgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi.

Darhaqiqat, innovatsiya (yangi) lotin tilida 17-asrning oʻrtalarida paydo boʻlgan va maʼlum bir sohaga yangining kirishi, unga implantatsiyasi va bu sohada butun bir qator oʻzgarishlarning paydo boʻlishini anglatadi. Bu shuni anglatadiki, innovatsiya, bir tomondan, yangilik yaratish, amalga oshirish, amalga oshirish jarayoni boʻlsa, ikkinchi tomondan, u umuman obʼekt emas, balki yangilikni maʼlum bir ijtimoiy amaliyotga aylantirish faoliyatidir.

Innovatsiyaning asosiy koʻrinishlari quyidagilardan iborat:

- yangi gʻoyalalar;
- tizim yoki faoliyat yoʻnalishini oʻzgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noanʼanaviy yondashuvlar;
- odatiy boʻlmagan tashabbuslar;
- ilgʻor ish uslublari.

Taʼlim innovatsiyalari - uzluksiz taʼlim sohasi yoki oʻquv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qoʻllanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Barcha sohalarda boʻlgani kabi taʼlimda ham “novatsiya”, “innovatsiya” hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat toʻgʻrisida soʻz yuritiladi.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega boʻlib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni oʻzgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu faoliyat maʼlum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan oʻzgartirishga xizmat qilsa, u holda u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi.

Taʼlim innovatsiyalari quyidagi oʻzgarishlarni olib keladi:

- pedagogik tizimning taomila oʻzgarishi;
- oʻquv jarayoning oʻzgarishi;
- pedagogik nazariyaning oʻzgarishi;
- oʻqituvchi faoliyatining oʻzgarishi;
- talaba faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning oʻzgarishi;
- taʼlim mazmuning yangilanishi;
- oʻqitish shakl, metod va vositalarning oʻzgarishi;
- taʼlim tizimi boshqaruvining oʻzgarishi;
- taʼlim maqsadi va natijalarning oʻzgarishi.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning anʼanaviy meʼyorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan gʻoyalarning mavjud gʻoyalarni inkor etish natijasida vujudga keladigan majmualiy muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.

Innovatsion faoliyat oʻzining eng toʻliq rivojlanishida oʻzaro bogʻliq boʻlgan ish turlari tizimini oʻz ichiga oladi, ularning umumiyliigi haqiqiy innovatsiyalarning paydo boʻlishini taʼminlaydi. Aynan:

- biror narsa qanday boʻlishi mumkinligi (“kashfiyot”) va biror narsaning qanday amalga oshirilishi (ixtiro) haqida yangi bilim olishga qaratilgan tadqiqot faoliyati;

- ilmiy bilimlar asosida maʼlum sharoitlarda nima boʻlishi mumkin yoki boʻlishi kerak boʻlgan narsani olish uchun qanday harakat qilish kerakligi haqidagi maxsus, instrumental va texnologik bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan loyiha faoliyati (“innovatsion loyiha”);

- maʼlum bir amaliyot subʼektlarining kasbiy malakasini oshirishga, innovatsion loyihani amaliyotga tatbiq etishi uchun nima va qanday qilish kerakligi haqida har bir shaxsning shaxsiy bilimlarini (tajribasini) shakllantirishga qaratilgan taʼlim faoliyati (“amalga oshirish”).

Bugungi kunda "innovatsion ta'lim" nima? - bu o'z-o'zini rivojlantirishga qodir bo'lgan va uning barcha ishtirokchilarining har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratadigan ta'lim; shuning uchun asosiy tezis; innovatsion ta'lim ta'limni rivojlantirmoqda va rivojlantirmoqda.

"Innovatsion ta'lim texnologiyasi" nima? Bu o'zaro bog'liq bo'lgan uchta tarkibiy qismdan iborat:

Talabalarga uzatiladigan zamonaviy kontent nafaqat fan bilimlarini rivojlantirishni, balki zamonaviy biznes amaliyotiga mos keladigan kompetensiyalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu tarkib yaxshi tuzilgan bo'lishi va zamonaviy aloqa vositalaridan foydalangan holda uzatiladigan multimedia o'quv materiallari shaklida taqdim etilishi kerak.

Zamonaviy o'qitish usullari - bu nafaqat materialni passiv idrok etish, balki o'quvchilarning o'zaro ta'siri va o'quv jarayoniga jalb qilish asosida kompetensiyalarni rivojlantirishning faol usullari.

Masofaviy ta'lim afzalliklaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlarini o'z ichiga olgan zamonaviy ta'lim infratuzilmasi.

Hozirgi vaqtda ta'limda turli xil pedagogik innovatsiyalardan foydalanilmoqda. Bu, birinchi navbatda, muassasaning an'analari va maqomiga bog'liq. Shunga qaramay, quyidagi eng xarakterli innovatsion texnologiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat.

Pedagogning innovatsion faoliyati: yangilikni qo'llashga tayyorligi; pedagogik yangiliklarni qabul qilishi; novatorlik darajasi; kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi; ijodkorligi bilan belgilanadi. Pedagog qanchalik tajribali, bilimli, notiq bõlsa u talabalarga shunchalik bilim bera oladi va ularni õz mutaxassislik fani bõyicha yangi texnologiyalardan foydalanib, talabalarni qiziqishlari oshiradi.

Mutaxassislik fanlarini õqitishda innovatsion texnologiyadan foydalanib psixologiya fanida talabalar õrtasida eksperiment õtkazdim. Yangi innovatsion texnikadan foydalanish mavzu tushuntirishning samarali usullaridan biri bõldi. Talabalar õrtasida bahs munozara usulida olib borilgan usul yaxshi natija berdi. Talabalar yangicha fikrlash, mavzuning ijobiy yoki salbiy tomonlarini munozara usulida olib borishni õrgandilar. Bu yangi usul orqali talabalarning ongidagi õzlari bilmaydigan qirralarni kashf etdik. Talabalar har bitta muammo haqida chuqur izlanishlar olib bordilar va muammoga yechim topdilar. Biz hattoki, darsga befarq bõlgan talabarni ham õz usullarimizga qiziqтира oldik.

V.Slastenning fikriga ko'ra innovatsion yondashuv: ijodiy faollik; faoliyatga yangilik kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik; yangicha fikrlash; yuksak muomala madaniyatiga ega bo'lishni ifodalaydi.

Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayoniga tatbiq etish bir necha bosqichlarda kechadi. Ular quyidagilar:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
2. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash.
3. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

Pedagoglarning tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi. Pedagoglarning zamonaviy innovatsion usullaridan foydalanishlari murakkab jarayonlarni oson yõl bilan hal etish imkonini yaratdi.

Bu jarayon uzluksiz bo'lib, ta'lim uzluksiz tizimida dars berayotgan barcha o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, xorijiy va ilg'or tajribalarni o'rganishi va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etishi asosda amalga oshiriladi.

Jumladan, o'quvchilarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni dastlab umumta'lim maktablarida "Texnologiya" fanini o'qitishda, so'ngra kasb-hunar va oliy ta'lim mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Ushbu jarayonning uzluksizligini ta'minlash ta'lim tizimlari o'rtasida o'zaro uzviylik va izchillilikni ta'minlash masalasini ilgari suradi.

Xulosa, qilib aytadigan bõlsak nafaqat mutaxassislik fanlari balki barcha fanlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish kerak. Har bitta pedagog dars õtishda yangi texnologiyalardan foydalansa, bu talabarga mavzu tushuntirishda juda ham samarali bõladi. Talabalar õzlari qiziqmaydigan

mavzuga ham qiziqish bildirishlari mumkin. Bu talabalar uchun mavzu o'zlashtirishda ham ancha yuqori yutuqlarni kashf etadi desak, mubolaga bo'lmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi/ Met.qo'll. -Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
2. Modern Innovations, Systems and Technologies" - "Sovremennye innovatsii, sistem i texnologii" (setevoye izdaniye) izdayotsya redaktsiyey OOO "Sibirskiy nauchny tsentr DNIT" s 2021 goda.
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo/ Ucheb. posobiye dlya magistrrov vsex spetsialnostey. – Tashkent: TGPU, 2003. – 193s.
4. Raximov O.D., Turgunov O.M. va b. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. /Toshkent, «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2013y, 170b.
5. Atabayeva K. R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati // Molodoy ucheny. — 2017. — №24.1. — S. 7-9.
6. Polat YE.S., Buxarkina M.YU. Sovremennye pedagogicheskiye i informatsionnye texnologii v sisteme obrazovaniya. M.: «Akademiya», 2008

**OLIY TA'LIMGA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TADBIQ ETILISHI**

Talaba, Ergasheva Dinora Asqar qizi, talaba Mo'minov Shoxruh Akmal o'g'li, Karimova Feruza Sattarovna

Jizzax politexnika insitituti, O'zbekiston

E-mail: [f.karimova.85@mail.ru](mailto:f.karimova.85@mail.ru)

**Annatsiya:** Maqolada mahalliy va xorijiy pedagogik adabiyotlarda integratsiya tushunchasini aniqlashning turli yondashuvlari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Integratsiya, kooperativ kurslar, pedagogika.

Asosiy matn, hozirgi vaqtda zamonaviy ta'lim sharoitida o'qitish usullari ta'lim maqsadlarini o'zgartirish, kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida qurilgan yangi avlod davlat ta'lim standartini ishlab chiqish bilan bog'liq murakkab davrni boshdan kechirmoqda. Bazaviy o'quv rejasida alohida fanlarni o'rganish uchun soatlar qisqartirilganligi sababli ham qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu holatlarning barchasi fanlarni o'qitish metodikasi sohasida yangi pedagogik izlanishlarni, ta'lim jarayoniga zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq bo'lgan o'qitish va tarbiyaning innovatsion vositalari, shakl va uslublarini izlashni taqozo etadi. O'rta kasb-hunar ta'limining asosiy maqsadi - o'z mutaxassisligi bo'yicha samarali kasbiy faoliyatga qodir, mehnat bozorida raqobatbardosh malakali mutaxassis tayyorlashdan iborat.

O'quv jarayonida talabaning kognitiv va ijodiy faoliyatini amalga oshirish uchun ta'lim sifatini oshirish, o'qish vaqtidan samarali foydalanish va o'quvchilarning reproduktiv faolligi ulushini kamaytirish imkonini beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Uy vazifasi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari yoshi va ta'lim darajasidan qat'i nazar, individuallashtirishga, o'quv jarayonining masofali va o'zgaruvchanligiga, talabalarning akademik harakatchanligiga qaratilgan. Ta'lim texnologiyasi - bu o'quv jarayonini loyihalash, amalga oshirish, baholash, tuzatish va keyinchalik takrorlashning tizimli usuli. Ta'lim muassasalari, xususan, SPEDA o'quv jarayonida qo'llaniladigan ta'lim pedagogik texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Ta'lim jarayoniga ta'lim jarayoniga zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini joriy etish o'qituvchiga bilimning chuqurligi va mustahkamligini ishlab chiqish, faoliyatning turli sohalarida ko'nikma va malakalarni mustahkamlash imkonini beradi; texnologik fikrlashni, o'z ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirish qobiliyatini rivojlantirish; o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda texnologik intizom talablariga qafiy rioya qilish odatlarini tarbiyalash. Pedagogik texnologiyalarning keng ko'lamli qo'llanilishi o'qituvchining o'quv vaqtidan unumli foydalanishi va talabalarning bilim olishida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Fan yo'nalishi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga

yo'naltirilgan mutaxassislarni an'anaviy tayyorlash zamonaviy talablardan tobora orqada qolmoqda. Ta'limning asosi o'quv fanlari emas, balki fikrlash va harakat qilish usullari bo'lishi kerak. Yuqori saviyada tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassisni nafaqat bo'shatish, balki uni yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, muayyan ishlab chiqarish muhiti sharoitlariga moslashtirish, mustaqil ravishda o'qitish bosqichiga ham kiritish zarur. boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Pedagogik faoliyatda innovatsion usullardan foydalanish tajribasiga asoslanib, ularning ayrim afzalliklarini ajratib ko'rsatish mumkin: ular o'quvchilarga yangi bilimlarni o'zlashtirishning faol usullarini o'rgatishda yordam beradi; shaxsiy ijtimoiy faollikning yuqori darajasini o'zlashtirish imkoniyatini berish; ta'lim jarayonida o'quvchilar o'rganmay qolmaydigan sharoitlarni yaratish; talabalarning ijodiy faolligini rag'batlantirish; o'qishni kundalik hayot amaliyotiga yaqinlashtirishga, fan bo'yicha nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni, balki faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishga yordam beradi. Hozirgi bosqichda ta'lim, birinchi navbatda, shaxsni rivojlantirishga, uning faolligi va ijodiy qobiliyatlarini oshirishga, binobarin, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini nazorat qilish usullaridan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan. o'qitishning faol shakllari va usullari, bularning barchasiga qiziqish mavjud bo'lgandagina erishish mumkin. o'quvchilarning fanni o'rganishi. Kognitiv qiziqish - bu o'quv jarayoniga intellektual va hissiy munosabat, o'quvchining o'rganishga bo'lgan intilishi, individual va umumiy vazifalarni bajarish, o'qituvchi va boshqa talabalar faoliyatiga qiziqish. Kognitiv faollashtirish - bu maqsadli o'rganish uchun doimiy motivatsiya jarayoni. Zamonaviy o'qituvchi o'z faoliyatida o'quvchilarning faolligi va mustaqilligini rag'batlantiradigan turli shakllar, usullar, o'qitish vositalarini birlashtirgan holda faollashtirishning turli usullaridan foydalanishi, ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishi kerak. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga oliy ta'lim muassasalariga kirish yoki ishga joylashish uchun yuqori talablar qo'yiladi. Ular murakkab zamonaviy dunyoga moslasha olishlari kerak: ularga nafaqat olgan bilimlari, balki ularni o'zlari topish, hayotda o'zini muvaffaqiyatli o'rnatish uchun har qanday sohada o'zini qobiliyatli odamlar sifatida his qilish, ijodiy fikrlash qobiliyati kerak. O'qituvchi o'z faniga qiziqishini oshirish orqaligina bilim olishda yaxshi muvaffaqiyatlarga erisha oladi. Buning uchun talabalar tomonidan tayyor bilimlarni taqdim etish, ularni yodlash va takrorlash uchun emas, balki faol bilish jarayonida o'quvchilar tomonidan bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda o'zlashtirishga qaratilgan usullar tizimidan foydalanish kerak. faoliyat. Ba'zi an'anaviy o'qitish texnikasi va usullari bu qiziqishning yo'qolishining sabablaridan biridir. Talabalarning fanni o'rganishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish uchun talabalarni amaliy va aqliy faoliyatga undashga hissa qo'shadigan usullardan foydalangan holda o'qitishning an'anaviy usullaridan ham foydalanish zarur; kognitiv qiziqish va qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish; ijodiy fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, innovatsion texnologiyalar elementlari (muammolarga asoslangan, o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim elementlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va boshqalar). Mashg'ulotning muvaffaqiyati va bilimning mustahkamligi o'quvchilarning fanga bo'lgan kognitiv qiziqishlarining rivojlanish darajasiga to'g'ridan-to'g'ri mutanosibdir. Talaba uchun darsning muhim jihatlardan biri bu bilim olishda shaxsiy qiziqish zarurligini tushunishdir, shunda talabalar nafaqat natijada, balki butun o'quv jarayoni davomida o'z kompetensiyalarini his qilishlari mumkin. ta'limning o'quvchi shaxsiga rivojlanishiga ta'siri. Shuning uchun zamonaviy dars maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlar va oddiy shaxslararo aloqalar uyg'unligida qurilishi kerak, shuning uchun darsda shaxsiy muloqot rejasi orqali o'quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari hisobga olinadi: ularning doirasini kengaytirishga tayyorligi. muloqot, kattalar muammolariga hamdardlik, o'zini o'zi tasdiqlash istagi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari qo'yilgan maqsadlarga erishishga yordam beradi, masalan: ta'lim darajasini farqlash texnologiyasi; guruh texnologiyalari; kompyuter o'qitish texnologiyalari; o'yin texnologiyalari; muammoli va tadqiqot o'rganish texnologiyasi; o'quv materialining sxematik va ramziy modellari asosida o'qitishni intensivlashtirish texnologiyalari; hamkorlik pedagogikasi. Shunday qilib, pedagogik texnologiya o'qitishning eng oqilona usullarini o'rganuvchi fan sifatida ham, o'qitishda qo'llaniladigan usullar, tamoyillar va tartibga soluvchilar tizimi sifatida ham, real o'quv jarayoni sifatida ham faoliyat yuritadi. Albatta, har bir o'qituvchi o'z faniga talabalarda chuqur qiziqish uyg'otishini, ular nafaqat o'ylanmasdan ma'ruza yozishni, balki aytilayotgan gaplarni tushunib yetishlarini, mantiqiy fikr yurita olishlarini, har bir dars yuk bo'lmasligini, balki har bir darsning o'ziga yuk bo'lmasligini xohlaydi.



talabalar va o'qituvchi uchun quvonch. O'qituvchi gapiradi, o'quvchi esa tinglaydi va o'rganadi, lekin tayyor ma'lumotni tinglash o'qitishning eng samarasiz usullaridan biri hisoblanadi. Bilimni mexanik ravishda boshdan boshga o'tkazib bo'lmaydi (eshitilgan - o'rganilgan). Shuning uchun o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish zarur. Talaba fanga qiziqish bilan faqat o'z faoliyatida ma'lumotni o'zlashtira oladi. Binobarin, o'qituvchi informator rolini unutishi, u o'quvchining bilish faoliyatining tashkilotchisi, muvofiqlashtiruvchisi rolini o'ynashi, o'quvchi uchun darsda barcha turdagi o'quv va bilish faoliyatini tashkil qilishi kerak. Talabaning o'quv va kognitiv faoliyati o'zlashtirilishi kerak bo'lgan o'quv materialiga mos kelishi kerak. Faoliyat natijasida talaba mustaqil ravishda har qanday xulosaga kelishi, o'zi uchun bilim olishi kerak. Didaktikaning eng muhim tamoyili - bilimlarni mustaqil yaratish tamoyili bo'lib, u bilimni o'quvchi tomonidan tayyor shaklda emas, balki o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan ma'lum bir bilish faoliyati natijasida yaratilishidan iborat. Binobarin, har xil turdagi pedagogik texnologiyalar talabalarning bilim va ijodiy qiziqishlarini rivojlantirishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Belozertsev, E.P. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. Borisova, N.V. Ta'lim texnologiyalari pedagogik tanlov ob'ekti sifatida: darslik. Nafaqa / N. V.
2. Borisova. – M.: ITsPKPS, 2000. —146 p. Gulova, M.N. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: darslik. DPT muassasalari uchun qo'llanma / MN
3. Gulova, 4-nashr, qayta ko'rib chiqilgan. – M.: IT akademiyasi, 2013. —208

## **RUS GURUHLARIDA O'ZBEK TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARNING AMALIY AHAMIYATI**

Dotsent v.v.b., Alimova Nigora Sunnatullaevna  
Toshkent arxitektura qurilish universiteti, O'zbekiston  
E-mail: [alimovanigora.1.9.6.5@gmail.com](mailto:alimovanigora.1.9.6.5@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida yangi interfaol metodlarni qo'llash dars sifati samaradorligini oshirishga xizmat qilishi, o'qitish jarayonida zamonaviy yondashilganda o'quvchilarning hamkorlikda ishlashiga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni o'zlashtirish haqida mushohada yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** interfaol metodlar, dars samaradorligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'quv jarayoni, ko'nikma, malaka, dars jarayoni, intellektual salohiyat.

**Аннотация:** В этой статье обсуждается использование новых интерактивных методов в учебном процессе для повышения качества урока, совместная работа студентов с современным подходом к обучению и получение большого количества информации за короткое время.

**Ключевые слова:** интерактивные методы, эффективность урока, инновационные технологии обучения, процесс обучения, навыки, компетенции, процесс обучения, интеллектуальный потенциал.

**Abstract:** The use of new interactive methods in the educational process will help to increase the effectiveness of lesson quality, a modern approach to the teaching process focused on students working together and assimilating large amounts of information in a short period of time.

**Keywords:** interactive methods, lesson effectiveness, innovative learning process, skill, competence, lesson process, intellectual potential.

Hozirgi zamon sharoitida, darslarni o'qitishning yangi innovatsion pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarning xislati shundaki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Darhaqiqat, mashg'ulotlarning muvaffaqiyatli o'tishining 80 foizi ta'lim jarayonini to'g'ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog'liqdir.

Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanishga erishilmoqda. Bu esa interfaol ta'lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning mazmun-mohiyatini to'liq tushunib yetishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo'lishini ta'minlashga

ko'maklashadi. "Interfaol usullaridagi darslar talabani ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Interfaollik - bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni bunda o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter yordamida) yoki talabani o'zaro muloqotiga asosan kechadi"

Interfaol ta'lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi. Talim jarayonida talabalar hamda o'qituvchi o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi. O'zbek tili darslarida zamonaviy usullardan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda mavzuni o'zlashtirishda yaxshi samara beradi.

Fikrimizning dalili sifatida o'zbek tili darsligidagi "Olmosh" mavzusining o'rganilishi bo'yicha "Olmoshning ma'no turlari" mavzusidagi klasterni quyidagicha shakllantirish mumkin. Bu metod darsning chaqiruv pog'onasida

talabalarning diqqat-e'tiborini o'ziga qaratish va darsga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsadida qo'llanadi. O'tilgan mavzularni takrorlash va esga olishda klaster metodidan foydalanilsa samarali natija beradi. Bu metodni mantiqiy ketma-ketlikda, mantiqiy tizimlashgan holda bog'lab ketishi kerak.

Mavzuni "Insert jadval" metodi asosida o'rganish va mustahkamlah ham maqsadga muvofiq. Bu metod mustaqil o'qish, ma'ruza tinglash jarayonida olinadigan ma'lumotlarni bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi. Xususan, "Olmoshlar va uning qo'llanishi" mavzusini berilgan jadval bo'yicha talabalar olgan bilimlari asosida mustahkamlash mumkin!

(V)- bilaman (+)- yangi axborot (-) - to'g'ri kelmadi (?)- tushunmadim

Shuningdek, o'zbek tili darsligining "So'z birikmasi sintaksisi" mavzusini o'rganishda "Aqliy hujum" metodini foydalanish mumkin. Bu metod barcha talabalarni darsga jalb etadi, munozara olib borish madaniyati shakllanadi eng asosiysi mavzuga qiziqish uyg'onadi. Bunda talabalarni 4 guruhga bo'lib, har biri guruh sardorlari mavzu yuzasidan savollarga javob berishlari kerak bo'ladi. Savollarni quyidagi tartibda shakllantirish lozim:

1. Ikki va undan ortiq mustaqil so'z grammatik va ma'no jihatdan birikib, qanday birikma hosil bo'ladi?

2. So'z birikmasi qanday so'zlardan tuziladi?

3. So'z birikmasi hokim so'zning qaysi turkumga oid so'z bilan ifodalanishiga qarab, necha guruhga bo'linadi?

4. O'tli so'z birikmasida hokim so'z qanday so'zlar bilan ifodalanadi?

Keyingi topshiriq tushirib qoldirilgan so'zlarni tez va to'g'ri yozish bo'ladi.

Bunda o'quvchilar guruh bilan bajarishadi. Har bir o'quvchining o'z fikrini

tengdoshlariga yetkaza olish va jamoaviy ishlash qobiliyati rivojlanadi. Topshiriq quyidagicha beriladi:

1. So'z birikmalari tarkibidagi tobe va hokim so'zning hech qanday qo'shimchasiz, faqat ohang va ma'nosiga ko'ra bog'lanishi ... deyiladi.

2. Tobe so'zning hokim so'zga tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchalari yoki ko'makchilar yordamida bog'lanishi ... deyiladi.

3. Tobe so'zning hokim so'zga qaratqich kelishigi qo'shimchasi yordamida, hokim so'zning esa tobe so'zga egalik qo'shimchalari yordamida bog'lanishi ... deyiladi.

4. Bir so'zning boshqa bir so'zga bo'ysunishi orqali bog'lanishi - deyiladi.

Umuman olganda interfaol metodlar ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni ta'minash, yagona maqsad sari intilish, o'quvchilarning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda katta amaliy ahamiyatga ega.

1. Ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llash dars sifati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

2. O'qitish jarayonida zamonaviy yondashilganda o'quvchilarning hamkorlikda ishlashiga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni o'zlashtirishiga imkon tug'iladi.

3. Interfaol metod asosida ta'lim jarayoni qatnashchilarining faolligi ta'minlanadi.

Darslarda eng ko'p qo'llaniladigan o'qitishning interfaol usullari quyidagicha:

**I. Topshiriq, mashqni bajarishga doir metodlar:**

O'zbek tili grammatikasiga oid biror-biror qoidani o'qituvchi talabalarga tanishtirib bo'lganidan keyin, uni mustahkamlash maqsadida turli xil topshiriqlar beradi. Ular yozma yoki og'zaki shaklda bo'lishi mumkin.

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

"So'zni yozishni bil"

Bu o'yin usulidan ko'zlangan maqsad talabalarni lug'at ustida ishlashga undaydi va yozma savodxonligini oshiradi. Bir talaba so'zni o'z tilida so'raydi, ikkinchi talaba shu so'zni o'zbek tilida to'g'ri yoza olishi kerak. So'zni to'g'ri yozgan talaba o'yinni davom ettiradi.

Bu xil metodlarda "Topshiriq", "O'yla, esla ayt", "Javobni top", "O'yin-topshiriq", "Sayohat" kabi mashq, topshiriqlar bajariladi.

**II. Ijodiy fikrlash, hozirjavoblikni shakllantiruvchi usullar.**

O'zbek tili darsida so'zlar vositasida turli o'yinlar tashki qilinadi. Maqsad talabalarning so'z boyligini boyitish hamda fikrlash doirasini yanada kengaytirish. Bunday o'yinlar qisqa vaqtga mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilarni guruh bo'lib mashq qilishga odatlantiradi. Bunday usullarga o'zbek tiliga oid tashkiliy o'yinlar, "Rasmi test kartochkalari", "Mavzuga mos krossvordlar yechish", "Quvnoq musobaqa" va boshqalarni kiritish mumkin. Dars jarayonida o'yinlarning muntazam ravishda qo'llanilishi o'zbek tili fanini o'rgatishni oddiydan murakkabga qadar bo'lgan yo'lni sezilarli darajada osonlashtirib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga chorlaydi.

**III. O'ylash, fikrlash, ijro etishga doir interfaol usullar.**

Rasmlarga qarab mustaqil hikoya tuzish va so'zlab berish. Bunda talabalarga hikoya tuzish uchun quyidagi yo'l-yo'riqlar beriladi:

Mustaqil matn tuzish:

Hikoya mavzusiga oid so'z va iboralarni tanlash, ya'ni so'zlarni o'rganish. Hikoyaga mustaqil ravishda reja tuzish va reja asosida hikoya yozish.

Dastlab matn ustida ishlashni boshlaganda, uning barcha bosqichlarida talabalarga amaliy yordam beriladi. Bunda talabalar diqqatini matnning yoki hikoyaning g'oyasiga qaratish mumkin. Bu bosqichda, talabalarda o'zbek tilida so'z yasash usullari, so'zlarni qanday so'z turkumlariga mansubligi hamda nazariy bilimlarini ham mustahkamlab borishlari maqsadga muvofiqdir. Keyingi bosqichda esa talabalar mustaqil reja tuzadilar va shu reja asosida hikoya yoki matn yozadilar.

**IV. O'zaro musobaqa, fikrlarni bayon etish va tushuntirishga doir usullar.** Bunday usullarga "Anjuman", "Musobaqa", "Tanlov", "Sinov", "Yuzma-yuz" kabilarni kiritish mumkin. Masalan, "Sinov" usulini qo'llashda talabalarga test kartochkalari tarqatiladi. Ushbu kartochkalar faqat o'rganilgan mavzuga oid bo'lib, unda testlar oddiydan murakkabga qarab tuzilishi lozim. Bunday testlar orqali talabalarning erkin fikrlash qobiliyati o'sib, o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishlari ortadi.

Interfaol usullarning ta'limiy xususiyatlari quyidagilarga bo'linadi. Bunda interfaol usullar ta'limda sub'yekt-ob'yekt faoliyatini ifodalaydi.

1. Talabalarning bilish faoliyatini boshqarish: guruh talabalar kichik guruhlariga bo'linib, guruhlararo muloqot, bahs-munozara orqali ta'lim beriladi.

2. Interfaol usullarning ta'lim oluvchilarga yo'naltirilganlik xususiyati, ya'ni shaxsga yondashuvchanligidir. Interfaol usulning bu xususiyati talabalarning yakka tartibda, guruh shaklidagi o'zaro hamkorligini ifodalaydi. Bunday faoliyatda talabalarning xilma-xilligi namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi kabi mashqlarni amalda qo'llashda ona tili fanining o'zaro integratsiyasi grammatik tushunchalarni o'zlashtirishni zerikarli ishdan faollikka undovchi qiziqarli ishga aylantiradi. Ona tili darslarida mustaqil ishlarni tashkil etishda tanlangan mashqlar har tomonlama ta'limiy va tarbiyaviy yo'nalishda, rang-barang mavzularda, shaklan va mazmunan mukammal, mantiqan to'g'ri, tili sodda va ravon, o'quvchi uchun tushunarli bo'lish maqsadga muvofiqdir. Ana shundagina matn, matn yaratish va matn tahlil qilish o'quvchi uchun zarur bo'lgan natijani beradi hamda kommunikativ savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug' va kelajagi farovon bo'ladi. T.: "O'zbekiston", 2019.

2. Ro'ziyev D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. - Toshkent, 2013. 146-b.
3. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. - Toshkent, "O'ME" 2009. 243-b.
4. Tadjibayeva D.Sh. Ona tili o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari // The journal of academic research in educational sciences. 2021. maxsus son. 486-488 betlar.
5. Tolipov O'.Q. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiquiy asoslari. - T., "Fan", 2006. 364-b.
6. To'xliyev B. O'zbek tili o'qitish metodikasi. - Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2006. 232-b.

### **ВНЕДРЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ**

Доцент, Халмаматова Лола Аманкуловна, ассистент Турдибекова Рисолат Шерматовна

Ташкентский архитектурно-строительный университет, Узбекистан

E-mail: [khalmamatoval@mail.ru](mailto:khalmamatoval@mail.ru), [risolatturdibekova@gmail.com](mailto:risolatturdibekova@gmail.com)

**Аннотация:** В статье акцентируется внимание на четырех уровнях проблемности в обучении, возникающие между научно-педагогическим составом и обучающимися в вузе. Рассматриваются разные формы активного (интерактивного) обучения. Раскрывается роль различных видов занятий. Приводятся их положительные и отрицательные стороны.

**Ключевые слова:** проблема, обучение, уровень, способ, схема, вид, форма, ситуация, условие, качество.

**Abstract:** the article focuses on four levels of problems in learning that arise between the scientific and pedagogical staff and students at the University. Different forms of active (interactive) learning are considered. The role of different types of occupations is revealed. Their positive and negative sides are given.

**Keywords:** problem, training, level, method, scheme, type, form, situation, condition, quality.

**Annotatsiya:** Maqolada oliy ta'lim ilmiy-pedagogik xodimlari va talabalari o'rtasida yuzaga keladigan muammoli ta'limning to'rt darajasiga e'tibor qaratilgan. Faol (interaktiv) ta'limning turli shakllari ko'rib chiqilgan. Har xil turdagi mashg'ulotlarning roli ochib berilgan. Ularning ijobiy va salbiy tomonlari ko'rsatilgan.

**Tayanch so'zlar:** muammo, o'qitish, daraja, usul, sxema, tur, shakl, holat, sharoit, sifat.

Повышение качества образовательного процесса непрерывно связано с внедрением новых форм, способов обучения. В последнее время широко начали применяться активные формы обучения, когда преподаватель создает такие условия, обстановку при которых обучающиеся на занятиях не только запоминают и усваивают новый материал, но и создают (участвуют) в различных нестандартных ситуациях, вызывающие их принимать осознанные решения для достижения поставленных целей [1, 2]. К таким видам относятся активные (интерактивные) занятия: практические, деловые игры, командно-штабные учения, объектовые, виртуальные лабораторные работы [3]. Поскольку они являются новым видом проведения занятий, то для них необходимо разрабатывать свой учебно-методический комплекс. Активные способы позволяют улучшить процесс приобретения новых знаний, усвоить и закрепить материал, формируют у обучающихся навыки взаимоотношения в группе, стиль поведения. При их применении профессорско-преподавательский состав (ППС) выступает в роли лидера, который распределяет должности, определяет функции и обязанности членов «интерактива».

В тематическом плане данные виды занятия могут быть построены по следующей схеме: лекция - самостоятельная подготовка - практическое (лабораторное, объектовое) занятие.

В ходе проведения лекции рассматриваются основные теоретические положения, даются определения, конкретизируются направления дальнейшей проработки материала, указывается основная, дополнительная литература, нормативно-правовые акты. Каждый лектор на занятии ставит перед собой задачу увлечь своей наукой, пробудить к ней интерес, так как его живое эмоциональное воздействие всегда имеет очень большое значение. По количеству подаваемой информации, системности, охвату большого количества людей лекционный материал стоит



выше всех других способов проведения занятий. Воздействие личности лектора на аудиторию, его тесный контакт с ней, пока невозможно ничем заменить.

Лекции являются экономичным, доступным и наиболее простым приобретением новых знаний, получения основных направлений самостоятельного изучения материала. В устном изложении многие обучающиеся легче схватывают мысль, виднее становится логика построения, доказательства, структуры учебного материала.

На самостоятельной работе обучающиеся углубляют и расширяют полученные на лекции знания в данной предметной области. Самостоятельная работа (подготовка) обучающихся осуществляется с целью более полного изучения и закрепления материала проведенного занятия, приобретения навыков индивидуальной работы, включающей отработку заданий, работу с нормативной, руководящей и учебной литературой, подготовку к следующему занятию.

Самостоятельная работа реализуется: непосредственно на занятиях; во взаимодействии с преподавателем после занятий; в библиотеке, дома, на кафедре. На практических (групповых) занятиях происходит изучение морально-деловых и образовательных качеств самого обучающегося. Роль данного вида занятий отмечается особо, потому что они будут главным видом будущей специальности выпускников [4].

Они углубляют, расширяют знания, полученные на лекции и способствуют формированию навыков профессиональной направленности, помогают студенту применять теоретический материал при решении конкретных задач. На практическое занятие преподаватель разрабатывает сценарий его проведения. Для этого группа разбивается на подгруппы, для лабораторной работы она делится в соответствии с количеством компьютерного оборудования [5].

Проблемное обучение также как и программированное, относится к технологиям активного обучения. В основе его лежит решение возникшей задачи, проблемы. Исходя из вышеизложенного, следует отметить, что применительно к педагогике проблему можно рассматривать на двух уровнях.

Первый уровень - научный, в котором отражено противоречие между известным научным знанием и неизвестным. Он требует от участников длительной поисковой и исследовательской работы, которая может быть и не закончена, так как не всегда удается ее решить, а иногда и увидеть, содержащую скрытое противоречие и получить при этом новые знания. Поэтому такой подход не приемлем для образовательного процесса.

Второй - учебной познавательной деятельности, заключающийся в том, что в следствии появления новой информации, у обучающихся возникают противоречия, неопределенности из-за невозможности их объяснить совокупностью своих знаний. Данная проблемная ситуация вызывает у него потребность мыслить и, главное ответить на вопрос «почему». В тоже время она рождает мотив, который побуждает обучающегося думать и действовать. В этом и состоит суть проблемного обучения.

В образовательном процессе вузов используются 4 уровня проблемности. На первых трех ППС при проведении занятий сам моделирует проблемную ситуацию, но на: первом уровне он сам производит ее разрешение, а обучающиеся только осмысливают полученный результат; втором правильное решение находится в результате проведенной дискуссии; третьем ее решение осуществляют обучающиеся, поняв существующее противоречие.

На четвертом уровне преподаватель создает такие условия, в результате моделирования различных ситуаций, что обучающиеся на основе имеющихся знаний находят правильное решение проблемной ситуации.

Проблемное обучение на последних этапах связано с проведением изыскательских работ, прикладных, поисковых и, в какой-то степени, части фундаментальных исследований, направленных на решение новых, нестандартных задач, в ходе которых они не только усваивают новые знания, но и приобретают умения и навыки творческой деятельности.

Преимуществами проблемного обучения являются:

- широкие возможности для повышения абстрактного мышления на основе возникшей потребности, в результате побуждающего мотива; внимания; памяти; воображения;

- развитие у обучающихся самостоятельности, ответственности, критичности, инициативности, нестандартности мышления, решительности и другие качества;
- обеспечение прочности усвоения приобретаемых знаний, так как они добываются самостоятельно.

Недостатки проблемного обучения:

- подготовка методик проблемного обучения требует от профессорско-преподавательского состава хорошего знания преподаваемой дисциплины, педагогических способов и приемов, умственных и временных затрат [6];
- в ходе обучения оно вызывает затруднение у обучающихся, так как на осмысливание проблемы и поиск путей для ее решения уходит много времени, чем при традиционном обучении.

Рассмотренные виды, способы, уровни проблемного обучения, как одной из активных форм образовательного процесса, позволит намного повысить качество усвоения нового материала по профессиональной подготовке, развить творческий потенциал обучающихся и сформировать облик будущего специалиста ГПС МЧС.

#### **Список литературы:**

1. Т.Т. Каверзнева, Н.А. Леонова, Н.В. Румянцева, И.Л. Скрипник. Опыт проведения практических занятий в интерактивной форме по направлению “Техносферная безопасность”. Промышленная безопасность предприятий минерально-сырьевого комплекса в XXI веке. Том 1: Горный информационно-аналитический бюллетень (научно-технический журнал). - 2017. - № 4 (5-1), с. 359-364.

2. Кадочникова Е.Н., Воронин С.В., Скрипник И. Л. Совершенствование уровня профессиональной подготовки обучающихся // Сборник тезисов и докладов IX Международной научно-практической конференции “Актуальные проблемы пожарной безопасности, предупреждения и ликвидации чрезвычайных ситуаций”, 25-26 октября 2018 г. - Кокшетау: КТИ КЧС МВД РК, 2018. - С. 324-327.

3. Leonova N.A., Kaverzneva T.T., Borisova M.A., Skripnick I.L. Integration of Physics Courses and Operating Security Courses in the Education in the Technosphere Safety Area. Proceedings of 2018 17th Russian Scientific and Practical Conference in Planning and Teaching Engineering Staff for the Industrial and Economic Complex of the Region, PTES 2018 8604206. С. 213-215.

4. Осипчук И.В., Скрипник И.Л., Воронин С.В. Роль института безопасности жизнедеятельности и научно-педагогического состава кафедры в организации работы с выпускниками // Научно-аналитический журнал. «Вестник Санкт-Петербургского университета ГПС МЧС России». № 3 (2018) - 2018, с. 125-131.

5. Скрипник И.Л. Использование компьютерной технологии обучения для контроля качества профессиональной подготовки в вузе пожарно-технического профиля // Научно-аналитический журнал. Природные и техногенные риски (Физико-математические и прикладные аспекты). № 3 (27) - 2018. с.40-44. 58 АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНЖЕНЕРНЫХ СИСТЕМ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПОЖАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ОБЪЕКТОВ

6. Воронин С.В., Скрипник И.Л., Каверзнева Т.Т. Методики оценки профессорско-преподавательского состава и обучающихся в учебном процессе// Научно-аналитический журнал. «Вестник Санкт-Петербургского университета ГПС МЧС России». № 4 (2018) - 2018, с. 95-100.

УДК 372.0.

Toshkent arxitektura qurilish universiteti, O'zbekiston  
E-mail: [muborakmahkamova56@gmail.com](mailto:muborakmahkamova56@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ishlab chiqarish korxonalariga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishning mavjud funktsiya va tamoyillarini takomillashtirish masalalariga

bag'ishlangan. Maqolada mamlakatimiz ishlab chiqarish korxonalarida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish haqida fikr yuritilgan. .

**Kalit so'zlar:** axborot, texnologiya, funktsiya, tamoyil, axborot texnologiyalari, kommunikatsiya, korxonalar, rivojlantirish, joriy qilish, davlat, boshqarish.

**Аннотация:** Данное статье посвящается совершенствование функции и принципы внедрения ИКТ на предприятиях. Разработана практических рекомендаций и предложений по внедрения и повышения эффективности использования информационно коммуникационных технологий в предприятий страны.

**Ключевые слова:** информация, технология, функция, тамойил, информационные технологии, связь, предприятие, развитие, введение, страна, управление.

**Abstract:** This article is devoted to improving the functions and principles of ICT implementation in enterprises. Developed practical recommendations and proposals for the implementation and improvement of the use of information and communication technologies in enterprises of the country.

**Keywords:** information, technology, function, tamoil, information technology, communication, enterprise, development, introduction, country, management.

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarisiz ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini rivojlantirish masalasini hech kim tassavvuriga ham sig'dira olmaydi. Chunki, hozirda axborot kommunikatsion texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib bormoqda, bu esa ishlab chiqarish korxonalari o'z faoliyatiga yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni kiritish, yuqori texnologiyalardan foydalanib raqobatbardoshligini oshirish vazifalarini yuklaydi.

Axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha sohalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodiyotni rivojlantirish, mamlakat fan-texnika taraqqiyotini, jamiyatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanish tushuniladi.

Korxonalar boshqaruvi uchun zamonaviy axborot texnologiyalarining asosiy vazifalari - kerakli ma'lumotlarni qidirish, to'plash, qayta ishlash, saqlash, yangi ma'lumotlarni ishlab chiqish va optimallashtirishning turli xil muammolarini hal etishdan iboratdir. Vazifa nafaqat vaqtni sarflaydigan, muntazam takrorlanadigan, ma'lumotlarni qayta ishlash operatsiyalarini tanlash va avtomatlashtirish, balki samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan yangi ma'lumotlarni olish uchun ularni qayta ishlash orqali ham amalga oshiriladi.

So'nggi o'n yil ichida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida korxonalarni boshqarish, boshqaruvda sezilarli darajada imkoniyatlarni yaratmoqda, chunki ular barcha darajadagi menejerlarga va korxonalarining rahbarlariga eng yaxshi va muqobil boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy axborotni qayta ishlash va tahlil qilishning so'nggi usullari bilan ta'minlanib kelinmoqda. Ayni paytda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiyot rivojlanishining asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Deyarli, barcha firmalar va iste'molchilar, iste'molchilarni ko'proq diversifikatsiyalangan hamda moslashtirilgan mahsulotlar bilan ta'minlash, mahsulot sifatini oshirish, tovar va xizmatlarni sotish kabi kompyuter va internet tarmog'idan iqtisodiy maqsadlarda foydalanish rivojlanib bormoqda. Barchamizga ma'lumki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kengaytirish va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri so'nggi yigirma yil ichida jadal sur'atlar bilan o'sib kelmoqda. Aslida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari elektronika, telekommunikatsiya, dasturiy ta'minot, tarmoqlar, markazlashtirilmagan kompyuter ish stantsiyalari va ommaviy axborot vositalarining integratsiyasi bo'lib, ularning barchasi firmalar, sanoat va umuman olganda iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari radio, televideniye, kommunikatsiya uskunalari va dasturiy ta'minotni o'z ichiga olgan turli "aloqa uskunalari" dan iborat. Shu bois, axborot-kommunikatsiya sohasi investitsiyalar asosan, kompyuter va telekommunikatsiyalarga, dasturiy ta'minot va xizmatlarga kiritiladi. Bu faqat milliy iqtisod rivojlanishining iqtisodiy ko'rsatkichlari o'sishinigina emas, balki ayni paytda ishlab chiqarishni rivojlantirish, yangi ish joylarini tashkil etish, aholining turmush darajasini oshirish, atrof-muhoitni

muhofaza qilishga yunaltilgan fundamental va amaliy fanlarda sifatli ilmiy yutuqlarga erishishni ham ta'minlaydi.

Yangi XX1 asrda mamlakatlarning milliy iqtisodi globallasib, axborotlashgan iqtisod shakliga aylanmoqda. Ya'ni, milliy iqtisoddagi axborot va bilimlarning tutgan o'rnini tobora yuksalmoqda va ular strategik resursga aylangan. Dunyoda jamg'arilgan axborot va bilimlarning 90%i so'nggi 30 yil mobaynida yaratilgan. Axborot va bilimlar hajmining kundan-kunga ortib borishi milliy iqtisodning barcha sohalarida, jumladan, ta'limda ham axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalaridan keng ko'lamda samarali foydalanishni talab etmoqda.

Axborot xuddi an'anaviy resurslar kabi izlab topish, tarqatish mumkin bo'lgan resursga aylandi. Ushbu resursning foydalanadigan umumiy hajmi kelgusida davlatlarning strategik imkoniyatini, shuningdek mudofaa qobiliyatini ham belgilab beradi, deyishga jiddiy asos bor.

Axborot resurslarini oqilona tashkil etish va foydalanishda ular mehnat, moddiy va energetik resurslar ekvivalenti sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda axborot — bu boshqa barcha resurslardan oqilona va samarali foydalanish hamda ularni asrab-avaylashga ko'maklashuvchi yagona resurs turidir.

Shunday qilib, axborot resurslari zamonaviy axborotlashgan jamiyatda ishlab chiqarishning asosiy qismi bo'libgina qolmay, balki milliy daromad manbai sifatidagi tovar hamdir.

Ayni paytda, boshqaruv va ishlab chiqarish samaradorligi, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va foydalanish bo'yicha eng ko'p axborotga ega bo'lgan tizim yutib chiqmoqda.

Mutaxassislar, birinchi galda iqtisodchilarning axborotga erkin kirib borishini sanoat rivojlanishi sharoitida bozor iqtisodi samaradorligining asosiy shartlaridan biri deb hisoblaydi. Ularning faoliyati va jamiyat ishlab chiqarishining asosiy sohaları u yoki bu ma'noda axborot bilan bog'liq, bo'lib, ish bilan band bo'lganlarning 40—60 % ini tashkil etadi. Axborot xizmatlari jahon yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadining 10% ini tashkil qilmoqda. Shuning 90%i AQSh, Yaponiya va G'arbiy Yevropa hissasiga to'g'ri keladi.

Axborot intellektual faoliyatning muhim mahsuloti sanaladi. Sanoati rivojlangan barcha mamlakatlarda ushbu mahsulotlarni o'z foydalanuvchilariga yetkazishning "usullari va vositalari"ni ishlab chiqish hamda joriy etish jadal sur'atlarda olib borilmoqdaki, bu axborot tizimlari va texnologiyalari sanoatini yaratishda o'z aksini topgan.

Axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini ta'lim tizimida qo'llashda shaxsiy kompyuterning tutgan o'rnini oshib bormoqda. 2000 yilda AQShda 1000 kishiga 500 ta kompyuter to'g'ri kelgan bo'lsa, axborotlashgan iqtisod hali kirib bormagan mamlakatlarda ahvol ancha jiddiy. Ya'ni Braziliyada — 24, Rossiyada — 31, Turkiyada — 20, Hindistonda esa — bu raqam 3 taga to'g'ri kelmoqda. Internet orqali savdo-sotiq, qilish kundan-kunga ortib borayapti, jumladan AQShda shaxsiy kompyuter Internet tizimiga ulangan oilalarning 47%i elektron magazinlardan tovarlar sotib olishmoqda. Axborotlashgan iqtisod yangi ish o'rinlarini barpo etmoqda. Xizmatchilar o'z ish joyini AQShda o'rta hisobda 4 yilda, Yevropada esa 8 yilda almashtiradi. Bunday sharoitda uzluksiz ta'limni axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarisiz yo'lga qo'yib bo'lmaydi.

Axborot texnologiyalari rivojlanishi bevosita iqtisodiy ob'ektlarning axborot tizimlaridan foydalanishi bilan bog'liq. Zamonaviy axborot texnologiyalari rahbarlarga, mutaxassislarga, texnik xodimlarga axborotni qayta ishlash va qarorlar qabul qilishda hamda to'liq va ishonchli bo'lgan zamonaviy axborot tizimini yaratishda ko'mak beradi.

Jahonda ta'lim tizimi tezkor sur'atlarda taraqqiy etib bormoqda. Misol uchun Gollandiyani olib qaraydigan bo'lsak, yuqori saviyaga ega bo'lgan bitiruvchilar ishsiz qolmoqda. Shuning uchun ham yetkazayotgan kadrlarimizga bo'lgan talab darajasini yaqindan o'rganishimiz kerak. Agar ichki bozorimizda bunday kadrlarga ehtiyoj bo'lmasa, Internet orqali tashqi bozorda ularga bo'lgan talabni qidirib topishimiz kerak. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, AQSH universitetlaridagi professorlarning 85% ini Hindistonliklar tashkil qiladi. Ularning ushbu yutuqlarga erishishini avvalo aniq fanlarni chuqur bilishi, chet tillarini mukammal o'rganganligi va axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini milliy iqtisod va ta'lim sohalarida samarali qo'llay bilishi bilan izohlash mumkin. Hozirgi kunda nafaqat ta'lim sohasiga, balki milliy iqtisodning barcha tarmoqlariga Internet, elektron tijorat, elektron biznes, virtual tijorat, virtual ta'lim, masofaviy o'qitish, virtual stand texnologiyalari keng ko'lamda kirib



kelmoqda. Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish korxonalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish davr talabidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги фармони. халқ сўзи.-2017.-8 февраль.-№28.

2. Иминов А.А., Джаматов М.Х. “Бошқарувда ахборот технологиялари” маърузалар матни. Тошкент-2017.

3. Арипов М., Бегалов Б., Бегимкулов У., Мамаражабов М. “Ахборот технологиялари” Ўқув қўлланма. Т.: “NOSHIR”-2009.

4. Арипов М., Бегалов Б., Бегимкулов У., Мамаражабов М. Ахборот технологиялари. Ўқув қўлланма. Т.: -Ношир

,

Toshkent arxitektura qurilish universiteti, O'zbekiston

E-mail: [irodasalimova829@gmail.com](mailto:irodasalimova829@gmail.com), [aripovanasiba1976@gmail.com](mailto:aripovanasiba1976@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada pedagogik texnologiya va interfaol o'qitish jarayonining mazmun - mohiyati, pedagogik texnologiya doirasidagi yondoshuvlar haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, mustaqil ta'lim, innovatsiya, yondashuv, an'anaviy va faol o'qitish, axborot

**Аннотация:** В статье рассматривается педагогическая технология, подходы педагогической технологии и значимость процесса интерактивного обучения.

**Ключевые слова:** технологии, самостоятельное обучение, инновации, подход, традиционное и активное обучение, информация

**Abstract:** This article deals with pedagogical technologies, approaches and significance of pedagogical technologies in the process of interactive teaching.

**Key words:** technology, independent learning, innovation, approach, traditional and active learning, information

Bugungi kunda ta'lim sohasida pedagogik texnologiyalar, interfaol o'qitish usullari kabi tushunchalardan keng foydalanib kelamiz. Ko'p pedagoglarimiz ushbu tushunchalarning mazmun - mohiyatini to'liq anglamaydilar va pedagogik texnologiya deganda faqat interfaol usullarni qo'llashni tushunadilar. Ushbu masalaga oydinlik kiritish maqsadida pedagogik texnologiya va interfaol o'qitish jarayonining mazmun - mohiyatini ochib bermoqchimiz.

«Texnologiya» so'zi pedagogikaga ishlab chiqarish sohasidan kirib kelgan. Bizga ma'lumki, har qanday texnologiya yakuniy natijaga qaratilgan bo'lib, bu natijani oldindan rejalashtiradi va bosqichma - bosqich amalga oshiradi. Eng muhimi shundaki, har qanday texnologiyada yakuniy natija kafolatlanadi.

Pedagogik texnologiya deganda oldindan loyihalashtirilgan va yakuniy natijani kafotlatlaydigan ta'lim va tarbiya jarayoni tushuniladi. Demak, pedagogik texnologiyani amalga oshirishdan avval o'quv maqsadlarini aniq belgilash zarurdir. O'qituvchi dars natijasini oldindan ko'z oldiga keltirishi lozim.

Pedagogik texnologiya doirasida ikki hil yondoshuvni ajratishimiz mumkin: texnologik va jarayonli.

Texnologik yondoshuvning maqsadi – talabalarga bilim berish, ularning ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdir. Bu yondoshuvda o'quv maqsadini aniq va to'g'ri belgilash muhim hisoblanadi.

Jarayonli yondoshuvning maqsadi esa – talabalar tanqidiy tafakkurini, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Bu yondoshuvda jarayon maqsadga ko'ra muhim hisoblanadi. Aynan jarayonli yondoshuvda interfaol usullardan foydalaniladi. Chunki interfaol o'qitish usullarining aksariyati talabalarga yangi bilim bermaydi. Bu usullar o'quvchi va talabalarda mavjud bo'lgan

bilimlarni faollashtiradi, umumlashtiradi, analiz, sintez qilishga o'rgatadi. Interfaol usullar talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Shuning uchun "Sinkveyn", "Klaster", "Nilufar guli", "Venn diagrammasi" va boshqa interfaol usullar asosida bajarilgan topshiriqlar baholanmaydi, talabalar rag'batlantiriladi, har qanday fikrlar qabul qilinadi (bu fikrlar o'qituvchining nuqtai nazaridan noto'g'ri bo'lsa ham). Interfaol o'qitish usullarini yaxshiroq anglashimiz uchun, ularni an'anaviy va faol o'qitish usullari bilan taqqoslaymiz: An'anaviy o'qitishda o'qituvchi faol ishtirok etib, o'quvchilarga faqat axborotni yetkazib beradi. Bunda axborot bir tomonlama uzatiladi.

O'quv jarayoni sifatini oshirishda mustaqil ta'limning roli so'zsiz katta. Pedagogdan tayyor ma'lumot olgandan ko'ra mustaqil faoliyat jarayonida olgan bilimni o'zlashtirish nisbatan ancha yaxshi natija beradi. Hozirgi davrda ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish, talabalarning mustaqil ravishda o'quv materiallarini o'zlashtirishi, ularning kasbiy o'sishini rag'batlantirish, ularda ijodiy faollikni tarbiyalashda pedagoglarning mas'uliyatini oshirish zarur. Talaba va pedagog mustaqil ta'lim ularning manfaati uchun olib borilishini tushunishi kerak. Talaba bajarayotgan mustaqil ish pedagogi uchun emas, balki o'zi uchun, uning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlashining asosiy omili ekanligini tushunishi kerak.

Mustaqil ta'limni faollashtirmasdan oliy ta'limda talabalarni samarali o'qitishni ko'z oldimizga keltirish qiyin.

Hozirgi davr mutaxassisidan yuqori darajadagi tayyorgarlik, mustaqil ravishda qarorlar qabul qila olish, belgilangan vazifalarni bajarish uchun ko'p ma'lumotlar orasidan kerakligini tanlab olish va bu ma'lumotlarni qayta ishlay olish talab qilinadi. Hozirgi zamon talabiga javob bera oladigan mutaxassislar tayyorlash uchun o'quv jarayonini tashkil etishni jiddiy ravishda o'zgartirish kerak, ya'ni auditoriya soati, passiv ma'ruza mashg'ulotlar ulushini kamaytirish hisobiga talabalarning mustaqil ishlari salmog'ini oshirish zarur.

Talabalarning ta'lim olishda an'anaviy o'qitish usulidan mustaqil faoliyatiga katta e'tibor berib borish asosiy yetakchi g'oyadir. Mustaqil ta'lim talabalarga bilim berishda bu talabani o'z holiga tashlab qo'yish emas, balki pedagog tomonidan muntazam boshqariladigan talabalarning mustaqil faoliyatidir. Shuni esdan chiqarish kerakki, har bir pedagog faqatgina o'zining fanini asosiy deb hisoblamasdan, talabani mustaqil ta'limga ajratilgan vaqti o'quv rejadagi barcha fanlar uchun ajratilganligini esdan chiqarish kerak, aks holda talabalarga keragidan ortiq berilgan vazifa mustaqil ta'limdan kuzatilgan ijobiy natija o'rniga, aksincha salbiy natijaga olib kelishi mumkin.

Talabalarning mustaqil ta'limidan asosiy maqsadlar quyidagilardan iboratdir:

- yangi bilim olish usullarini egallash, jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- auditoriyadagi mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va tartibga solish;

- me'yoriy-huquqiy aktlar, ma'lumotlar va maxsus adabiyotlar bilan ishlashni o'rganish;

- o'quv materiallarini mustaqil o'rganish;

- faolligi, bilim orttirishi, ijodiy tashabbusi, mas'uliyati va tartibligini rivojlantirish;

- olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishni shakllantirish;

- mustaqil fikr yuritish, o'z-o'zini o'stirish, o'zining rejasini amalga oshirishni shakllantirish;

- tadqiqot qila olish qobiliyatini rivojlantirish.

Albatta, talabalarning mustaqil bilim olishini yo'lga qo'yish natijasida dars jarayoni samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini ko'tarish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, uning ta'lim berish jarayonini to'g'ri tashkil eta olishiga bog'liqdir.

Talabalarning o'quv malakalari o'quv materiallari bilan mustaqil ishlash jarayonida hosil bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'quv malakalari o'quv materialini qabul qilish, qayta ishlash, uning muhim jihatlarni ajratish, yangi o'zlashtirgan bilimlarni avvalgilari bilan bog'lash, o'quv bilimlarini umumlashtirish, takrorlash va ularni amalda tadbiq qilgan holda masalalar hal qilishda egallanadi. Shunday qilib, o'quv malakalari talabalarning ta'lim jarayonidagi barcha o'quv-bilish faoliyatlari bilan bog'liqdir.

O'quv jarayoni davomida ma'ruza mashg'ulotlarini o'tishda ko'pgina pedagoglarimiz "Qanday metoddan foydalanish mumkin?" degan muammoga duch kelishadi. Ko'p hollarda bu muammo ma'ruza metodidan foydalangan holda yechiladi. Dars jarayonida ta'lim metodlarini tanlash mavzuning

mazmuniga bog'liq bo'ladi va o'ziga xos mazmunini bayon qilish taxnologiyasi tanlanadi, bunda talabalarning psixologik tayyorgarliklari, bilimlarni o'zlashtirish va fikrlash darajalari, har xil ta'lim bosqichi uchun mos metodlari hisobga olinadi.

O'qitishning faol usullarida ham o'qituvchi mashg'ulotning markazida bo'lib, axborotni yetkazib beruvchi yagona manba hisoblanadi. Lekin o'quvchilar passiv tinglovchilardan faol tinglovchilarga aylanadi. Ular savollar berishi, o'z fikrlarini bildirishlari mumkin. O'qitishning interfaol usullarida esa o'qituvchining roli keskin o'zgaradi – endi o'qituvchi darsning markaziy figurasidan darsning tashkilotchisiga aylanadi, darsning umumiy yo'nalishini belgilaydi (oldindan kerak bo'lgan topshiriqlarni tayyorlaydi, guruhlar ishini tashkil etish bo'yicha savollar va mavzularni tanlaydi), vaqtni nazorta qiladi, maslahat beradi, murakkab terminlarni tushuntirib beradi. O'quvchilarda esa axborotning qo'shimcha manbalari paydo bo'ladi – kitoblar, lug'atlar, entsiklopediyalar, kompyuter dasturlari va boshqalar. Bundan tashqari, o'quvchilarning ijtimoiy tajribalari ortadi – ular bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar, berilgan topshiriqlarni hamkorlikda bajarishga o'rganadilar, bir birlarini fikrlarini tinglash va hurmat qilishga odatlanadilar.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'limda mustaqil ta'limni tashkil etishda interfaol texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Т., 2000.
2. Фарберман Б. Илғор педагогик технологиялар. -Т.: Фан. 2000.
3. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш: Ўқув услубий қўлланма/ Инновацион таълим технологияси серияси. – Т.: “Иқтисодиёт” 2012
4. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагогик-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). Тошкент: Истеъдод, 2008.
5. Мажитова Ш. Инновационные педагогические технологии используемые в подготовке будущих учителей// Халқ таълими. -Тошкент, 2016.
6. N.A.Aripova “Preparing students for independent educational activities in credit-modular system” Journal of hunan university (natural sciences) vol. 48. no.11. november 2021 скопус журнал.
7. N.A.Aripova «Innovative methods of teaching architectural Disciplines» Global Advanced Research Journal of Educational Research and Review (ISSN: 2315-5132) Vol. 6(5) pp. 059-061, November, 2017 инпафактор журнал.

### **OLY TA'LIMDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TADBIQ ETILISHI - MODUL TEXNOLOGIYASI**

Toshkent arxitektura qurilish universiteti, O'zbekiston

E-mail: [aripovanasiba1976@gmail.com](mailto:aripovanasiba1976@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada pedagogik texnologiya va interfaol o'qitish jarayonining mazmun - mohiyati, pedagogik texnologiya doirasidagi yondoshuvlarni, qurilish fanlariga oid mavzularda modul texnologiyasi, interfaol o'qitish usullarini qo'llanilishi haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** modul texnologiyasi, poydevor, tom yopma konstruksiyalari, tabiiy va texnologik ta'sirlar, mexanik, fizik yemirilish va defektlar, tabiiy omillar ta'siri.

**Аннотация:** В статье рассматривается педагогическая технология, подходы педагогической технологии и значимость процесса интерактивного обучения, а также применение модульной технологии, интерактивных методов обучения при преподавания строительных дисциплин.

**Ключевые слова:** модульная технология, фундамент, кровельные конструкции, природные и техногенные воздействия, механические, физические разрушения и дефекты, влияние природных факторов.

**Abstract:** This article deals with pedagogical technologies, approaches and significance of pedagogical technologies in the process of interactive teaching, and also application of the modul and interactive methods of teaching in training building and construction subjects.

**Key words:** modular technology, foundation, roof structures, natural and man-caused impacts, mechanical, physical damage and defects, the influence of natural factors.

O'quv modullarining ta'lim jarayoniga kiritilishi hisobiga ta'lim mazmuni yangilanib boradi. Modul – bir butun maqsadga, ya'ni ta'lim mazmuni va uni egallash texnologiyasini umumlashtirishga qaratilgan bo'g'in. Ta'lim mazmuni tugallangan mustaqil komplekslarda (axborot bloklarida) namoyon bo'ladi, ularni o'zlashtirish maqsadga mos ravishda amalga oshiriladi. Didaktik maqsad ta'lim oluvchi uchun shakllanadi va o'z ichiga nafaqat bilimlar hamji, balki ularni o'zlashtirish darajasi bo'yicha ko'rsatmalarni ham qamrab oladi.

Modullar ta'limni sub'ekt-sub'ekt asosiga o'tkazish, alohida o'quvchilar bilan ishlashni individuallashtirish, individual yordam ko'rsatishni me'yorlashtirish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot shakllarini o'zgartirishi mumkin. Pedagog modullar majmuasi va ketma-ket murakkablashib borayotgan didaktik masalalardan iborat bo'lgan dasturni ishlab chiqadi va o'quvchi o'qituvchi bilan birgalikda ta'lim olishni boshqarish imkoniyatini beradigan kirish hamda oraliq nazoratini ta'minlaydi. Modulli ta'lim texnologiyasi individuallashtirilgan ta'limning yo'nalishidan biri bo'lib, mustaqil ta'lim olishni amalga oshirish, nafaqat ish tempini balki o'quv materialining mazmunini ham me'yorlashtirish imkoniyatini beradi. Modul texnologiyasi modullarni loyihalashtirishdan boshlanadi (o'quv predmetining mazmuni va uning bo'limlarini strukturalash – kasbiy faoliyatning mantiqiy tugallangan, keyinchalik ta'limning mazkur darajasida bo'linmaydigan qismlarini ajratish). Keyin har bir ajratilgan modul mazmunini tashkil etuvchi faoliyat va maqsad aniqlanadi. Modulning maqsadlariga erishish bosqichma - bosqich amalga oshirilganligi uchun, har bir qadam o'quv elementi ko'rinishida ishlab chiqiladi.

Biz quyida “Binoning asosiy konstruktsiyalarida uchraydigan shikastlanish va avariya holatlari” mavzusi bo'yicha o'quv modullari namunasini ishlab chiqdik. “Binoning asosiy konstruktsiyalarida uchraydigan shikastlanish va avariya holatlari” mavzusi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Poydevorlarda uchraydigan shikastlanishlar.
- Devorlarda uchraydigan shikastlanishlar.
- Tom yopma konstruktsiyalarida uchraydigan shikastlanishlar.
- Binolarga tabiiy va texnologik ta'sirlar.
- Qurilish konstruktsiyalarining namlanishi va undan himoyalani sh usullari.
- Bino elementlarini erta eskirishi va uni oldini olish.

“Binoning asosiy konstruktsiyalarida uchraydigan shikastlanish va avariya holatlari” mavzusi bo'yicha quyidagi modul texnologiyasini ishlab chiqildi. Biz bunda beshta modul ishlab chiqdik:

**1 – modul – Poydevorlarda uchraydigan shikastlanishlar.**

Bunda talabalarga mexanik, fizik yemirilish va defektlar; yer osti qismining cho'kishi natijasida paydo bo'ladigan yoriqlarni aniqlash; poydevorlarning yemirilishiga ta'sir qiluvchi omillar haqida ma'lumot beriladi.

**2 – modul – Devorlarda uchraydigan shikastlanishlar.**

Bunda talabalarga devorlarda yoriqlarning paydo bo'lishi; devorlarning shikastlanishi va deformatsiyalanishiga olib keluvchi sabablar; devordagi yoriqlarning tashqi ko'rinishi va xarakteriga qarab, ularning kelib chiqishi sababini aniqlash haqida ma'lumot beriladi

**3 – modul – Tom yopma konstruktsiyalarida uchraydigan shikastlanishlar.**

Bunda talabalarga tom qoplamasining ishonchliligi va umrboqiyligi; chordoqli tom yopmalarining afzalligi; yopma konstruktsiyalaridagi defektlar haqida ma'lumot beriladi.

**4 - modul – Binolarga tabiiy va texnologik ta'sirlar.**

Bunda talabalarga tabiiy omillar ta'siri; havo muhitining ta'siri; tajavvuzkor muhitning turkumlari va ularning metall va nometall ashyolarga bo'lgan ta'siri haqida ma'lumot beriladi.

**5 - modul – Qurilish konstruktsiyalarining namlanishi va undan himoyalani sh usullari.**



Bunda talabalarga qurilish konstruktsiyalarini yemirilishiga olib boruvchi eng ko'p tarqalgan va sezilarli ta'sir qiluvchi omillar; havoning nisbiy namligi bo'yicha xonalarning turkumlari; to'siq konstruktsiyalarda namlanishining turlari haqida ma'lumot beriladi.

Har bir modul uchun aloxida texnologiya ishlab chiqamiz.

**1 - modul – Poydevorlarda uchraydigan shikastlanishlar.**

Maqsad. Ushbu modul yakunida:

- mexanik, fizik yemirilish va defektlar haqida tushunchaga ega bo'ladi;
- yer osti qismining cho'kishi natijasida paydo bo'ladigan yoriqlarni aniqlaydi;
- poydevorlarning yemirilishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qiladi.

**2 - modul – Devorlarda uchraydigan shikastlanishlar.**

Maqsad. Ushbu modul yakunida:

devorlarda yoriqlarning paydo bo'lishi sabablarini biladi; devorlarning shikastlanishi va deformatsiyalanishiga olib keluvchi sabablarni umumlashtiradi; devordagi yoriqlarning tashqi ko'rinishi va xarakteriga qarab, ularning kelib chiqishi sababini aniqlaydi.

**3 – modul – Tom yopma konstruktsiyalarida uchraydigan shikastlanishlar.**

Maqsad. Ushbu modul yakunida:

- tom qoplamasining ishonchliligi va umrboqiyiligini tahlil qiladi;
- chordoqli tom yopmalarining afzalligini biladi;
- yopma konstruktsiyalaridagi defektlarni izohlab beradi.

**4 - modul – Binolarga tabiiy va texnologik ta'sirlar.**

Maqsad. Ushbu modul yakunida:

• tabiiy omillar ta'sirini biladi;

• havo muhitining ta'sirini tahlil qiladi;

• tajavvuzkor muhitning turkumlari va ularning metall va nometall ashyolarga bo'lgan ta'sirini tahlil qiladi.

**5 - modul – Qurilish konstruktsiyalarining namlanishi va undan himoyalash usullari.**

Maqsad. Ushbu modul yakunida:

• qurilish konstruktsiyalarini yemirilishiga olib boruvchi eng ko'p tarqalgan va sezilarli ta'sir qiluvchi omillar haqida biladi;

• havoning nisbiy namligi bo'yicha xonalarning turkumlari haqida gapirib beradi;

• to'siq konstruktsiyalarda namlanishining turlari tahlil qiladi.

Modulli ta'lim texnologiyasi didaktikaning tizimlilik, onglilik, tushunarlik kabi tamoyillariga asoslanadi. Modulli ta'limda bir modulni o'zlashtirmasdan, ikkinchi modulga o'tilmaydi. Bu esa o'zlashtirish samaradorligini yanada oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш: Ўқув услубий қўлланма/ Инновацион таълим технологияси серияси. – Т.: “Иқтисодиёт” 2012.
2. Фарберман Б. Илғор педагогик технологиялар. - Т.: Фан. 2000.
3. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Т., 2000.
4. Бозорбоев Н., Хушназаров Б. Қурилиш машиналари. Ўқув қўлланма. ТАҚИ, 2014 й.